

# MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI  
O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalari uchun  
o'quv qo'llanma

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti  
Toshkent — 2010



«Milliy istiqlol g'oyasi» fani bo'yicha ushbu o'quv qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma uch qismidan iborat bo'lib, bunda g'oya va mafkura tushunchalarining mohiyati va mazmuni, ularning turlari va tarixiy shakllari, milliy g'oya, uning falsafiy va tarixiy ildizlari, asosiy tamoyillari hamda tushunchalari bayon etilgan. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi, globallashuv davrining g'oyaviy jarayonlari, mafkuraviy va ma'naviy tahdidlар tahlilini o'z ichiga olgan.

O'quv qo'llanmada bugungi davrdagi mafkuraviy muammolar, yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlod qalbi va ongida mustahkam e'tiqod, mustaqil dunyoqarash asoslarini shakllantirish, turli g'oyaviy tahdidlarning oldini olish, g'oyaviy tarbiya bilan bog'liq bilimlar berilgan.

Qo'llanma Prezident Islom Karimov asarlarida bayon etilgan bunyodkor g'oyalilar, ayniqsa, Yurtboshimizning 2008-yili nashr etilgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari asosida qayta ishlangan.

O'quv qo'llanma to'g'risidagi taklif-mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

Toshkent shahri, Matbuotchilar – 32. Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

**Mas'ul muharrir:** Muzaffar Ortikov

**Mualliflar jamoasi:**

Q.Nazarov, M.Quronov, A.Ochildiyev, A.Xolbekov, M.Lafasov, A.Erkayev, L.Ahmedova, S.O'tamurodov, S.Mamashokirov, N.Quvvatov, F.Musayev, Z.Karimov, B.Orifxo'jayev, I.Ergashev.

**Tagrizzchilar** – *f.f.d. A. Mo'minov va J. Ramatov.*

**ISBN 978-9943-319-78-3**

- © «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatি» nashriyoti, 2003  
© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatি» nashriyoti, 2009  
© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatি» nashriyoti, 2010

## «MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI» FANI

Aziz farzandlar!

Yurtimizdagi zamонавиј колеј ва лицејларда билим олаготган ва касб-хунар сирларини о‘рганавотган Сиз юшлар О‘збекистоннинг имстақиллиги ўйлари туг‘илиб, voyaga yetdingiz. Неча-неча асрлар мобайнода орзу бо‘либ келган Истиқлолни ко‘ришгина эмас, шу даврда яшаш ва о‘қиш Сизга насиб etди. Bu – juda katta sharaf, ayni paytda yuksak mas’uliyat hamdir.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vatanimiz va xalqimiz hayotidagi buyuk sana – Mustaqillik bayramining 18 yilligi arafasida «Mustaqillik biz uchun – o‘zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson mansaati, erkinligi va farovonligining, biz ko‘zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir» degan ezgu g‘oyani ifoda etadigan qaror qabul qildi.

Darhaqiqat, Mustaqillik yurtimiz uchun bebaho ne’mat, xalqimizning buyuk tarixiy g‘alabasidir. O‘zbekiston tarixida 1991-yil 1-sentabr yangi davrni boshlab berdi. Shu kundan e’tiboran dunyo xaritasida ozod va mustaqil yangi davlat paydo bo‘ldi. Истиқлол xalqimizga o‘z taqdirining egasi bo‘lib, o‘z yo‘lini o‘zi tanlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurib, erkin va farovon yashash imkonini berdi. Ayni paytda Mustaqillik har bir odamning o‘z iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun mustahkam zamin bo‘ldi. Shuning uchun ham Истиқлол – eng aziz va eng tabarruk ne’matdir. Mustaqillik bayrami – barchamizniki, butun xalqimiznikidir.

Siz «Milliy istiqlol g‘oyasi» degan yangi fanni o‘rganishga kirishar ekansiz, bu ham Mustaqillik sharofati bilan paydo bo‘lganini, bu fan qiziqarli bilimlar berish, dunyoqarashni kengaytirish bilan bir vaqtda ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qilishini bilishingiz kerak. Chunki milliy g‘oya ma’naviyat bilan, xalqimizning ezgu orzulari va ulug‘vor maqsadlari bilan, qolaversa, har birimizning kelajagimiz bilan chambarchas bog‘liqdir.

---

Izoh: bundan buyon qo‘llanma matnida mazkur asarning faqat sahifalari ko‘rsatiladi.

Prezident Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»<sup>1</sup> asarida Siz, yoshlarga murojaat etib, «Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog‘liq. Bu o‘z navbatida har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas’uliyatini his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi. Va har qaysi fuqaro o‘z mamlakatining xalqaro hainjamiyat safidan munosib o‘rin olishi, bugungi kunda taraqqiy topgan tinch va badavlat yashayotgan davlatlar qatoriga ko’tarilishidan manfaatdor bo‘lishi shubhasiz», (73-bet) deb ta’kidladi.

Yurtboshimizning bu asarida, milliy g‘oya shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgani, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, e’zozlanib kelinayotgani alohida ta’kidlangan (71-bet). Buyuk ajdodlarimizdan, olim-u fozillar, ulamo-yu shoirlar, ma’rifatparvar-u erksevarlardan tarixiy «estafeta»ni olgan hozirgi avlod milliy g‘oyaga sadoqatini amalda isbotlashiga yuksak ishonch bildirilgan. Yoshlarimiz o‘qishda va ishda, ilm-u hunarda, san’at-u sportda bor salohiyatini va qobiliyatini ishga solayotgani, O‘zbekiston dovrug‘ini olamga yoyishga munosib hissa qo’shayotgani faxr bilan tilga olingan.

Ayni paytda hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy g‘oyamizga zid, ma’naviyatimizga begona g‘oya va qarashlarni xalqimiz ongiga singdirishga urinayotgan yovuz kuchlar ham borligini unutmasligimiz kerak. Ular turli usul va vositalar bilan, «demokratiyani olg‘a siljitish», «erkinlikni eksport qilish» kabi soxta shiorlar ostida axloqsizlik me’yorlarini yoyishga, diniy aqidaparastlik, hatto terrorchilik yo‘li bilan tanlagan yo‘limizdan og‘dirishga urinmoqda.

Ma’lumki, «dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy

<sup>1</sup> I.A. Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». – T., «Ma’naviyat», 2008.

qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi» (11-bet). Uzoq va yaqin tarixda bunga misollarni ko'p topish mumkin.

Demak, xalqning eng buyuk boyligi:

- milliy qadriyatlari,
- tarixi,
- ma'naviyatidir.

Mana shu bebafo va betakror boylikni avaylab-asrash, kelgusi nasllarga yanada boyitib yetkazish — hozirgi avlodning muqaddas burchidir.

Mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarga turli taqiqlar, «uni o'qima, buni ko'rma» degan cheklashlar yo'li bilan ham qarshi turish mumkin, albatta. Biroq, bu yo'lning samarasi oz va umri qisqadir. Eng oqilona yo'l — har bir insонning o'z mustaqil fikri bo'lishi, ma'naviyati boy, madaniyati yuqori, milliy g'oyaga

«Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari shart».

Islom KARIMOV

sadoqati yuksak bo'lishidir.

«Milliy istiqlol g'oyasi» fani juda ko'p va turli-tuman mavzularni o'z ichiga oladi. Bu qo'llanmada faqat eng asosiy mavzular qamrab olingan. Qo'llanma uch bo'limdan iborat.

Bunda g'oya va mafkura tushunchalarining mohiyati, inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, tarixiy shakkiali milliy g'oyaning ta'rifi va tavsifi, asosiy tamoyillari bayon etilgan. Milliy g'oyaning Yurt tinchligi va Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va jamiyat barqarorligi kabi asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan, komil inson g'oyasining ma'nosи va mazmuni ochib berilgan.

Shuningdek, hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi, inson ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi, g'oyaviy va ma'naviy xurujlar hamda bularga qarshi turish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalalari bayon etilgan.

Milliy g'oyaning asosiy tushunchalari va tamoyillari to'g'risida qisqacha izohli lug'at darslikka ilova sifatida berildi.

«Milliy istiqlol g'oyasi» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tafakkurni rivojlantirish, erkin fikr yuritish, babs-munozaraga

kirishish, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida tashkil etilgan.

Muhtaram o'quvchi!

Milliy g'oya, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, hayotning o'zi kabi cheksiz, xalqning o'zi kabi ulug'vordir. Siz ushbu fanni o'rganish mobaynidagi orttirgan bilimlarni hayotda qo'llab, ona Vatanga xizmat qilsangiz, intellektual salohiyatingiz bilan O'zbekistonga shuhrat keltirsangiz, bunyodkor g'oyalarga asos solib, katta kashfiyotlar qilsangiz, xalqimizning, Yurtboshimizning orzusi amalga oshadi.

# BIRINCHI QISM MILLIY ISTIQLOL G'oyasi

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR asosiy tushuncha va tamoyillar

### MILLIY ISTIQLOL G'oyasi fanining predmeti, MAVZUSI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Serquyosh mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishgach, xalqimiz ongini erkin fuqarolik jamiyatni, huquqiy demokratik davlat barpo etishga yo‘naltirish uchun odamlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish lozim. Xuddi shu maqsadda mustaqil taraqqiyot yo‘nalishlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan, tub manfaatlarimizga xos va mos milliy g‘oya zarurligi ayon bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov 1993-yildayoq bir guruhib ziyorolar bilan uchrashuv chog‘ida mafkura yuzasidan oldimizda turgan vazifalarni belgilab, jamiyatimizning istiqbol hayoti uchun milliy g‘oya va mafkura g‘oyatda zarur, degan fikrni ilgari surgan edi. Sobiq komfирqanining mafkuraviy tazyiqlaridan charchagan ayrim siyosatchilar jamiyat mafkuradan butunlay xoli bo‘lishi kerak, u faqat taraqqiyotga xalal berishi mumkin, degan yuzaki qarashlarga ko‘nika boshlagandilar.

Biroq, mustaqillik yillarda boshimizdan kechgan sinovlar, aslida, inson, jamiyat g‘oya va mafkurasiz yashay olmasligini yana bir karra isbot etdi. Zero, odamning qalbi, ongi, ruhi va shuuri ko‘pdan ko‘p savollarga javob bo‘ladigan, doimiy faoliyatga undab turadigan hayotbaxsh g‘oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Tabiat va jamiyatda bo‘shliq bo‘lmagani kabi, inson qalbi va ongida ham bo‘shliq bo‘lmasligi lozim. Insonlar jamiyatida komil va sog‘lom g‘oya ustuvor bo‘lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini turlituman begona, zararli g‘oya va maqsadlar egallab, xalq turmush tarzini izdan chiqaradi. Dunyo hamisha o‘zaro bir-biriga zid kuchlar o‘rtasida talash bo‘lib kelganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab, ularni o‘z qo‘lidagi quroqga aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqimlar va ta’limotlarni o‘zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida alohida ta’kidlaganidek: «Ta’bir joiz

bo'lsa, aytish mumkinki, **bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega.** Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqnini, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin»<sup>1</sup>.

Yurtboshimiz bugungi taraqqiyotning mana shunday o'ziga xos qonuniyatlarini teran his etib, buyuk maqsadlar bilan yashayotgan xalqimizning intilishlariga mos keladigan milliy g'oyani ishlab chiqish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Prezidentimiz asarlarida atroflicha yoritib berilgan fikrlar asosida 2000-yilda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» nomli risola dunyo yuzini ko'rdi.

Hozirgi kunda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o'rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish, nihoyat, undagi bilim va qarashlar asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhim.

Shu maqsadda 2001-yil 18-yanvarda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»ni yangi o'quv fani sifatida mamlakatimiz ta'lif tizimiga joriy etish to'g'risida Prezident farmoyishi e'lon qilindi. 2007-yil 26-avgust kuni «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» O'zbekiston Prezidenti Qarori e'lon qilindi. Bugungi kunda ta'lif muassasalarida keng o'rganilayotgan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fani shu tariqa yuzaga keldi.

Bu fanning asosiy maqsadi milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini siz – yoshlar qalbi va ongiga singdirishdan iborat.

«Milliy istiqlol g'oyasi» fanining maqsadi «g'oya» va «mafcura» tushunchalari, ularning turlari, shakllanish hamda taraqqiyoti tarixi, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va globallashuv jarayonlari, «g'oyaviy bo'shliq» va «mafkuraviy immunitet» kabi tushunchalarining ma'no-mazmuni, xalqimiz barpo etayotgan

<sup>1</sup> Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». –T., «Ma'naviyat», 2008-yil, 113-bet.

*Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisol yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'ondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim.*

*Islom Karimov*

jamiyatning ustuvor tamoyillari, taraqqiyotning o'zbek modelining mohiyati, milliy istiqlol mafkurasining o'ziga xos jihatlari, bosh g'oya va asosiy g'oyalari, ularni odamlar ruhiga singdirishning yo'l-yo'riqlari haqidagi bilimlarni tushuntirishdan iborat.

***Shu o'rinda quyidagini yodda tutish lozim:*** Milliy istiqlol g'oyasi

**Buni yodda tuting:** bilan biz o'rganishga kirishayotgan fanning maqsadlari bir-biriga mushtarak, ammo muayyan darajada farq qiladi. Chunki ularning birinchisi taraqqiyotimizning g'oyaviy asoslari va mafkuraviy tamoyillarini o'zida mujassam etgan nazariyani, ikkinchisi esa shu nazariya haqidagi o'quv fanini bildiradi.

Prezidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsadini shunday ta'riflagan: «*Xalqni buyuk kelajak va ulug' vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroni yagona Vatan, baxt-saodat uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bəbaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir»<sup>1</sup>.*

Shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy vazifasi bilan «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining vazifasi ham bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar g'oyaning inson va jamiyat hayotidagi vazifasi bilan fanning ijtimoiy tafakkur va ta'lim-tarbiya tizimidagi vazifasi o'rtasidagi o'ziga xoslikka asoslanadi.

Yurtboshimiz milliy istiqlol g'oyasining vazifasi haqida to'xtalib shunday degan edi: «*Men milliy istiqlol g'oyasi bugun tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash, bizning*

<sup>1</sup> «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». — T., «O'zbekiston», 2000-yil, 7-bet.

*kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman»<sup>1</sup>.*

Biz o'rganayotgan fanning asosiy vazifasi esa o'z tizimidagi bilim va tushunchalarning barchasini pedagogik tamoyillar asosida, ma'rifiy yo'llar bilan o'quvchilar ongiga singdirish hamda shu tariqa ularda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

O'zbekiston xalqi tarixining boy va sermazmun sahifalari, donishmand ajdodlarimizning jahonshumul merosi, xususan, Imom Buxoriy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk mutafakkirlar, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi milliy qahramonlarimizning jasoratlarga to'la hayoti o'sib kelayotgan avlod uchun katta ibrat matabidir.

**Buni yodda tuting:** «Milliy istiqlol g'oyasi» fani mamlakatimizdagи yosh fanlardan hisoblanadi. Sobiq Ittifoqning mafkuralashgan muhiti yakka g'oyani odamlar ongiga singdirishni asosiy maqsad qilib qo'yan edi. Yakka mafkura, yagona g'oya, marksistlar iborasi bilan aytganda, «yangi odam»ni shakllantirishi, ularning tushunchasida go'yo barcha odamlar bir xil fikrashi, bir xilda yashashi lozim edi. Mashhur iboraga ko'ra, jamiyat a'zolarining hammasi «partiyaning oddiy askarlari» edi. Ma'lumki, askar faqat va faqat buyruq, topshiriq asosida ish ko'radi. Marksistlar hammani askardek tasavvur qildi, bu ularning oliy ideali edi.

Jahon maydonidagi turli g'oyaviy qarashlar, erkinlik tamoyillari sobiq sotsialistik jamiyat fuqarolari uchun mutlaqo yot edi. Jamiyatgina simto'rlar ichida emasdi, balki inson ongi, qalbi, tasavvur va tushunchalari ham simto'rlar orasida edi. Bunday muhitda dunyoga kelgan inson olamga ana shu to'siqlar ortidan qarardi.

<sup>1</sup> «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». –T., «O'zbekiston», 2000-yil, 8-bet.

Milliy istiqlol g'oyasi erkin fikr, demokratiya, fuqarolik jamiyat, hur va ozod tafakkur haqidagi fandir. Bugungi kunda bu fanning hayotimiz uchun zarurati va yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni Prezident Islom Karimov asarlarda asoslab berilgan.

Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek, «Milliy g'oya deganda, ajdodlardan aylodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuquq ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz»<sup>1</sup>.

**Buni yodda tuting:** Fanning asosiy maqsad va vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

1. Millatimiz asriy asoratdan ozod bo'ldi. Ozodlik tushunchasi qo'l yetmas xayoldan real voqelikka aylandi. Bugun mustaqil mamlakatimiz farzandlari, ya'ni, Siz, aziz o'quvchilar – bu ozodlikning mevalarisiz. Demak, eng avvalo, bu – Sizning faningiz. Uning maqsadi esa Sizga ozodlik, hurriyat, erkinlik xususida keng va atroficha bilim berishdir.

2. Hayot maqsadlar silsilasidir. Bizning fanimiz milliy tariximiz, madaniyat va san'atimizning ezgu g'oyalalarini Sizga yetkazishdan iborat. Tuprog'imizda qadimdan yashab kelgan ota-bobolarimiz an'analari, istiqlol yo'lidagi kurashlarga guvoh bo'lgan o'lmas tariximiz, boy madaniy merosimiz haqida Sizlarni ogoh etish ham shu maqsadlar sirasiga kiradi.

3. Jahon mafkuralar kurashi maydoniga aylangan, turli yot g'oya va qarashlar insonlar ongi uchun kurashayotgan bugungi murakkab sharoitda Sizning mafkuraviy salohiyatingizni mustahkamlash ham mazkur fanning asosiy maqsad va vazifalaridandir.

Aziz o'quvchi, milliy istiqlol g'oyasi fani vatanparvarlik va jasoratga undovchi fandir. Siz uni o'rganar ekansiz, jasur bobolarning mardonavor hayotini, kurashlarini qalb va ongingizga muhrlaysiz, deb o'ylaymiz.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi istiqlol

<sup>1</sup> Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». –T., «Ma'naviyat», 2008-yil, 71-bet.

g‘oyasining asosiy mavzusidir. Zero, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, xalqqa mehr tuyg‘ulari komillikning oliv namunasi.

### Savol va topshiriqlar

- 1** «Milliy istiqlol g‘oyasi» fani qanday yuzaga kelgan?
- 2** Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
- 3** Bu fanning asosiy maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
- 4** «Milliy istiqlol g‘oyasi» fanining maqsad-vazifalari bilan milliy istiqlol g‘oyasining maqsad-vazifalari bir-biridan qanday farq qiladi?
- 5** Bu fan sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda qanday o‘rin tutadi?

### Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular

- 1** «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining shakllanishi.
- 2** «Milliy istiqlol g‘oyasi» fanining asosiy maqsad va vazifalari.
- 3** Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganish – komil insonni tarbiyalash omili.



## «G‘OYA» VA «MAFKURA» TUSHUNCHALARINING MOHIYATI VA MAZMUNI

G‘oya nima? Inson o‘zining aql-zakovati, qalbi, tili va tafakkuri, bir so‘z bilan aytganda, barcha ma’naviy va jismoniy imkoniyatlari bilan tabiatning eng buyuk mo‘jizasi hisoblanadi.

U – sezuvchi, fikrlovchi, ongli, mukammal mavjudot sifatida voqelikni idrok etish jarayonida qalbida turli his-tuyg‘ular, tafakkurida xilma-xil fikr, qarash va g‘oyalarni yaratadi. Shu ma’noda, his-tuyg‘u va sezgilar, o‘y, fikr va g‘oya tafakkur mevasidir. Lekin tafakkurda tug‘ilgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtayi nazar ham g‘oya bo‘lmaydi. Eng salmoqli, muayyan maqsadga qaratilgan va ijtimoiy ahamiyatga molik fikrlargina g‘oya bo‘lishi mumkin.

**Buni yodda tuting:** *G‘oyaning muqobili, ya’ni ma’nodoshi ideya, mafkuraning muqobili esa ideologiyadir. «Ideya» va «ideologiya» tushunchalari ko‘proq Yevropa xalqlarida qo‘llanadi. «Ideya» yunon tilidagi idea so‘zidan olingan bo‘lib, tushuncha yoxud fikr ma’nosini anglatadi. Ideologiya ham ana shu so‘zdan yasalgan va u (idea – g‘oya, tushuncha, logos – ta’limot) g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limotni bildiradi hamda quyidagi ma’nolarda ishlatiladi: birinchidan, g‘oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmning mustaqil sohasi hisoblanadi; ikkinchidan, muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.*

G‘oya bir guruh insonlarni yoki jamiyatni o‘ziga jalb etib, uyushtirib, safarbar qilib, ijtimoiy kuch – vositaga aylanadi. Fikr esa, voqelikka oddiy munosabatni ifoda etadi. Masalan, «Inson yoki, umuman, xalq ozod bo‘lmasdan, baxtga erisholmaydi» degan fikr g‘oyaviy quvvatga ega bo‘lgan fikrdir. Chunki, u barcha insonlar va jamiyat hayotining ma’no-mazmunini tashkil etuvchi muayyan haqiqatni ifodalaydi. Shuning uchun u barcha odamlarning tili va dinidan qat‘i nazar, uyushishi va o‘z ozodligini himoya etishi uchun kuchli birlashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Buni yodda tuting:** *G‘oya, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy xususiyatga ega. Odatda, g‘oya dastlab bir shaxsning ongida shakllanadi, so‘ng, ijtimoiy dolzarbligiga qarab, odamlar, xalqlar, millatlar orasiga yoyiladi. Fikr bilan g‘oyaning*

fargini ifoda etgan ushbu fikrdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, g'oya oddiy munosabat ifodasi bo'lish bosqichidan butun bir xalqni, butun bir jamiyatni va hatto butun sivilizatsiyani olg'a boshlovchi kuchga aylanish bosqichigacha bo'lgan takomil yo'lini bosib o'tishi mumkin.

## G'oyaning falsafiy talqini

*G'oya – vogelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir. G'oya – shaxs, jamiyat, guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalovchi, ularni birlashtiruvchi va pirovard maqsadlarga safarbar etuvchi ijtimoiy fikrdir.*



*G'oya – ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi.  
G'oya – muayyan tarzda namoyon bo'ladi.  
G'oya – biron-bir maqsadni ifodalaydi.  
G'oya – amaliy harakatga undaydi.  
G'oya – muayyan mafkuraning asosi.*

Masalan, do'stlik, birodarlik, tinchlik va tenglik g'oyalari bugungi kunda butun insoniyatni, mintaqaviy sivilizatsiyalarni birlashtiruvchi va bahamjihat bo'lib harakatga undovchi g'oyalari hisoblanadi. Holbuki, eng qadimgi rivoyatlarga asoslanib fikr yuritadigan bo'lsak, yer yuzidagi birinchi inson – Odam Ato o'z farzandlariga, bolalarim, do'st-birodar bo'linglar, tinch-totuv yashanglar, deya nasihat qilgan paytda bu g'oyalari hali oddiy o'git, pand-nasihat darajasida edi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalari ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Shu bois g'oya muayyan ijtimoiy zarurat tufayli muayyan makon va zamonda paydo bo'ladi, ya'ni fikr bosqichidan g'oya bosqichiga – muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarish, maqsad-muddaolarni amalga oshirish, ezgu yoki yovuz kuchlarning qo'lida qurol bo'lish darajasiga ko'tariladi. Ana shu ma'noda aytganda, g'oya takomillashish xususiyati va quvvatiga ega bo'lgan fikrdir.

Fikr anglangan haqiqatdan tug'iladi. Ya'ni biror narsaning aslida nima ekanini bilmasdan turib, u haqida fikr bildirolmaysiz. Masalan, sutning oq ekani, chorvadan olinishi, iste'molga yaroqliligi – umuman, u to'g'risida bor haqiqatni bilmagan odam bu ne'mat to'g'risida aniq fikr bildirolmaydi.

G'oya esa haqiqatning namoyon bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini anglashdan tug'iladi. Masalan, yaxshilik, ezgulik, farovonlik insonga baxt-saodat keltirishini anglab yetmasalar, ajdodlarimiz uni asrlar mobaynida hayotning ma'no-mazmuni deb bilmas edilar. Yoki milliy mustaqillikdan toptalgan haq-huquq va ozodlikni qaytarib olish tushunchasi anglanmassa, uning uchun hech kim kurashmas edi.

G'oya insonlar qalbi va ongini egallab, jamiyat rivojiga ta'sir etadi. Jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji, maqsad-muddao va manfaatlari o'zgarishi bilan o'zining muayyan joziba kuchi va quvvatini ham yo'qotishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning 90-yillari boshida sobiq SSSR hududidagi respublikalar mustaqillik sari sobitqadamlik bilan intila boshlagach, dunyodagi eng ayovsiz mafkura – KPSS rahbarlarining ittifoqni mustahkamlash haqidagi fikrlari hech qanday qadr-qimmatga ega bo'lmay qoldi.

**Buni yodda tuting:** *G'oyalari xilma-xildir. Ular ong mevasi shaklida borliqni, turmushni, uning*

*qonuniyatlarini o'rganish, kashf etish, o'zlashtirish, bilish va anglash jarayonida vujudga keladi.* Binobarin, voqelikni, hayotni, uning qonuniyatlarini o'rganish, kashf etish, o'zlashtirish, bilish va anglash bilan shug'ullanuvchi barcha ijtimoiy tafakkur shakllari — ilmfan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq kabi sohalar muayyan bir g'oyaga tayanadi va ular asosida rivojlanadi. *Shu ma'noda aytish mumkinki, ijtimoiy tafakkurning barcha shakllari o'zi tayanadigan g'oyaga ega. Chunonchi, diniy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oyalar, umuminsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.*

Haqiqat va uning mohiyatini har kim har xil tushunishi mumkin. Masalan, birov yoshligidan yaxshilikka yo'g'rilgan umuminsoniy ma'rifat asosida tarbiya ko'radi va hamma narsaga ma'rifat, aql-idrok, yaxshilik bilan qarashga harakat qiladi. Boshqa birov esa, aksincha, jaholatga berilgani uchun hech narsani to'g'ri qabul etolmaydi. Shuning uchun ezgulik, ma'naviyat va haqiqat qonuniyatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri tushunish, anglashga qarab, g'oyalar bunyodkorlik yoki vayronkorlik, ezgulik yoki yovuzlik g'oyalariga bo'linadi.

Qariyb uch ming yil burun bashariyat hayotiga yaxshilikdan ilk darak bo'lib kelgan va ayni bizning ajdodlarimiz tafakkuri mahsuli bo'lmish jahonshumul «Avesto» kitobining bosh g'oyasi — ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal edi. Ayni mana shu go'zal uchlik hali insoniyat tongotaridayoq hayotning asosiy qonuniyatları bo'lgani yuqoridağı fikrlarimizning dalilidir. Bus-butun yaxshilik g'oyalari bilan sug'orilgan «Avesto» kitobi va shunga o'xhash tarixiy merosimiz ham bunyodkor, ezgu g'oyalar hayotda nechog'li muhim rol o'ynashini yana bir karra tasdiq etadi. Bu g'oyalarning bashariyat tomonidan yakdillik bilan qabul qilinishining asosiy sababi ham ana shu umuminsoniy ezgulik, bunyodkor g'oyalar ekaniga hech qanday shubha yo'q. Mangulikka daxldor bunday tarixiy meroslarning siri ana shunda.

Do'stlik, hamjihatlik, farovonlik, ozodlik kabi ezgu g'oyalar bunyodkor g'oyalardir. Fashizm, bolshevizm, shovinizm, mayda millatchilik, ekstremizm va terrorchilik kabi yovuzlik g'oyalari vayronkor g'oyalardir.

Prezidentimiz Islom Karimov bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurash dialektikasini shunday ta'riflab bergan: «*Mening*

*nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashadi. Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq».*

Agar Prezidentimizning fikrlariga diqqat bilan e’tibor qaratsangiz, azaliy bir haqiqat yaqqol oshkor bo‘ladi. «Inson tabiatida insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq». Bugun achchiq bo‘lsada tan olishimiz kerak. Televizor ekranlari orqali namoyish etilayotgan dunyoning turli mintaqalaridagi jang-ujadallar, urhovular, tizginsiz, beboshoq yig‘in-sig‘inlardagi vahshiylik, zo‘ravonliklar yuqoridagi fikrlarning isboti emasmi? Yondirilayotgan avtolar, kuydirilgan jasdarni sazoyi qilish, na siyosatga, na mansab-martabaga da’vosi bo‘lmagan oddiy odamlar yashaydigan turarjoy binolarining portlatilishi, yoxud so‘nggi paytda paydo bo‘lgan «xudkush»larning avtobuslar, aholi jamlanadigan joylarda o‘zlarini portlatib yuborib, qanchadan qancha begunohlarning qonini to‘kayotganlari-chi?

**Buni yodda tuting:** *Xulosa qilib aytganda, g‘oya deb, dunyodagi voqeа-hodisalar va hayot ta’sirida inson tafakkurida shakllanadigan, muayyan mazmunga ega bo‘lgan, bironbir maslakni aks ettirib, uni amalga oshirishni taqozo etadigan, insonlar va xalqlarni uyuşhtirib, muayyan maqsadlar sari boshlaydigan ijtimoiy fikrga aytildi.*

**Mafkura haqida ma’lumot.** G‘oya anglangan maqsad va haqiqatni o‘zida aks ettiruvchi fikr bo‘lsa, mafkura ana shu maqsad va haqiqatning anglangan shakliga mos bo‘lgan g‘oyalalar, fikrlar va ularni amalga oshirish usul va uslublari tizimidir. Shuning uchun bu tizim asosida mafkura tarkibidagi bosh va asosiy g‘oyalarni amalga oshirish jarayonida tug‘iladigan savollarga javob berish mumkin bo‘ladi. Muayyan g‘oya muayyan mafkuraga asos bo‘lib, uni shakllantirishi mumkin, mafkura esa o‘z tizimi tayanadigan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muayyan xalqning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘llari va vositalari tizimi uning milliy mafkurasi asosini tashkil etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraning xalqni xalq, millatni millat etish borasidagi ahamiyatini ta’kidlab, shunday yozadi: «*Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi*



*va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida, shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».*

Erkin demokratik jamiyat barpo etishni bosh maqsad qilib olgan va taraqqiyoti ijtimoiy hamkorlikka asoslangan davlatlardagi xalqlarning milliy mafkurasi odamlarni ana shu ezgu maqsad yo'lida birlashtiradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi ham jamiyatimizni yanada jipslashtirishga, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini o'ylab, sog'lom e'tiqod va dunyoqarash bilan yashashga da'vat etadi.

Kishilik tarixi mafkuralar, o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa g'oya va ta'limotlar asosida shakllanishini ko'rsatadi. Mafkuraning falsafiy asoslari falsafa ilmi xulosalariga tayanadi. Yevropa xalqlarining har biri Uyg'onish davri hamda o'rta asrlarda o'z davlatchiligini tiklash jarayonida milliy-falsafiy ta'limotlar asosida o'ziga xos mafkurasini yaratgani buning yaqqol dalilidir.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari deganda, ma'rifiy taraqqiyotga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimi tushuniladi. Ma'lumki, bugungi kunda dunyoviy jamiyat asosini qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi umume'tirof etilgan g'oyalalar tashkil etadi. Bunday jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari qonuniy asosda kafolatlanadi.

Mafkuraning diniy ildizlari deganda, uning diniy qadriyatlardan oziqlangan g'oyaviy-ruhiy asoslari tushuniladi. Masalan, xitoy xalqlari milliy mafkurasi hisoblangan, uning e'tiqodi va dunyoqarashi asoslarini belgilab bergen Konfutsiy va Lao-szi ta'limotlari diniy qarashlarga asoslangan. Bu ta'limotlar ko'p asrlar mobaynida Xitoy xalqining milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Ezgulik, oqibat, ilm-ma'rifat, insoniylik kabi umuminsoniy g'oyalarga asoslangan islom dini o'z tarixiy yo'lida yirik sivilizatsiyalarni yaratdi, dunyo ilm-fanini bir necha asrga ilgarilatgan allomalarining yaralishiga zamin bo'ldi. Dunyoning teng yarmini ishg'ol qilgan Amir Temur sultanati, Hindistonda ingлиз mustamlakasiga qadar hukm surgan boburiylar imperiyasi, diyorimizdagi Samarqand hamda Buxoro, Xiva va Urganch kabi

ilm-fan va madaniyat keng rivojlangan shaharlar fikrimizning dalilidir. Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Boborahim Mashrab, Imom Burhoniddin Marg'inoniy kabi yuzlab ma'rifat quyoshlari ham islonning hayotbaxsh g'oyalaridan ilhom olganliklarini inkor qilish mumkin emas.

Qaysi xalqning milliy mafkurasi bir-birini boyitib boruvchi ilmiy va falsafiy, dunyoviy va diniy, azaliy va zamonaviy manbalarga asoslansa, u taraqqiyot bobida ilgarilab boraveradi.

Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Bugungi kunda zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika sohasidagi olamshumul yangiliklar, insонning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirib yuborayotgani shundan dalolat beradi. Kompyuterlar, uyali telefonlar, internet tizimi ham ana shunga xizmat qiladi.

Lekin ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalananish uchun ham sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak. Aks holda, ilm-fan yutuqlarini noto'g'ri qo'llash oqibatida Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, bugungi ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzulga o'xhash umumbashariy muammolar yanada kuchayib borishi mumkin.

Demak, *mafcura — o'zining bosh va asosiy g'oyalari hamda tamoyillariga tayanib, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlarning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad, intilish va manfaatlarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish, e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishning usul va vositalari tizimidir.*

## Savol va topshiriqlar

- ① G'oyaning fikrdan farqi nima?
- ② G'oyaning asosiy xususiyatlarini tushuntiring.
- ③ G'oyalar ma'no-mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra bir-biridan qanday farqlanadi?
- ④ Prezidentimizning bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurashga bergen ta'rifini tushuntiring va yod oling.
- ⑤ G'oyaning ta'rifini tushuntiring va yod oling.
- ⑥ Prezidentimizning mafkuraning xalqni xalq, millatni millat etish

borasidagi ahamiyatini ta'kidlab aytgan fikrlarini tushuntiring va yod oling.

⑦ G‘oya va mafkuraning bir-biridan farqi nimada?

⑧ Mafkuraning ta’rifini tushuntiring va yod oling.

### Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

1 «G‘oya» tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.

2 G‘oyalarning namoyon bo‘lishi va xilma-xil ko‘rinishlari.

3 «Mafkura» tushunchasi, uning mohiyati.


4 Mafkuralarning namoyon bo‘lish xususiyatlari.



## G‘OYA VA MAFKURANING TARIXIY SHAKLLARI

**G‘oya va mafkuraning tarixiy shakllari.** Kishilik tarixidan yaxshi ma'lumki, dastlab odamlarning ishonch-e'tiqodi tabiatni ilohiylashtirish asosida shakllangan. Shuning uchun eng qadimgi mafkuralar haqida gap ketganda, avvalo, odamlar jamoa bo‘lib, urug‘larga bo‘linib yashagan ibtidoiy davrlarni eslash lozim. Chunki odamlarning jamoa bo‘lib, ya‘ni birlashib yashashi ularning muayyan mafkura asosida uyushganidan, tabiat o‘zgarishlariga birgalikda javob izlaganidan dalolat beradi. Bunda ular yashaydigan hududning o‘ziga xos iqlimi, tabiat dunyosi, shart-sharoiti muhim ahamiyat kasb etgan. Insonning hali texnika rivojlanmagan vaqtidagi hayot tarzi, moddiy ta’minoti ko‘proq tabiat hodisalariga bog‘liq bo‘lgani uchun har bir qabila tevarak-atrofidagi borliqni o‘zining moddiy-ma’naviy ehtiyojlaridan, ularni qondirish darajasidan kelib chiqqan holda tasavvur etgan. Shu tariqa tabiat hodisalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradigan afsona va rivoyatlar paydo bo‘lgan. Masalan, eng qadimgi davrlarda nur, ziyo, bahor, yoz farovonlik, yaxshilik va ezgulik ramzi sifatida tasavvur etilgan bo‘lsa, qish, ayoz qorong‘ulik, zulmat, yomonlik va vayronkorlik timsoli sifatida tasavvur etilgan.

Afsona va rivoyatlar, tasavvurlarga asoslangan bunday qarashlarni biz mifologik (**mif – afsona** ma’nosini bildiradi) qarashlar deb ataymiz. Xusan, totemizm, animizm, fetishizm kabi ibtidoiy dinlar ana shu asosda shakllangan. Ular jonning abadiyligi, tabiatdagi narsa va hodisalarning ilohiy quvvatga ega ekaniga to‘g‘risidagi xilma-xil g‘oya va sodda qarashlarni ifoda etgan.



Masalan, totemizm — hayvon va o'simliklarga sig'inish asosidagi diniy ta'limot. Bu so'z Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojiba qabilasi tilidan olingen. Totemizm odamzodning muayyan o'simlik va hayvon turlariga qarindoshligi borligini anglatadi. Bunday xususiyatlar ayrim xalqlar hayatida bugungi kungacha uchraydi. Masalan, hindlar sigirga, avstraliyaliklar kenguruga, qirg'izlar oq bug'uga baxt keltiruvchi hayvon deb qaraydi. Bizning ajdodlarimiz esa humo qushini ulug'laganlar. Shuning uchun davlatimiz gerbida humo qushi tasviri tushirilgan.

Yuqorida aytganimizdek, ibridoiy odamlar hamma narsaning joni bor, ular sezadi, fikrlaydi, deb o'ylaganlar. Ular yaxshilik keltirsin, yomonlik keltirmasın deb turli xil marosimlar o'tkazib, duolar o'qiganlar. Animizm (*lotincha anima* — ruh degani) — har bir narsaning joni bor deb e'tiqod qilishga undovchi ana shunday qarashlar asosida shakllangan.

Fetishizm (*fransuzcha fetiche* — but, sanam, tumor degani) — jonsiz narsalarga sig'inishga da'vat etuvchi e'tiqod. Uning mazmuniga ko'ra, buyumlar va ularga xos xususiyatlar insonlarni murod-maqsadga yetkazishi, odamlarning hayatiga biron-bir tarzda ta'sir etishi, bu ta'sir goh ijobiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Taraqqiyot natijasi o'laroq insoniyat tarixining keyingi davrlarida milliy asosdagi hinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy tizimlar shakllangan.

Hinduizm hindistonliklarning ko‘pxudolilikka asoslangan dini bo‘lib, unda uchta xudo asosiy deb tan olinadi.

Iudaizm – yahudiylilik dini bo‘lib, unga ko‘proq shu millat vakillari e’tiqod qiladi.

Konfutsiylik – xitoy faylasufi Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta’limot.

Yaponlarning milliy dini esa sintoizmdir.

Yer yuzining ma’lum mintaqasida paydo bo‘lgan diniy qarashlarning asosida o‘sha tabiiy makonning xususiyatlari, odamlarning yashash tarzi namoyon bo‘ladi. Masalan, Odam Ato va Momo Havoning yaralishi xususidagi rivoyat dunyoning qariyb barcha dinlarida mazmunan deyarli bir xil, ammo shakl nuqtayi nazaridan farq qiladi. Masalan, shimoliy mintaqalarda yaratilgan rivoyatlarda Odam Ato va Momo Havo, janubiy mintaqada «tuproqdan yaralgan» ilk Ota va Onamizdan farqlanadi. Bunga o‘xshash misollarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Dinlarning deyarli barchasida ko‘plab milliy an'analar, xalqning turmush tarzi ham mujassamlashgan. Ular muayyan davrlarda davlat dini va mafkurasi bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, konfutsiylik bir necha asrlar mobaynida Xitoy xalqining dini va davlat mafkurasi bo‘lib kelgan.

Xuddi shuningdek, ijtimoiy zaruriyat taqozosiga ko‘ra, falsafiy g‘oyalar ham muayyan tizimni shakllantirib, odamlarning e’tiqodi va dunyoqarashiga aylanadi. Olamning yaralishi, mavjudlik xossalari, uning asosini tashkil etuvchi birlamchi narsaning mohiyati kabi masalalarga turlicha yondashish natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan.

Monizm – olamning asosi bitta deb tushuntiradi.

Dualizm – olam xudo tomonidan yaratilgan, lekin uning rivojlanishi o‘zining moddiy xususiyatlariga ham bog‘liq deb ta’llim beradi.

Plyuralizm – olam ko‘p narsalarning birikishi natijasida vujudga kelganini yoqlaydi.

Idealizm – olam va odamning yaralishi, dunyoning yashashi va rivojlanish qonuniyatları, borliq hamda yo‘qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb biladi, ularni mutlaqlashtiradi.

Materializm – olam va odamni ilohiy kuch yaratmagan, ular moddaniy rivojlanib borishi natijasida paydo bo‘lgan, deb o‘rgatadi.

Bundan tashqari, dunyoda shovinizm, kosmopolitizm va nigilizm kabi mafkurlar ham bor.

Shovinizm — muayyan shaxs, davlat yoki millatni boshqa shaxs, davlat yoki millatdan ustun qo'yishga undaydi.

Kosmopolitizm — ko'proq vatansizlikni yoqlaydigan, milliy qadriyat va an'analarni tan olmaydigan qarash va yashash tarzidir.

Nigilizm — ko'proq ba'zi ma'naviy mezonlarni tan olmaslikka, ularning ayrimlarini rad etishga undaydigan ta'limot.

Yuqoridagi falsafiy oqimlarga doimo ham mafkura shakllari ulatida qaralmaydi. Ammo gohida ularga asoslangan ta'limotlar paydo bo'ladi va bu ta'limotlarda muayyan g'oyaning mutlaqlashtirilishi turli mafkuraviy xatolarga sabab bo'lishi ham mumkin. Ana shu sababdan bu oqimlarning mazmun-mohiyatini bilib qo'ygan ma'qul.

Ba'zi mafkuralar, muayyan ijtimoiy shart-sharoit taqozosiga ko'ra, davlat mafkurasiga aylanadi. Ayrimlari davr o'tishi bilan o'zining mavqeyini yo'qotsa-da, umumbashariy qadriyatlar manbayi ulatida tarixiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Turli-tuman mafkuralar o'rtasidagi bahs-munozaraga sabab bo'luvchi yoki ularni uyg'unlashtiruvchi g'oyalar ham qadim zamonlardan buyon mavjud va bu jarayon insoniyatning tafakkur rivojiga ta'sir etib kelmoqda. Shuningdek, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan g'oyaviy tizim va mafkuralar tortishuvi ham uzoq tarixga ega. Bunga ilohiy kuch, ya'ni xudoni butunlay rad etuvchi ateizm — dahriylik bilan xudo va ilohiylikni mutlaqlashtiruvchi teizm — xudojo'ylik o'rtasida azaliy bahs-munozara yorqin misol bo'la oladi. Bu an'anaviy tortishuv, shunchalik ilm-fan taraqqiyotiga qaramay, bugungi kunda ham muayyan darajada davom etmoqda.

Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig'inish natijasida paydo bo'lgan shovinizm g'oyalari XIX asrning 30-yillarida keng tarqalgan. Keyinchalik u bir xalqni boshqasidan afzal deb biladigan zararli oqimga aylangan. «Buyuk millatchilik shovinizmi», «buyuk davlatchilik shovinizmi», «irqiy shovinizm» kabi tushunchalar aynan shuning natijasida paydo bo'lgan.

**Bunyodkor va vayronkor g'oyalar.** Ko'hna tarix tajribalari, bugungi taraqqiyot saboqlaridan ayon bo'lmoqdaki, dunyodagi g'oya va mafkuralar qanday shaklda bo'lmasin, ular avvalo inson qalbidagi ikki tuyg'u — bunyodkorlik va buzg'unchilik intilishlaridan kuch oladi. *Xullas, g'oyaviy nuqtayi nazardan olganda, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-*

*biri bilan munosabatidan iborat uzlusiz jarayondir.* Bu jarayonda turli g'oyalar maqsad va vazifalari, kimning manfaatlarini ifoda etishiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Ayrim davlatlarning zo'ravonlik vasvasasiga berilib, o'z ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatichilik, fashizm va ekstremizm g'oyalarini yuzaga keltirgan. Ular butun insoniyatga ko'plab kulfat keltirib, uning taraqqiyotini orqaga surgan.

Ezgu maqsad-muddaoлага xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi. Vayronkor g'oyalar asosida shakllangan mafkuralar esa xalqlar va davatlarni tanazzulga boshlaydi, insonni asoratga soladi, hayotni qabohatga aylantiradi.

Shu ma'noda, yuksak g'oyalar odamlarni oliyanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatları yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.


Jahon tarixidan, jumladan, xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga ulug'vor g'oya madad ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Bashariyat beparvolikka berilib, uning bunyodkorlik intilishlari susaygan paytda yovuz va buzg'unchi mafkuralar jozibali shiorlarni niqob qilib, odamlarni chalg'itib, hokimiyatga egalik qilib olishi ham mumkin. XX asrning 30-yillarda Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi, buning natijasida dunyo halokat yoqasiga borib qolgani, insoniyat boshiga tengsiz kulfatlar yog'ilgani bunga misol bo'la oladi. Albatta, fashizm g'oyasi o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. U zikr etilgan davatlardagi o'zaro qarama-qarshiliklar, ijtimoiy tengsizliklar, iqtisodiy muammolar natijasida vujudga kelgan va asta-sekin kuchayib borgan. Xususan, Italiyada 1910-yildan «Milliy g'oya» nomli jurnal nashr etila boshlagan. Unda asosan tajovuzkor millatchilik targ'ib etilgan.

Ushbu mamlakatdagi hamda butun dunyodagi taraqqiyarvar kuchlarning bunday noxush holga loqayd qaragani, kurash yo'lida birlasholmagani natijasida fashizm tez orada hukmon mafkuraga aylandi. Bu odamzod uchun achchiq saboq bo'lib, har qanday g'oya va mafkura ezgulik va bunyodkorlik intilishlarini mujassam etmasa, xalqni vayronkorlik sari boshlasa, oxir-oqibatda, inson hayotini xavf ostida qoldirishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Ana shunday vayronkor mafkuralardan biri bolshevizm edi. Usinflar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshilikni

*G‘oya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bonyodkorlik va vayronkorlik o‘rtasidagi kurash dilalektikasi belgilab keladi, ya’ni, bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tujovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o‘laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g‘oyalarini uzlusiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog‘iga aylangan.*



mutlaqlashtirishga, hokimiyatni har qanday yo‘l bilan egallahsga, xalqni mulksiz, g‘urursiz olomonga aylantirishga qaratilgan edi. U zo‘ravonlikni, qon to‘kish va ommaviy qatag‘onlarni oqlash uchun jamiyatni sun‘iy ravishda qarama-qarshi taraflarga ajratdi. Bunday qarama-qarshilik doimiy mafkuraviy targ‘ibot natijasida nafaqat guruh va qatlamlarni, balki oilalarni ham qamrab oldi.

Odamlar «qizillar va oqlar»ga bo‘linib ketdi. Buning natijasida ota o‘g‘ilga, aka ukaga, do‘s t birodarlariga qarshi kurashdi. Qisqasi, xalqning kuch-idroki bunyodkorlikka emas, vayronkorlikka yo‘naltiriladi. Yaratish, ijod qilish emas, balki buzish va yo‘q qilish, odam o‘ldirish mardlik va qahramonlik sifatida ulug‘lanadigan bo‘ladi.


Lekin bu mafkura dunyoning oltidan bir qismida yetmish yildan ortiq hukmronlik qilganiga qaramay, g‘ayriinsoniy mohiyati tufayli, oxir-oqibatda, halokatga uchradi.

Vayronkor g‘oya va mafkuralarning eng ko‘p uchraydigan shakllaridan biri diniy aqidaparastlikdir. Ular, xalqning taraqqiyot darajasiga qarab, muayyan davrlarda G‘arbda ham, Sharqda ham hukm surgan, bugungi kunda ham dunyoning turli hududlarida

turli shakllarda paydo bo'limoqda. Ular terrorchilik, diniy ekstremizm, qurol-yarog' va giyohvand moddalar savdosi kabi jinoyatkorona xatti-harakatlar bilan birlashib, eng zamonaviy qurolaslaha hamda texnik vositalarni egallab, odamzod uchun katta ofatga aylanmoqda. Bugungi kunda Yaqin Sharq, Bolqon yarim oroli, Shimoliy Kavkaz, Afg'oniston, Jazoir kabi mintaqalarda

*Buzg'unchi g'oyalalar xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning ziddi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Lekin ular odamzodning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalalariga tayanib, olyi maqsadlar sari intilishlarini aslo to'xtata olmaydi.*

### Vayronkor g'oyalalar



*Jamiat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'ladi hamda g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi*

mamlakatlar bu illatlar keng yoyilgan hududlarga aylanib qolmoqda.

Aqidaparastlik har qanday shaklda ham insoniyat uchun nihoyatda xatarlidir. Hozirgi davrda ham hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi, ko'p hollarda vatansizlikni mutlaqlashtiradigan ba'zi mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'limoqda. Prezidentimiz ta'kidlagani kabi, bashariyatni jaholatdan ma'rifatga, zulmatdan ziyoga olib chiqadigan umuminsoniy g'oyalarni asoslash va amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini kashf etish uchun kishilik tarixining turli davrlarida beqiyos aql-zakovat, iste'dod va tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz.

Zardusht, Suqrot, Aflatun, Arastu, Konfutsiy, Forobiy, Alisher Navoiy va Maxatma Gandhi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi.

Milliy g'oya va mafkura o'zida guumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarini ulug' maqsadlarga safarbar etishga xizmat qiladi.

Masalan, XX asrda katta ahamiyatga ega bo'lган yapon milliy mafkurasi «kattaga hurmat», «ona yerga sadoqat», «yaponlarga xos ruh», «umummilliylit», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «fuqarolik burchi», «tadbirkorlik», «jamoaga sadoqat» kabi g'oya va tushunchalarini qamrab oladi. Bu tushunchalar xalq hayotiga mos kelgani, ularni yuksak maqsadlar sari boshlagani uchun o'tgan asrda Yaponianing jadal rivojlanishiga asos bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi. Masalan, ayrim hukmdorlarning Chingizxon bosqini, Chor Rossiyasi istilosini davrida xalqni birlashtirib, kurashga safarbar etolmagani mamlakatimizning qaramlikka tushib qolishiga olib kelganini tarixdan yaxshi bilamiz.

Xulosa qilib aytganda, g'oya va mafkuralarning tarixiy shakllari, mazmun-mohiyatini asrlar mobaynida ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi azaliy kurash belgilab keladi. Har bir kishi buni yaxshi bilmog'i, bu borada o'z o'rnini topmog'i, hayoti va faoliyatini ezgu ishlarga sarflamog'i lozim.

### Savol va topshiriqlar

- 1 Milliy-diniy asosdagi mafkuralardan qaysilarini bilasiz?
- 2 Monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm haqida gapirib bering.
- 3 Bunyodkor va vayronkor g'oyalarning mohiyati haqida gapirib bering.
- 4 Vayronkor g'oyalarning eng ko'p tarqalgan shakllari qaysi?
- 5 Milliy g'oya va mafkuralar qanday talablarga javob berganda xalqni ezgu maqsadlar sari safarbar eta oladi?
- 6 G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

### Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

- Ijtimoiy taraqqiyot g'oya va mafkuralar tarixidir.

- 2** Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar.
- 3** Sivilizatsiyalar tarixida yovuz g'oya va vayronkor mafkuralar.
- 4** Tarixda g'oya va mafkuralarni mutlaqlashtirish oqibatlari.



## HOZIRGI ZAMONDA INSON QALBI VA ONGI UCHUN KURASH

**Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.** Dunyoning siyosiy, iqtisodiy, madaniy qiyofasi bo'lgani kabi, mafkuraviy manzarasi ham bor.

**Buni yodda tuting:** Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, odamlarning qalbi va ongini egallah uchun olib borilayotgan kurash qayerda qanday kechayotgani, bu yo'lida qaysi joyda qanday usul va vositalar qo'llanayotgani, qaysi hududning qanday g'oya va mafkuraviy poligon ta'sirida ekanligi tushuniladi.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Bunday mafkuraviy poligonlar jangovar qurollar bilan emas, balki, avvalo, inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi g'oyaviy qurollar bilan kurashish jarayonining kuchayib ketishi natijasida paydo bo'immoqda.

Sizga geografiya fanidan yaxshi ma'lumki, dunyo hududiy jihatdan turli mintaqa va qit'alarga bo'linadi. Shu bois jahonning siyosiy xaritasiga qarab va davlatlarning chegaralarini hisobga olib, Yer yuzidagi hududiy bo'linishni bermalol tasavvur qila olamiz.

Bular – qat'iy chegaraga ega bo'lgan hududlar. Lekin insoniyat XXI asrga kelib, chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Turli mintaqaviy, diniy-etnik, tajovuzkor millatchilik va shovinizm asosidagi mojarolar, ekologiya falokatlari, ma'naviy tanazzul, giyohvandlik, terrorchilik kabi muammolar shular jumlasidandir.

Shuningdek, globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashuvi ham bir talay muammolarni yuzaga keltirmoqda. Eng yomoni, turli mafkuraviy vositalar orqali dunyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirib, insonlar qalbi va ongini zabit etishga, shu tariqa butun-butun xalqlar va davlatlarni o'z yo'rig'iga yuritishga intilayotgan kuchlarning paydo bo'layotganidir.

Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash kuchayib bormoqda. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilovchi asosiy tamoyil ham shundan iborat.

«Poligon» grekcha so‘z bo‘lib, serqirra degan ma’noni bildiradi. Biz, odatda, poligon deganda quroq-aslaha va texnika sinaladigan, qo‘sishlar harbiy tayyorgarlikdan o‘tkaziladigan yoki harbiy mashq va mashg‘ulotlar olib boriladigan maxsus maydonni tushunamiz.

Tarix tajribasidan ma’lumki, o‘zga hududlarni zabit etish yoki himoyalanish maqsadida urush qurollari uzlusiz takomillashtirib borilgan. Ularning barchasi ehtimol tutilgan dushman askarlari va aholisini yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o‘zga hududlarni zabit etish uchun ularning aholisini qirib tashlash yoki jismonan asir qilib olish shart emas.

Chunki tajovuzkor g‘oya va mafkura bilan qalbi va ongi zabit etilgan xalq shusiz ham yov qo‘liga taslim bo‘ladi. «Mafkuraviy poligon» tushunchasini birinchi marta Prezidentimiz Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida qo‘lladi<sup>1</sup>.

Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallahsga qaratilgan g‘oya yoki mafkurani ham mablag‘, ham zamonaviy texnikaviy vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma’naviy qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o‘z manfaati yo‘lida boshqarib turgan, muayyan niyatiga yetish uchun ishlatadigan va bu borada xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladigan harakatlarni amalga oshiradigan g‘oyaviy markazga aytildi. Yurtboshimiz aytganidek, «Bugungi kunda odamzod ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma’no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta’sirini doimiy sezib yashamoqda».

**Buni yodda tuting:** Biror mamlakatga nisbatan harbiy hujum yoki iqdisodiy zarar yetkazishni osongina ko‘rish va sezish mumkin. Ammo mafkuraviy ta’sir bunday emas. Uning ta’siri radio, televideniye, gazeta-jurnal, internet, umuman, hamma axborot vositalari orqali kirib kelaveradi. Ular odamlarga uyda ham, ko‘chada ham, ishda ham ta’sir etadi. Yadro poligonida tayyorlagan quroq faqat muayyan hududni vayron qiladi, ammo mafkura poligonidan tarqaladigan, sirtdan bezurar bo‘lib

<sup>1</sup> Islom Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin». «Tafakkur» jurnali, 1998-y. 2-son.

tuyuladigan turli axborotlar, filmlar, badiiy asarlar, o‘yinchoqlar, kundalik ehtiyoj mollari esa, avvalo, *insonlarning nozik hist tuyg‘ulariga* ta’sir etib, ularning qalbi va ongini egallashga qaratilgandir. Masalan, «diniy adabiyot» niqobi ostida xorijdan olib kelinayotgan ayrim kitoblarda dinga siyosiy tus beriladi, jihod haqida noto‘g‘ri ma‘lumotlar bayon qilinadi va oqibatda, dinning mohiyatini bilmagan yoshlar bunday targ‘ibotlarga ishonib, noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketishi mumkin. Yoki behayolikni, vahshiylik va zo‘ravonlikni targ‘ib etadigan filmlar ham ba‘zi mafkuraviy poligonlardan tarqatilayotgan zararli ta’sirlardir. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida ikkita kuchning o‘zaro kurashi

*Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orgali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkorlik, millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va aqidaparastlik mafkuralari shular jumlasidandir. Prezidentimiz «Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko‘proq kuchga ega» deb bejiz uqtirmaganlar.*


aniq ko‘zga tashlanmoqda, buning birinchisi xalqlarni taraqqiyot sari yetaklayotgan ilg‘or mafkura, ikkinchisi esa ularning yo‘liga g‘ov bo‘lishga urinayotgan zararli va buzg‘unchi mafkuralardir.

Erkin va farovon hayot asoslarini yaratib, yanada olg‘a intilayotgan ilg‘or mamlakatlar o‘z mafkuralarini umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillar negizida rivojlantirmoqda. Chunki bunday mafkura insonning o‘z salohiyatini erkin namoyon etishi uchun imkon beradi. Jumladan, Vatanimizning butun kuch-qudrati, yaratuvchilik iste’dodi yurtimizni yanada ravnaq toptirish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, shu muborak zaminda yashayotgan barcha insonlar uchun farovon hayot poydevorini yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, bugungi tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi zararli mafkuralar taraqqiyotga moslashib, yangi shakkarda bosh ko‘tarmoqda. Masalan, sobiq Yugoslaviya hududidagi tajovuzkor millatchilik, hududiy ayirmachilik asosidagi to‘qnashuvlar, Afg‘oniston hududida uya qurib olgan diniy ekstremistik kuchlar bunga misol bo‘la oladi.

Diniy ekstremizm dinni niqob qilib olib, zo‘ravonlik asosida konstitutsion tuzumga tajovuz qiluvchi, uni o‘zgartirishga urinuvchi


*XX asr so'ngida ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda.*

### ***Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar***



*Bugungi dunyoda g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli mafkuraviy markazlarning muttasil bosimini doimiy sezib yashamoqda.*

jinoяткор xatti-harakatdir. U bugungi kunda ko'plab mintaqaga va mamlakatlarda uchrab turibdi. Hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlar o'ziga xos qator xususiyatlar kasb etmoqda. Bunda mafkuraviy jarayonlarning, bir tomonidan, demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va rang-barang siyosiy kuchlarning tolerantligi namoyon bo'lmoqda. Ikkinci tomonidan mafkuraviy jarayonlar siyosiy lashish, inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga umumiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lmoqda. Uchinchidan, mafkuraviy jarayonlarning milliy davlatlar chegarasida qolib ketmaslik, global lashuv, integrallashuv va differensial lashuv kabi xususiyatlari ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunning mafkuraviy manzarasiga ijtimoiy jarayonlarning global lashuvi ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol axborot



tarqatish tizimining, jumladan, internet tarmog‘ining butun yer yuzini qamrab olishi bilan ham bog‘liqdir. Endilikda dunyoning bir burchagida qandaydir yangilik paydo bo‘lsa, u darhol, mafkuraviy maqsadlarga bo‘ysundirilgan holda, butun jahonga tarqaladi.

Masalan, dunyoning biron-bir mintaqasida texnik sabab yoki tabiat hodisalari natijasida baxtsizlik sodir bo‘lsa, bir mafkuraviy markaz o‘ziga dushman bo‘lgan boshqa markazni ayblashga tushadi. Ya’ni «bu fojiada falon markazning qo‘li bor», deb butun dunyoga jar soladi. Bu jarayonda qaysi markazning axborot tarqatish imkoniyati ko‘p bo‘lsa, odamlarga nima ta’sir etishini, ular nimaga muhtoj ekanini kim oldindan yaxshiroq bilsa, dastlab o‘sha kuch ularning qalbi va ongiga o‘z nuqtayi nazarini singdiradi va axborot jangida yengib chiqadi.

Shuning uchun bugungi kunda dunyodagi turli kuch va markazlar o‘rtasida axborot jangi yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Aslida turli mafkuralar ba’zi odamlarning soddaligidan foydalanib, mana shunday kurashlar orqali siyosiy maqsadlarni ko‘zlaydi, ya’ni jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinadi.

Masalan, vahhobiylar sobiq ittifoq hududidagi musulmon xalqlarning mustabid tuzum davrida ancha vaqt diniy ma'rifatdan uzilib qolganidan foydalanib, dinni o'rgatish bahonasida o'zlarining zararli g'oyalarni odamlarning qalbi va ongiga singdirmoqchi bo'ldi. Bu hol bizning mintaqamizda, xususan, O'zbekiston hududida ham ko'zga tashlandi. Lekin o'zining qadimiy an'analariga, mumtoz qadriyatlariga, ajdodlarining boy merosi va ma'naviyatiga ega bo'lgan xalqimiz bunday «da'vat»larga uchmadi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, mustaqil taraqqiyotimiz tajribalari va bugungi sivilizatsiya yutuqlari asosida o'z mafkurasini ishlab chiqishga kirishdi.

Bunday xavf-xatarlarga qarshi turish uchun xalqimizda, avvalo, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish taqozo etiladi. *Immunitet (lotincha – ozod bo'lish, qutulish ma'nosidagi immunitas so'zidan olingan) deganda organizmdagi mo'tadillikni saqlab, uni turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga*

**Buni yodda tuting:** *godir bo'lgan muhofaza tizimi tushuniladi.* «*Mafkuraviy immunitet» tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va uning mohiyatini quyidagicha tushuntirib bergen: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning mugaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning immunitetini kuchaytirishimiz zarur»<sup>1</sup>.*

Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning mustaqil e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. U Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan oliyanob g'oyalari, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohot natijalari, Vatanimiz va dunyo tarixi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlariga doir bilim hamda tasavvurlarga tayanadi.

Sog'lom immunitetga ega bo'Imagan odam sog'lom e'tiqod va dunyoqarashdan ham mahrum bo'ladi. Bunday kishilar yaxshi bilan yomonning, ezgulik bilan jaholatning farqiga bormaydi. Ular uchun xalq va Vatan manfaatlari begona. Sog'lom immunitetli

<sup>1</sup> Islom Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot–pirovard maqsadimiz». –T., «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 494-bet.

odam o‘zini yomon ishlardan tiyadi, nohaqlik va zulmga qarshi qalbida norozi bo‘lib, o‘z nafratini bildiradi. Binobarin, yomonlikka qarshi nafrat, yaxshilikka nisbatan muhabbat va xayrixohlik sog‘lom immunitetning asosiy belgilaridandir. Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlari ogohlilik, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurasha olish ko‘nikmalaridir. Bu tamoyillarni Prezidentimiz asoslab bergen.

Ogohlilik dunyodan, yon-atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlardan, odamlar va xalqlarning orzu-intilishlaridan doimiy boxabar bo‘lib yashashdir. Mana shunday qoidani hayot qonuniga aylantirgan xalq hayotda paydo bo‘layotgan muammolarni vaqtida hal etadi, tajovuzkor kuchlarning har qanday g‘oyaviy hamlalariga qarshi munosib zarba bera oladi.

**Buni yodda tuting:** Yovuz g‘oyalar mamlakatimizda tanlangan demokratik, tinch taraqqiyot yo‘liga qarshi qaratilganligini Andijonda sodir etilgan terrorchilik harakatlari yana bir bor tasdiqladi. Bu to‘g‘rida Islom Karimov shunday deydi: «Xalqaro ekstremistik guruhlar tomonidan puxta o‘ylab, tashkil etilgan bu yovuz harakatlar, avvalambor, tinch, osuda hayotimiz va orzuimizni buzishga, O‘zbekistonni o‘zining mustaqil yo‘lidan qaytarishga, yurtimizda konstitutsion tuzumni ag‘darish, qandaydir «xalifalik davlatini» o‘rnatishdek xomxayollarni amalga oshirishga qaratilgani bugun barchamizga ayon».

**Buni yodda tuting:** Bu mudhish voqealar va ularning oqibatida ko‘pgina odamlar halok bo‘lishining tegishli sabablarini yoshlar yaxshi bilishlari, tushunishlari lozim. Bu qo‘poruvchilik harakatining chetdan turib tashkil etilgani, bunga uzoq tayyorgarlik ko‘rildi, katta mablag‘ ajratilganini ta‘kidlash lozim. Bu har bir kishini, yoshlarni ogoh bo‘lishga, unga befarg qaramaslikka undaydi. Shundagina turli tahdid va xavf-xatarlarning oldini olgan bo‘lamiz.

Xuddi shuningdek, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashga intilish hissi inson qalbidagi sog‘lom e’tiqod, uning ongidagi sog‘lom dunyoqarash shakllanganidan, u endilikda o‘z-o‘zini himoya qila olish qobiliyatiga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, mafkuraviy immunitet bugungi kunda hayotiy zarurat bo‘lib, u xalqimizni yot va zararli g‘oyalar xurujidan asrashda, yurtimiz bolalarini sog‘lom va barkamol qilib voyaga

yetkazishda, ko‘zlagan olıyjanob maqsadlarimizga erishishda muhim ahamiyatga egadir.

### **Savol va topshiriqlar**

- ❶ Dunyoning mafkuraviy manzarasi deb nimaga aytildi?
- ❷ «Mafkuraviy poligon» tushunchasini yurtimizda birinchi marta kim ishlatgan va uning ma’nosini nimadan iborat?
- ❸ Mafkuraviy poligonlarning qurol-yarog‘ poligonlaridan farqini misollar asosida tushuntirib bering.
- ❹ Bugungi kunda nima uchun insonlar qalbi va ongini egallash uchun kurash bormoqda?
- ❺ Immunitet deganda nimani tushunasiz?
- ❻ Prezidentimizning mafkuraviy immunitet haqidagi ta’rifini yod oling va ma’nosini tushuntirib bering.
- ❼ Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlarini sanab bering.

### **Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular**

- ❶ Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.
- ❷ Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar .
- ❸ Mafkuraviy immunitet va mafkuraviy profilaktika.



## **MARKAZIY OSIYO: GEOSIYOSAT VA MAFKURAVIY JARAYONLAR**

Har qanday davlatning boshqa bir davlat va hudud davlatlari bilan o‘zaro munosabatlari mavjud. Bu munosabatlar tenglik, bir tomonning ustunligi yoki butunlay hukmronligi tarzida ham bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonlar xalqaro munosabatlarda «davlatlararo munosabatlari», «tashqi aloqalar», «o‘zaro aloqalar» kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Ana shular qatorida hozirgi xalqaro munosabatlarda «geosiyosat» (geopolitika) iborasi ham tez-tez qo‘llanilmoqda.

**Buni yodda tuting:** «Geosiyosat» tushunchasi o‘zida yer va siyosat ma’nolarini ifodalaydi. «Geosiyosat» atamasida geosiyosiy muddaolar, turli xil davlat va xalqlar-

*ning manfaatlari tizimi, u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi salohiyatiga bo‘lgan maqsadlar o‘z ifodasini topgan.*

Geosiyosat – hozirgi davrda dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, siyosat falsafasida keng qo‘llanilmoqda. U ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, turli davlatlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda ma’lum hududga nisbatan yuritadigan siyosatini bildiradi. Masalan, O‘zbekistonni olsak, u bilan o‘zaro iqtisodiy va boshqa sohalarda aloqa qilishni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan har bir davlat, O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyatli, yer usti va yer osti boyliklari, ishchi kuchlariga boy ekanligini, Yevropa va Osiyoni o‘zaro bog‘lovchi yo‘lning tugun nuqtasi ekanligini, uning mintaqada tutgan tinchliksevar siyosati, iqtisodiy va siyosiy barqarorligini nazarda tutgan holda siyosat yurgizadi.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni nihoyatda o‘ziga xos. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik, aholisining soni eng ko‘p va iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatdir. Buning ustiga O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishni muvaffaqiyatli modeli ishlab chiqilgani va amalga oshirilishi, mamlakatda ishonchli tinchlik, barqarorlikning mavjudligi, uning xalqaro masalalarini hal qilishdagi faolligi shunday natijaga olib keldiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi biror jarayonda O‘zbekiston ishtiroki nazarga olinmay iloji yo‘q.

Tinchlik va xavfsizlik masalalari, avtomobil va temir yo‘l, aloqa kommunikatsiyalarini bunyod etish, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalarida O‘zbekiston yetakchi rol o‘ynashi tabiiy.

O‘zbekistonning Yevropani Xitoy bilan bog‘lovchi, yoki Markaziy Osiyoni Kavkaz orqali Yevropa bilan bog‘lovchi yo‘llar qurilishi loyihasida qatnashayotgani, Shanxay hamkorlik tashkilotida a‘zo bo‘lishi, boshqa xalqaro tashkilotlardagi o‘rni uning nufuzini yanada yuqori ko‘taradi.

Bugungi kunda geosiyosiy maqsadlar ko‘proq mafkuraviy siyosat bilan hamohang bo‘lmoqda. Mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish geosiyosatning eng ta’sirchan vositasiga aylanmoqda. Ya’ni ba’zi kuchlar dunyo xalqlarining turli qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va tafakkuriga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish orqali, ularning faoliyatini shaxsiy va g‘arazli manfaatlarga yo‘naltiradigan mafkuraviy muhit yaratishni ko‘zlamoqdalar.

Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfiroq, deya alohida ta’kidlaganlar.


Buning xavfliligi shundaki, mafkuraviy ta'sirni ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushlash qiyin. Ba'zida uni sezish, tasavvur qilish ham qiyin. Qaysi davlatning kuchi qanchaligi, armiyasining soni va yadro poligoni qayerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo'nalanligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo yovuz, mafkuraviy maqsadlarning qaysi yo'llar bilan insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo'lmaydi.

Bugungi dunyoda turli hudud xalqlarini ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular o'mmaviy axborot vositalari, turli xil markazlardan foydalanmoqdalar. Masalan, turli jangari filmlar, bolalar uchun kompyuter programmalari, teleo'yinlardan foydalanish hollari mavjud.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallahsorqaligina bunday maqsadlarning asl mohiyatini to'g'ri tushunish mumkin.

### *Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy jarayonlar*

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geosiyosiy yondashuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakkablashib bormoqda. Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch-e'tiqodni mustahkamlash yo'liga xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo'lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.



XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Sobiq SSSRning parchalanishi, hukmron mafkurasining barbob bo'lishi dunyo yangi xaritasini o'zgartirib yubordi. Sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura yuzdan ortiq millat vakillarini zo'rma-zo'raki birlashtirib turgan edi. Bu Markaziy Osiyoga ham xos edi. Mintaqadagi sobiq ittifoqdosh respublikalar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan sho'ro mafkurasi barbob bo'ldi.

Sobiq markaz hali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil bo'lgan kuchlar vositasida 90-yillarning boshlarida Markaziy Osijo mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi siyosatni davom ettirdi. Aslida, bu urinishlar mintaqaga mamlakatlari va xalqlari o'rtasida mavjud bo'lgan azaliy do'stlikka putur yetkazishga qaratilgan mafkuraviy harakatlar edi.

Natijada, Markaziy Osiyodagi ba'zi davlatlarda beqarorlik ro'y berdi. Bunday sharoitda «aqidaparastlik», «terrorchilik», «ekstremizm» g'oyalari O'zbekistonga ham suqulib kirishga harakat qila boshladi.

### *Markaziy Osijo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar*



Bugungi kunda Markaziy Osiyoga kirib kelishga harakat qilayotgan bunday vayronkor kuchlar o'z harakatlarini dinning asl qadriyat va aqidalarini tiklash da'vosi bilan oqlashga urinmoqda.

**Buni yodda tuting:** Aslida, «fundamentalizm» va «ekstremizm» g‘oyalalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko‘zlangan maqsad — diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g‘oyalardan vosita sifatida foydalanish va shu orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Bu urinishlar tuzatib bo‘lmas fojialarga olib kelishi mumkin. Ular mintaqamizni urush botqog‘iga botirib yuborishi, ayrim davlatlarda ro‘y berayotgan xunrezlik va birodarkushlikni boshqa mamlakatlarga ham tarqatib yuborishi mumkin.

Bugun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlarining ham ana shunday natijalarga olib kelish ehtimoli yo‘q emas.

Bu xavfni Prezidentimiz teran anglab, uning oqibatlari dahshatli bo‘lishi mumkinligidan hammamizni ogoh qilib, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida shunday yozgan edi: «*Ko‘plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan «islom uyg‘onishi», «qayta islomlanish», «islom fenomeni» va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e’tiborni jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog‘i ostida ro‘y berayotgan hodisalar g‘oyat xilma-xil, ko‘pqirrali, ba’zan ziddiyatli va hatto qaramaqarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman.*

*Shu bilan birga, aniq-ravshanki, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotganligi ba’zan esa, hatto, xavfsirayotgani ham ko‘zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon sharoitida ana shu o‘ta keskin ko‘rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho‘chityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to‘planib qolgan. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta’minlash zarurligi nuqtayi nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug‘dirmoqda».*

Prezidentimizning ana shu fikri haqiqat bo‘lib chiqdi. Xalqaro

terrorchilar 1999-yilning 16-fevralida Toshkentda, 2000-yilning avgust oyida Sariosiyo tumani hududida, 2004-yil 28–30-mart kunlari Toshkent shahri va Buxoro viloyatida, 2005-yil 13-may kuni Andijon shahrida o‘zlarining qora niyatlariga erishish maqsadida qo‘poruvchilikni amalgga oshirdi. Bu qo‘poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar borligi ayon edi. Ularning maqsadi xalqimizning tinchligini buzish, aholini qo‘rqitish, yuragiga vahima solish, amalgga oshirayotgan ezgu ishlarni yo‘qqa chiqarishga harakat qilish edi.

Bu fojalarning O‘zbekistonda sodir etilishining asosiy sababi shuki, yurtimizning yutuqlari jahon jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilmoqda, nisbatan qisqa davr ichida O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mamlakatga aylandi. Xuddi mana shu o‘ta katta ahamiyatga ega bo‘lgan omil taraqqiyotimiz dushmanlarini vahimaga solgani aniq. G‘animlar buni ko‘rolmayapti, yutuqlarimizdan bahramand bo‘lishimizga xalaqit berishga harakat qilmoqda. Aslida, mustaqillik yillarda mamlakatimizda haqiqiy islom qadriyatları tiklandi, ular xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismiga aylanib qoldi.

Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham bizning mamlakatimizda amalgga oshirayotgan xalqlararo mustahkam do’stlikka qaratilgan siyosat qo‘llab-quvvatlanmoqda. Chunki, mintaqa tub xalqlarining ma’naviy ildizlari bir, turmush tarzi ya-qin. Shu ma’noda ularning birligini mustahkamlash umum-mintaqaviy ma’naviy yuksalishimizga o‘zining ijobiy ta’sirini o’tkazib turaveradi.

Biz yashayotgan mintaqadagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg‘onistonidagi beqaror vaziyat ham alohida o‘rin egallab turibdi. O‘ttiz yildan ziyod vaqtidan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy sivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg‘oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurolyarog‘ va giyohvand moddalar noqonuniy savdosiring asosiy o‘chog‘i bo‘lib qoldi. Hozir asosiy e’tibor Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish muammosiga qaratilishi kerak.

2000-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining «Ming yillik sammiti»da Prezident Islom Karimov mintaqamiz xavfsizligini ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikni ta’minalash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish

muammolariga e'tibor qaratdi. 2008-yil 2-aprelda bo'lib o'tgan NATO/SEAP sammitida so'zlagan nutqida Afg'oniston bo'yicha yana bir muhim taklifni ilgari surib, bunday dedi: «2001-yilgacha fuoliyat ko'rsatgan «6+2» muloqot guruhini hozirgi voqelikni inobatga olgan holda va muzokaralar jarayonida NATO vakolatxonasi ham, albatta, ishtirok etishini nazarda tutib, «6+2» ni «6+3» guruhiga aylantirish zarur, deb hisoblaymiz».

**Buni yodda tuting:** Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti mojarolarni to'xtatish, mustahkam tinchlikni ta'minlashdir. Bu borada O'zbekiston ilgari surayotgan mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Ana shu sohada boshlangan ijobiy harakatni davom ettirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqaro terrorizm o'zining mudhish qiyofasini o'ta mash'um «Al-Qoida» terroristik guruhi timsolida namoyon qildi. 2001-yilning 11-sentabrida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Xalqaro savdo markazining portlatilishi, insoniyat sabr kosasiga tomgan oxirgi tomchi bo'ldi. Dunyo hamjamiyati terrorizmnинг keng yoyilib borayotganligi va uning oldini olish birgina Markaziy Osyo mintaqasi xalqlarining vazifasi bo'lmay, butun dunyo xalqlarining asosiy maqsadi bo'lishi lozimligi haqidagi mamlakatimiz rahbarining chaqiriqlari va o'z vaqtida ogohlantirishlari nechog'li achchiq haqiqat ekaniga iqror bo'ldi. Xalqaro kuchlar Afg'onistonda «Toliblar» rejimini mag'lub qilganidan keyin bu fojيانing oldi birmuncha olingen bo'lsa-da, uni ildizi bilan qo'porib tashlash uchun hali uzoq va mashaqqatli kurash olib bormoq lozim bo'ladi. Yot g'oya va mafkura sohasidagi kurashlarga milliy g'oyaga tayangan holda javob berish mumkin. Yoshlar buni hisobga olishlari muhim. Chunki, «Tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan g'arbona axloqsizlikni esa aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar «yevropacha madaniyat» va «erkinlik» sifatida qabul qilishga intilishi va aldanib qolishi hech gap emas».

**Buni yodda tuting:** Mafkura sohasidagi kurashlar doimo axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan holda turli xil ko'rinishlarda o'zini namoyon etadi. «Boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya», «rangli

inqiloblar» kabi modellar ham shunday ko‘rinishlardan. Uning milliy g‘oya negizlariga to‘g‘ri kelmasligini hisobga olish zarur. Bugun mafkura sohasida «demokratiya»ni eksport qilishga urinish, «uning xilma-xil modellarini e’tirof etmaslik» bilan bog‘liq kurashlar davom etmoqda. Bu o‘ziga xos xavf-xatar manbayi hisoblanadi. Milliy g‘oya negizlari esa demokratiya modellarining xilma-xilligini e’tirof etadi. Bu milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash bilan bog‘liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda xavfsizlikni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini bir qadar belgilab beradi. Shuning bilan birga, bu mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma’naviy-ruhiy yaqinligini mustahkamlash borasida o‘ta muhim ahamiyatga molik masala bo‘lib qolaveradi. Bu esa hozir va kelajakda ham ushbu masala o‘z dolzarbligini saqlab qolishini bildiradi.

### Takrorlash uchun savollar

- ① Hozirgi davrda geopolitik maqsadlar qanday namoyon bo‘lmoqda?
- ② «Geosiyosat» tushunchasining mohiyat-mazmuni nimadan iborat?
- ③ Mintaqamizga qanday tajovuzkor g‘oyalar ta’sir ko‘rsatmoqda?
- ④ Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun nimalarga e’tibor berish lozim?
- ⑤ Demokratiyaning yagona modeli milliy g‘oyaga to‘g‘ri kelmasligining sabablarini bayon eting.

### Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular

- ① Hozirgi davr: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
- ② Juhon maydonlarini mafkuraviy bo‘lib olishga urinshlar.
- ③ Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar.
- ④ Mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash zarurati.



## BIZ QANDAY JAMIYAT BARPO ETMOQDAMIZ?

Milliy istiqlol g'oyasi taraqqiyotimizning boshqa ko'pgina masalalari kabi, biz qanday davlat, qanday jamiyat barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari himmalardan iborat, degan savollarga ham javob bera oladi. Bu masalalar Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z iqtisol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li» kabi asarlarida keng va atroflicha yoritib berilgan.

Dunyodagi har bir davlat va jamiyatning strategik maqsadi bo'ladi. Strategik maqsad – uzoqqa mo'ljallangan umumiy aniq reja deganidir. Bizning bosh strategik maqsadimiz – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu maqsadga bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etish orqali boramiz.

**Buni yodda tuting:** Buning uchun, eng avvalo, hokimiyat tarmoqlarining konstitutsiyaviy asosda to'liq mustaqil faoliyat yuritishiga erishish, bozor iqtisodiyotini qaror toptirish, yangi texnologiyalar bilan ishlash mexanizmini shakllantirish zarur. Bu mexanizm esa iqtisodiyotning barcha sohalarida turli mulk shakllarining teng asosda harakat qilishi va ular o'rtaida sog'lom raqobat bo'lishini ta'minlaydi.

Dunyoda bozor munosabatlariiga o'tish va bu munosabatlarni amalda joriy qilishning tayyor andozasi yo'q. Ko'pgina davlatlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy rivojlanishning o'ziga mos yo'lini ishlab chiqadi. Biz ham o'z yo'limizni ishlab chiqdik. Chunki boshqa davlatlar tajribasini ko'r-ko'rona qo'llay olmas edik. Sababi – mamlakatimiz iqtisodiyoti, uning tarkibiy tuzilishi, geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, tabiiy resurslari o'ziga xos. Qolaversa, xalqimizning ruhiy dunyosi, ma'naviyati va tafakkuri ham boshqa mamlakatlar aholisini kiga o'xshamaydi.

Bizning taraqqiyot yo'limiz Prezident Islom Karimov asoslab bergen ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda rivojlanish yo'lidir. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu yo'lda yurtdoshlarimizni birlashtiradi, ular o'rtaida hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlaydi. Ularni buyuk maqsadlar sari safarbar etadi.

Bu yo'l hozirgi davrda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

## Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish

Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish

Turli qatlam, millat, din vakillari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, siyosiy hayotda ko'ppartiyaviylik tamoyilini yanada mustahkamlash

Demokratik institutlarning faoliyat ko'rsatishi uchun keng sharoit yaratish, hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyiliga qat'iy amal qilish

Mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat doirasini kengaytirish, «kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini hayotga joriy qilish

Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, chuqur bilimli va yuksak malakali kadrlarni tayyorlash

Siyosiy sohada demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash – siyosiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishidir. Bunda hokimiyatning turli tarmoqlarga bo'linishiga amal qilinadi. Hokimiyatning mustaqil tarmoqlari deganda, biz qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijroiya hokimiyati va sud hokimiyatini tushunamiz.

Demokratlashtirish jarayoni – davlatni boshqarish sohasidagi vazifalarning davlat zimmasidan jamiyat zimmasiga o'tib borishini, bu jarayonda xalq vakillarining faol ishtirok etishini o'zida ifodalaydi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, degan qoidaga asoslanadi. Shu bois davlat hokimiyatining mustaqilligi xalqimizning siyosiy va ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi. Xalqning siyosiy va ma'naviy yetukligi esa uning davlat qurilishidagi faol ishtirokida ko'rinishidir. Shuning uchun xalqning dunyoqarashi va siyosiy madaniyatini o'stirish o'z haq-huquq va manfaatlarini teran anglaydigan darajaga yetkazish siyosiy hayotni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biridir.

Siyosiy madaniyat fuqarolarning ham, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining ham qonunga birdek bo'ysunishidan boshlanadi. Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholining huquqiy bilimini oshirishga, balki jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar

faoliyatining samaradorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish ham talab etiladi. Chunki, demokratiya fuqarolarning o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishini talab etadi.

Demokratlashtirish jarayonini chuqurlashtirish jamiyatdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi. Prezidentimiz Islom Karimov bunga quyidagi yo'l bilan erishish mumkinligini ta'kidlaydi: «*Shunga erishish kerakki, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partianing maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim*»<sup>1</sup>.

Ko'ppartiyaviylik deganda bir qancha partianing jamiyat hayotida faol ishtiroki tushuniladi. Partiyalar parlament ishida o'z vakillari orqali ishtirok etib, qonunlar qabul qiladi va ularni hayotga tatbiq etish borasida faoliik ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ko'ppartiyaviylik turli manfaatlar, xilma-xil kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy omildir. Mamlakatimizda turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan ma'naviy omil esa milliy istiqlol g'oyasidir. G'oya negizida esa milliy istiqlol mafkurasi shakllanadi.

Biz barpo etayotgan jamiyatda olg'a siljishimizga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizim shakllantirildi. Bunday samarali tizim – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatidir. Huquqiy davlatda nafaqat hokimiyatning uch tarmog'i: qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatining mustaqil harakat qilishi, balki ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning qonun asosida erkin faoliyat ko'rsatishi ham ta'min etiladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mustaqillik bu – huquq degani, huquq esa – mas'uliyat deganidir. Mana shu demokratik jamiyatdagи bog'liqlikni oddiy fuqarodan tortib mas'ul

<sup>1</sup> Islom Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz». –T., «O'zbekiston», 2000-yil. 333-bet.

xodimlarga teran anglab, o‘z faoliyatini ana shu asosda yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, demokratiya avvalambor ma’naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratianing o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki jihatni, ikki qanotidir.

Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlari to‘liq joriy etib borilishi davlatning faoliyatida o‘z aksini topishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda O‘zbekistonda islohotlarni muhim yo‘nalishlari etib hokimiyatni bo‘linish tamoyilini amalga oshirishni ta‘minlash, jamiyatning siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyatining rolini oshirish kabi masalalar belgilab olingan. Bu yo‘lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida «**Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyatni sari**» g‘oyasi asosida ijobji natijalarga erishib kelinmoqda.

Prezidentimiz shu uchta yo‘nalishdagi islohotlar yuzasidan 2007-yil avgust oyida qilgan «O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li» nomli ma’ruzasida quyidagi fikrni bildiradi: «Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi», «davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis'i ikki palatali parlamentga aylantirildi», «sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta‘minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo‘yildi va muvaffaqiyatlil hal etildi».

Shuning uchun ham 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi tamoyili mustahkamlab qo‘yildi. Bu tamoyil Konstitutsiyaning 11-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi» degan qoidada aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi «**Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni**

**modernizatsiya va isloh etishdir»** nomli ma’ruzasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari, jumladan, davlat hokimiyati vakolatlarining qonuniy asosda bo‘linishiga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Ma’ruzada «Davlat qurilishi va boshqaruvi yohasidagi eng muhim vazifa bu — qonunchilik hokimiyati bo‘lmish mamlakat parlamentining roli va ta’sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat» ekani qayd etildi.

Bunda, avvalambor, Prezidentning ba’zi vakolatlarini parlamentning yuqori palatasi — Senatga va hukumatga o‘tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi — Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan va hozirning o‘zidayoq bu boradagi sa’y-harakatlarning amaliy samarasi ko‘rinib turibdi. Bu hukumat faoliyatining kengayishiga hamda mas’uliyatining oshishiga olib keladi, davlat organlari faoliyatini qonuniy asosda chegaralash, ularning vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Doimiy asosda ishlaydigan quyi — Qonunchilik palatasining ko‘ppartiyaviylik, muqobililik asosida shakllantirilishi demokratiyaning yorqin ifodasi bo‘ldi. Quyi palataga 2005-yil dekabrda o‘tkazilgan saylovlarda 4 ta siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlardan 489 ta nomzod qo‘yilib, ular o‘rtasida halol kurash bo‘lib o‘tdi. Saylovlar ikki turda o‘tkazildi. Birinchi turda 62 ta, ikkinchi turda esa 58 ta deputat saylandi. Bu ko‘rsatkichlar fuqarolarimiz ijtimoiy-siyosiy faolligining, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga bo‘lgan intilishi va ishonchining ortib borayotgani, shuningdek, davlat ishlarida qatnashish hayotiy zaruratga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Qonunchilik palatasida barcha siyosiy partiya va tashabbuskor guruh vakillarining bo‘lishi, ular o‘z fraksiya va guruhini tuzish imkoniyatiga ega ekani turli fikrlilik, bahs-munozara asosida faoliyat yuritish, ishchanlik muhiti shakllanayotganidan dalolat beradi. Deputatlarning 18,3 foizini yuristlar, 21,7 foizini iqtisodchilar tashkil etishi, parlamentda sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligi, fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash sohalari vakillari va tadbirdorlarning bo‘lishi, bir so‘z bilan aytganda, Qonunchilik palatasi aholi keng qatlamlarini qamrab olgani uning aholi turli qatlamlari manfaatlarini teng ifoda etishini ko‘rsatadi.

Bu esa qonunlarni puxta-pishiq tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Parlamentdagi deputatlarning 18 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, deputatlar milliy tarkibining rang-barangligi mamlakatda aholi turli guruh va qatlamlari manfaatlarining qonuniy tarzda ro'yobga chiqishiga imkon yaratmoqda.

**Buni yodda tuting:** *Iqtisodiy sohadagi iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga o'tish jarayoni yanada chuqurlashib boradi.*

Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – davlatning boshqaruvchilik funksiyalarini qisqartirish, ya'ni uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat bo'ladi. Bu – xususiy tadbirkorlikka, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish demakdir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda xususiy mulk rivojlanishi uchun zarur huquqiy kafolatlar va amaliy mexanizm yaratildi. Masalan, Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi, uning joylardagi tuzilmalari barpo etildi. Tovar, xomashyo, fond birjalari, banklar tizimi, mahsulot ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, biznes-fond, turli konsalting, lizing va boshqa bozor infratuzilmasi tarmoqlari shakllantirildi. Mulkning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Nodavlat shaklidagi mulkchilikning aksiyadorlik jamiyatları, korporatsiyalar, kompaniyalar, firmalar, shirkatlar, qo'shma va xususiy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, o'rta va kichik korxonalar tarmog'i vujudga keldi.

Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish ham iqtisodiy sohadagi muhim vazifadir.

Hozir bu jarayonga yirik korxonalar ham jalb etilmoqda. Bunda xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzlusiz ortib boradigan ko'p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, mulkdorlar safining kengayishiga erishish orqali ham ijtimoiy hayot barqarorligi va farovonligi kafolatlanadi.

Yana bir vazifa iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun zarur huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kengaytirishdan iborat.

Bu esa salohiyatli xorijiy sheriklar bilan birga xalqimiz ehtiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish imkonini beradi. Chunki, xorij sarmoyasi ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar va mexanizmlar bilan yangilash, ilg'or texnologiyalarga o'tish, ko'plab yangi korxonalar qurish, ishlab chiqarishning va bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan mablag'ni shakllantirish manbayidir.

Mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtiroy etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga har tomonlama uyg'unlashuvi jarayonini tezlashtirish vazifasi ham biz barpo etayotgan jamiyatning iqtisodiy poydevorini mustahkam-lashga xizmat qiladi.

Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bevosita jahon bozorida xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bi-



lan bog'liq. Har qaysi davlat o'z hududida ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati bilangina jahon bozoridagi mavqeyini mustahkmalab olishi, doimiy sheriklar va xaridorlar topishi mumkin. Hozir O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada yana bir muhim vazifa iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirishdan iborat. O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar deganda, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tushunamiz:

- ko‘pmulkchilik rag‘batlantirilayotgani, ya’ni barcha mulk shaklidagi faoliyatga teng huquq va imkoniyat yaratilayotgani;
- tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar tarmog‘i kengaytirilayotgani;
- kichik va o‘rta biznes korxonalari tizimi shakllantirilayotgani va jadal rivojlantirilayotgani;
- bozor infratuzilmasi, ya’ni bozorga xos ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat shakllanayotgani;
- O‘zbekistonning geografik o‘rni, geopolitik xususiyatlari, transport va kommunikatsiya masalalariga jiddiy e’tibor qaratishni talab etayotgani uchun yangi va zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlari ochilayotgani.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda qishloqqa sanoatni olib borish, birinchi galda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan o‘rta va kichik korxonalar tarmog‘ini rivojlantirish, ayniqsa, ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident I.A. Karimov O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisdagi ma’ruzasida quyidagilarni alohida ta’kidladi: «O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atlari jahon bozorida neft va gaz narxi oshib borayotgan bir sharoitda qator mamlakatlarda kuzatilayotgan holatdan tubdan farq qiladi. Ya’ni, bizning iqtisodiy rivojlanishimiz ekstensiv o‘sish va faqat uglevodorod xomashyosini zo‘r berib to‘xtovsiz qazib olish evaziga bo‘layotgani yo‘q. Aksincha, biz aniq maqsadga qaratilgan bozor islohotlarini, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, tarmoq va korxonalarni yangilash, texnik qayta jihozlash, raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan iqtisodiy taraqqiyotga erishmoqdamiz!»<sup>1</sup>.

Yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishi 1996-yilda 1,7 foiz bo‘lsa, 2003-yilga kelib 4,4 foizni, 2007-yilda esa, 9,5 foizni tashkil etdi.

Davlatning tarkibiy siyosatni o‘tkazishi oqibatida ham mustaqillik yillarda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 11 foizdan 24 foizga, xizmat ko‘rsatish sohalarining ulushi esa 18 foizdan 42 foizga yoki 2 barobardan ziyodga oshdi. Endilikda yurtimizda tashqi savdo tarkibi ham yaxshilanib bormoqda. Masalan, 1992-yilda eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 49 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilda bu ko‘rsatkich 12,5 foizgacha kamaydi. Shu bilan birga, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar va xizmatlar ulushi

2007-yilda 53 foizdan oshdi. Import tarkibida mashina va uskunalar ulushi 1992-yildagi 12 foizdan 2007-yilda 46,6 foizga yetdi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muttasil rivojlanish davriga kirdi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1991-yilda atigi 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 31,5 foizga, 2008-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 45,7 foizga yetdi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Buning sababi – agrar sektor hissasiga yalpi ichki mahsulotning 24 foizidan ko'prog'i to'g'ri keladi, xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 37 foizga yaqini va barcha aholining 60 foizi qishloqda yashaydi.

**Buni yodda tuting:** Prezidentimiz tashabbusi bilan 2009-yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb atalishi ham shu ustuvor siyosatning ifodasıdir.

**Buni yodda tuting:** *Ijtimoiy sohada: biz barpo etayotgan jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yuriish, fuqarolarga g'amxo'rlik qilish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu esa milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi.*

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda, yurtimizda yashayotgan har bir ijtimoiy guruh, qatlama, tabaqa, fuqaroga g'amxo'rlik qilish tushuniladi. Bu esa islohotlarni inson manfaatlarini ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ilm-fan sohalariga doimiy e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Prezident Islom Karimovning islohotlar islohotlar uchun emas, xalq uchun, uning turmush farovonligi o'sishi, munosib hayot kechirishi uchun, degan fikrlari mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning ma'no-mazmunini tashkil etadi. Bu hayotiy tamoyil davlatimiz siyosatining insonparvarlik xususiyatidan kelib chiqadi.

Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich oshirilishini ta'minlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va yoshlarimizning kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari – bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmi yanada takomillashtiriladi. Shuningdek, xalqimiz uchun muqaddas qo'rg'on va madaniyat beshigi bo'lgan oila, onalar va

ayollarimizning jamiyatdagi o‘rnii va mavqeyini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar izchil davom ettiriladi.

Fuqarolarning huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini ta’minlash, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini kafolatlovchi davlat tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish ham bu sohadagi muhim vazifalardandir.

Ma’lumki, kelajagi buyuk davlat barpo etish avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi oliyjanob ishlar taqdiri, oxir-oqibatda, yoshlarning ilm-fan yutuqlari va zamonaviy kasblarni nechog‘liq mukammal egallashiga bog‘liq. Binobarin, barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning eng muhim shartidir.


Shuning uchun bugun yurtimizda ta’lim sohasi tubdan isloq qilinmoqda. Bu islohotlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Prezident Islom Karimovning 2004-yil 21-maydagi «Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» asosida amalga oshirilmoqda. Bunga o‘xhash dastur jahondagi biror-bir mamlakatda yo‘q. Shuning uchun ham unga butun dunyoda qiziqish katta. Milliy dasturning to‘liq amalga oshirilishi yigit va qizlarning kasbiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan tezroq mustaqil bo‘lib, hayotdan o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi.

**Buni yodda tuting:** *Ma’naviy sohada: ma’naviy qadriyatlarimizni zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish asosiy vazifamizdir.* Buning uchun avvalo o‘zligimizni yanada chuqurroq anglashimiz, milliy istiqlol g‘oyasi tushuncha va tamoyillarini xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning qalbiga singdirish talab etiladi. Shuningdek, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirishga, ulardan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymasligimiz ham g‘oyatda muhimdir.

Milliy istiqlol g‘oyasi yurtdoshlarimizni ma’naviy qadriyatlarni to‘g‘ri baholay bilishga da‘vat etadi. Buning uchun milliy qadriyatlarga, jumladan, madaniy merosga ilmiy asosda to‘g‘ri yondashishning asosiy tamoyillaridan kelib chiqadigan mezonlarga amal qilish nazarda tutiladi. Bu mezonlar insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchilik va taraqqiyparvarlikdan iborat bo‘lib, ularning har birida milliylik va umuminsoniylik tamoyillari mujassamlashgan.

Bu mezonlarga, shuningdek, tarixiylik ham xos. Ular jamiyat oldida turgan yangi vazifalardan kelib chiqilgan holda boyib, takomillashtirib boradi.

## Ijtimoiy sohada: bozor munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish



Milliy qadriyatlarga baho berilar ekan, ularning milliy g'oyaga nechog'liq mos ekani nazarda tutiladi. Lekin bunda faqat alohida bir inson yoki muayyan ijtimoiy guruh manfaati emas, balki butun insonparvar jamiyat, barcha o'zbekistonliklar manfaati e'tiborga olinadi.

Yangi jamiyat barpo etishda barchani ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlar sari yo'naltirish muhim vazifadir. Chunki, bu ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunda turlicha fikrdagi ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalarga erishish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi oliyanob orzu-intilishlarni barcha uchun muqaddas maqsadga aylantirish vazifasi ham doimo nazarda tutiladi. Bu ko'ppartiyaviylik tamoyillariga amalda rioya qilgan holda, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hayot ko'ndalang qo'yayotgan yana bir muhim vazifa dinning asl mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirishdan iboratdir. Chunki ana shundagina din xalqning nafaqat ming yillik tarixi, balki bugungi ma'naviy hayotiga ham asos ekaniga hech kimda shubha qolmaydi. Muxtasar aytganda, din borasida Prezident Islom

Karimov tomonidan ifodalangan «Olloh qalbimizda, yuragimizda» degan hayotiy tamoyilga amal qilish lozim. O'rta asr allomasi Bahouddin Naqshbandning «Diling – Ollohdha, qo'ling – mehnatda bo'lsin» degan hikmati bu boradagi faoliyat mezonidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lif-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish vazifasi ham yangi jamiyat barpo etishda muhim o'rinni tutadi. Chunki davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq. Shu bois mazkur dasturni bajarishni izchil davom ettirish, uni yanada takomillashtirish, ta'lif jarayonini jahon xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olgan holda boyitib borish O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga ko'maklashish ham yangi jamiyat barpo etish jarayonida markaziy vazifadir. Chunki bu ko'pmillatli mamlakat fuqarolari o'rtasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz Vatan – barchamizniki» g'oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish borasidagi buyuk maqsadni amalga oshirish yakunida huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati quriladi. Bu jamiyatning asosiy belgi va tamoyillari quyidagilardir:

- barpo etilayotgan jamiyatning moddiy-iqtisodiy negizini ko'pmulkchilikka asoslangan, ijtimoiy yo'naltirilgan, muvozanat mexanizmi ta'minlangan bozor munosabatlari tashkil etadi;

- bu jamiyat o'zining siyosiy tuzumiga ko'ra – ko'ppartiyaviylikka, fikrlar xilma-xilligiga tayangan, qonun ustuvorligi ta'minlangan huquqiy demokratik davlat, ijtimoiy munosabatlarning xarakteri, tashkilotlarining o'zaro ta'siriga ko'ra esa, fuqarolik jamiyati bo'ladi;

- bu jamiyat milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirgan, buniyodkor g'oya va yangiliklarga ochiq, millatchilik, diniy ayirmachilik va aqidaparastlikdan xoli jamiyat bo'ladi.

## Taraqqiyotning ma'naviy sohadagi tamoyillari

<p>Ma'naviy qadriyatlarni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitish</p>	<p>Kuch va salohiyatni ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikka xizmat qildirish</p>
<p>Din va tarixni soxtalashtirishga, ulardan siyosiy maqsadda foydalanishga yo'l qo'ymaslik</p>	<p>Ijtimoiy qatlam, siyosiy kuch va harakatlarning intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini oshirishni yurtdoshlarimiz maqsadiga aylanishiga erishish</p>
<p>Yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish</p>	<p>Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, ta'llim-tarbiya tizimini takomillashtirish</p>
<p>Milliy qadriyatlар, til, madaniyat, diniy e'tiqod, urf-odat va an'analarni hurmat qilish</p>	

### Takrorlash uchun savollar

- ① Biz barpo etayotgan jamiyatning nazariy asoslari qaysi asarlarda yoritib berilgan?
- ② Strategik maqsad degani nima?
- ③ Bizning bosh strategik maqsadimiz nimadan iborat?
- ④ Yangi jamiyat barpo etishning siyosiy sohadagi vazifalarini qisqacha tushuntirib bering.
- ⑤ Biz yangi jamiyat qurishda iqtisodiy sohada qanday vazifalarni amalga oshirishimiz lozim?
- ⑥ Ijtimoiy sohadagi vazifalarimizni tushuntirib bering.
- ⑦ Yangi jamiyat barpo etishning ma'naviy sohadagi vazifalari nimalardan iborat?

## Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

- 1** O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning asosiy tamoyillari.
- 2** Yangi jamiyatni barpo etish vazifalari.
- 3** Mustaqillikni mustahkamlash va sog‘lom avlod tarbiyasi.



## TARAQQIYOTNING O‘ZBEK MODELI

O‘zbek modelining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarda ishlab chiqilgan. U jamiyatimiz hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli demokratik davlat qurishning strategik yo‘lidir.

Mamlakatimiz o‘zining ana shu maqsadlariga erishish uchun taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lini tanladi. Milliy istiqloл g‘oyasi ana shu yo‘ldan borayotgan xalqimizni pirovard maqsadlarga yetaklaydi, taraqqiyotning o‘zbek modelini amalga oshirishga yordam beradi.

**Buni yodda tuting:** *Taraqqiyot modeli deb, muayyan davlat tomonidan bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o‘tish yoki biron-bir jamiyatdagi umrini o‘tab bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish borasida tanlab olingan rivojlanish yo‘liga aytildi.*

O‘zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yo‘li bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishni ta’minlab beradigan taraqqiyot modeliga misol bo‘la oladi. Dunyoda bu borada ancha tajriba to‘plangan. Masalan, yaponlarning Ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyot yo‘li davlat tuzumi – monarxiyani saqlab qolgan holda, jamiyatdagi hukmron munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish modeliga misol bo‘la oladi.

**Buni yodda tuting:** *O‘zbekistonning sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga asoslangan erkin, demokratik jamiyatga o‘tishining o‘ziga xos va mos yo‘li – jahonda o‘zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo‘lidir. Uning asosiy mazmuni jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, ya’ni tadriijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.*

O‘zbek modeli o‘zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. U nazariya, ya’ni ta’limot sifatida mamlakatimizning salohiyati va

keng imkoniyatlaridan, tabiiy boyliklari, aholisining ongi, bilimi va yaratuvchilik mahoratidan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyillarini belgilab beradi. Oddiy til bilan aytganda, o'zbek modeli nazariy jihatdan bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi.

Amaliy faoliyat dasturi sifatida esa bu model islohotlarning huquqiy negizini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan aniq siyosatni bugungi sivilizatsiya sharoitida qanday yuritish yo'l-yo'riqlarini tavsiya etadi. Uning amaliy jihatni boshqaruv, tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o'zida aks ettiradigan va ularning ijrosini ta'minlaydigan farmonlar, qarorlar, davlat dasturlarini qabul qilishni hamda investitsiya, soliq, moliya-kredit, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xo'sh, o'zbek modelining afzalliklari va asosiy ustuvor xususiyatlari nimalardan iborat?

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat o'zining iqtisodiy taraqqiyot tamoyillarini, balki milliy davlatchilik asoslarini tiklash modelini ham ishlab chiqishi zarur edi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, xalqning o'zligi va g'ururini qayta tiklash, rivojlantirishni ham talab qiladi. Bularning barchasi jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilash va mustaqillik g'oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirdi.

Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy, yuqorida tilga olingan Yaponiya kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko'proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida iqtisodiy islohotlar davrida milliy davlatchilik, madaniy meros va ona tilini tiklash singari masalalar dolzarb bo'lмаган (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan).

O'zbek modeli esa yuqorida aytib o'tganimizdek, jamiyatning barcha sohalarini birdek isloh etishga qaratilgan. U iqtisodiy munosabatlarni yangicha asosda rivojlantirish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratlashtirish, mulkdorlar sinfi va o'rta biznesni shakllantirish kabi davlatchilik negizini tashkil etadigan masalalarni hal etishni nazarda tutadi. Bularning barchasi o'zbek modelining o'ziga xos ustuvor xususiyatlaridir. Bu modelni ishlab

chiqishda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mustaqillik uchun kurash yillardagi tarixiy sinov va saboqlar, xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi va tafakkuri – barcha-barchasi hisobga olindi.

**Buni yodda tuting:** *Jamiyatni isloh etishning chugur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili o'zbek modelining asosida turadi.*

*Birinchi tamoyil: Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ular biror mafkuraga bo'ysundirilishi ham mumkin emas.* Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi o'zbek modelining asosiy tamoyilidir. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiribgina qolmay, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg'or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqligini ham ko'rsatadi. Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'liq muhim ekanini ham nazarda tutadi.

**Buni yodda tuting:** *Ikkinci tamoyil: Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'naliшlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.* Mustabid tuzum asoratlaridan xalos bo'lish jarayonida o'zini o'zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini tugatish, bu yo'lдagi turli ziddiyat va qarshiliklarni yengib o'tish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o'tish davriga xos siyosat olib borilishi kerak.

Boshqacha aytganda, o'tish davri sharoitida iqtisodiy islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Islom Karimov o'zbek modelining mazkur tamoyilini ilmiy asoslab berar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «O'tish davri davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim».

Bu so'zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan

*Taraqqiyotning o‘zbek modeli jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolutsion-tadrijiy ravishda isloh etishdir.*

*Bozor munosabatlariiga o‘tishning besh tamoyili:*

1. *Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, mafkuradan xoliligi*
2. *Davlat – bosh islohotchi*
3. *Qonunning ustuvorligi*
4. *Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish*
5. *Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish*

iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruqlarning, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatlar cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

**Buni yodda tuting:** *Uchinchi tamoyil: Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi.*

Bu tamoyil demokratik yo‘l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishini nazarda tutadi. U quyidagi uch yo‘nalishda o‘z aksini topgan.

Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining huquqiy asosda rivojlanishini ta’minlaydi. Mulkdorlar va xo‘jalik yurituvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar huquqiy me’yorlar yordamida tartibga solinadi. O‘zboshimchalik yoki turli iqtisodiy zo‘ravonliklarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ikkinchidan, jamiyatda demokratik jarayonlar rivojlanib boradi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi uchun huquqiy kafolatlar paydo bo‘лади. Inson huquqlari ta’minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha, kamsitishlarga chek qo‘yiladi.

Uchinchidan, aholida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to‘liqroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq ro‘yobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining o‘rnii va ahamiyati yil sayin ortib boradi. Fuqarolik jamiyatasi asoslari shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili – O‘zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat yangilanishi, inson shaxsining yuksalishi uchun xizmat qiladi.

O'zbek modelining mazkur tamoyili avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning asosiy kafili bo'ladi. Qonun ustuvorligi jamiyat hayotida birdaniga to'liq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak bo'lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi:

- jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuyining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi;
- jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy savodxonligi va qonunga qat'iy bo'y sunishi;
- amaldagi qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

**Buni yodda tuting:** *To'rtinchi tamoyil: Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish.* Bunda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan tegishli choratadbirlar ko'rish nazarda tutiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qism va yo'nalishlari ko'p. Ular orasida ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinalarini yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilish qanchalik muhim o'rin tutsa, jinoyatchilikka qarshi kurashish, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash kabi masalalar ham shunchalik dolzarbdir.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish o'zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

**Buni yodda tuting:** *Beshinchi tamoyil: Bozor iqtisodiyotiga tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.* Bu jarayon islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirishni, aholini ijtimoiy himoyalash va ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bilan birga olib borishni nazarda tutadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, yangi jamiyat barpo etish uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, u faqat tegishli mavjud ishlab

chiqarish va faoliyat tuzilmalari va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqr o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyatini va amaliy munosabatlarni amalga oshirishni ham ko'zda tutadi.

O'zbekistonda ayni shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermoqda, odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlan-tirmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar mamlakat ichki hayotini belgilaydi. Uning tashqi siyosati, xalqaro nufuzi ham ana shu tamoyillarga tayanadi.


Mazkur chizmada ko'rsatilgan jihatlar o'zbek modelining tashqi iqtisodiy, siyosiy aloqalarda, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqasida yaqqol namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol mafkurasining bu sohadagi vazifasi O'zbekistonning xalqaro nufuzi yanada ortishida ana shu tamoyillar ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek modelining yana bir ustuvor xususiyati shundan iboratki, uning amalga oshirilishi mamlakatimiz ichida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarining izchil joriy etilishini ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va o'ziga xos ichki dunyosiga tayangan, ayni vaqtida, dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanganligi tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Prezident Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida mustaqillik yillardagi ulug'vor ishlar haqida fikr yuritar ekan, «... biz bugungi kunda butun dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdik. Bu modelning asosiy tamoyillari — ya'ni, iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsiplari barchamizga yaxshi ayon», deb ta'kidlaydi.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati va taraqqiyotning o'zbek modeli bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida bu g'oya xalqimizni shu maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi ulkan omil bo'lib qolaveradi.



### Savol va topshiriqlar

- ① Taraqqiyot modeli deb nimaga aytildi?
- ② O'zbek modeli deganda qanday modelni tushunamiz?
- ③ Prezidentimiz O'zbekistonni nima uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati deb aytgan?
- ④ O'zbek modelining asosini qaysi tamoyillar tashkil etadi?  
Ularning har biri haqida alohida-alohida gapirib bering.

### Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

- ① Taraqqiyot modeli va jamiatning rivojlanish yo'llari.
- ② Taraqqiyotning o'zbek modeli.
- ③ O'zbek modelining asosiy tamoyillari.



## ZARARLI G'YOYALAR VA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI OGOLLIK VA HUSHYORLIK

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, xalqimiz tabiatni va dunyoqarashiga mutlaqo yot bo'lgan kommunistik mafkuraga barham berildi. Ma'lumki, umrini o'tab bo'lgan g'oya,

aqida yoki mafkura inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g'oya, ilg'or bir fikrga ehtiyoj tug'iladi. Bu ehtiyoj voqelikka aylanguniga qadar biroz muddat vaqt o'tadi. Ana shu davrda esa g'oyaviy vakuum – bo'shliq yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatni oldini olish uchun mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Lekin ijtimoiy ong va tafakkur tezda o'zgarib, yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi.

Aynan mana shunday sharoitda begona va yet g'oyalar xalq va jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi. Ayniqsa, yangi jamiyatga mos g'oya shakllanmasa, mafkuraviy tahdid kuchayadi, aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning ongini egallashga urinishlar avj oladi.

O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab mamlakatimizga xuruj qilgan «Vahhobiylik», «Hizbut-tahrir» kabi zararli oqimlar, turli sektalar dinning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni yo'lidan ozdira boshladи. Ular xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning ko'ngli ochiq, soddadil, ishonuvchan, andishali, qalbida kattalarga hurmat, diniy qadriyatlarga intilish tuyg'usi kuchli ekanidan foydalanishga harakat qildilar.

Yuqorida qayd etilgan guruhlarning O'zbekistonda tarqalish sababi Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida atroflicha ta'riflab berilgan. Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi davrida «Islom omili», «Islom uyg'onishi», «Islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilar, bu esa diniy omilning faollashuvini o'zida aks ettirar edi. Buning ustiga bizga chegaradosh bo'lgan ba'zi mamlakatlarda diniy fundamentalizm va ekstremizmning kuchayishi ham ba'zi yet va zararli g'oyalarning respublikamizga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Yurt tinchligi – Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqidir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

**Buni yodda tuting:** *Bugungi kunda diniy ekstremizm tushunchasi matbuotda tez-tez qo'llanilmoqda. Ekstremizm tushunchasi fransuz-lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, keskin fikrlarning bildirilishi, qattiq tadbirlarning qo'llanilishi*

*yoki keskin fikr va choralarni yoglovchi degan ma'nolarni bildiradi. Ekstremistlarni ba'zida jaholatparastlar ham deb atashadi.*

Diniy ekstremizm faqat islomga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi boshqa dirlarga ham mansubdir. Islom ekstremizmi tashkiliy jihatdan yagona partiyaga birlashmagan, balki xalq ommasining turli tabaqalari orasida ish ko'rvurchi xilma-xil guruhlardan iborat. Eng faol ekstremistik guruhlardan biri «Musulmon birodarlar» uyushmasidir.

Asosan, chet ellarda va Sharq mamlakatlarida faoliyat yurituvchi «Islom ozodlik partiyasi», «Islom sotsializmi» mavqeyida turuvchi «Islom demokratlari» kabi guruhlar ham bor. Ularning umumiy g'oyasi bitta, ya'ni din niqobida hokimiyatga intilishdir.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'dirayotgan mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimizni soxtalashtirishga urinishlar;
- axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarning kelib chiqishiga qaratilgan harakatlar.

Bu tahdidlar jamiyat, davlat yoki xalqning mafkura masalalari va ma'naviyatga yetarli e'tibor qaratmagani, ta'llim-tarbiya sohasida o'zibo'larchilikka yo'l qo'yilgani natijasida sodir bo'ladi, g'oyaviy ojizlik holatida yanada kuchayib boradi va jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf soladi. Umuman olganda, g'oyaviy zaiflik xalq ommasining tub manfaatlarini va ko'nglidagi orzu-intilishlarini ifoda etadigan, uni taraqqiyot sari, ulkan maqsadlar yo'lida ji pslashtiradigan haqqoniy va jozibali g'oyaning, mafkuraning yo'qligi, ishlab chiqilmaganligi natijasida hosil bo'ladi. U ko'p hollarda ma'naviy beqarorlik va parokandalikka olib keladi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, chor Rossiyasi istilosи davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib, kurashga safarbar etmagani o'lkamizni uzoq muddat qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Har qanday jamiyatda turli manfaat, maqsad va intilishlarni

ilodalovchi g'oyalar va ularga tayanadigan kuchlar o'rtasida ziddiyat bo'lishi tabiiy hol. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning qarama-qarshisi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Lekin ular odamzodningadolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalariga tayanib, oliv maqsadlar sari intilishini aslo to'xtata olmaydi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib dunyoda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Mustamlaka zulmi ostidagi ko'plab musulmon davlatlari (Jazoir, Tunis, Marokash kabi) ozodlikka erishdi. Yevropa va Amerikadagi taraqqiy etgan yirik davlatlar ta'sirida musulmon olami, xususan, arab mamlakatlari ichki va tashqi siyosatida ham o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ya'ni, din peshvolarining siyosatga aralashishi jiddiy ixtiloflarni keltirib chiqardi.

Ayniqsa, sobiq sho'rolar mamlakati parchalanib ketgach, turli ekstremistik guruhlarning yosh mustaqil davlatlarga bo'lgan xuruj ochiq tus ola boshladi. Hurriyat, ozodlik g'oyalari bilan niqoblangan «Hizbut-tahrir» partiyasining O'zbekistondagi amaliyoti hech bir sog'lom aql doirasiga sig'masdi. Juda qisqa fursat ichida, xususan, yoshlar orasiga kirib kelgan ushbu guruh missionerlari ko'plab kishilarni jarohatlashga ulgurdilar. Ularning xayoliy g'oyalariga berilgan aksariyat yoshlar hayotiy zarur faoliyatlarini bir chetga yig'ishtirib qo'yib, allaqanday xayolkashlarning xalifalik to'g'risidagi safsatalariga uchib, qaltis yo'llarga kirib ketdi.

«Hizbut-tahrir» partiyasi 1953-yil Livanda tashkil topdi. Isroil va arab mamlakatlari o'rtasida XX asrning 50-yillarida boshlangan va hozirgacha davom etayotgan arab-isroil ixtilofi natijasi o'laroq dunyoga kelgan bu partianing asoschisi 1909-yil Falastinda tug'ilgan Taqiyiddin Nabahoni. Falastin xalqi boshiga tushgan fojialarga shaxsan guvoh bo'lgan Taqiyiddin musulmon olamining barcha muammolari faqat xalifalik yo'li bilangina hal bo'lishiga qattiq ishondi. Qohiradagi «Al-Azhar» oliv islam universitetini tamomlagach, siyosiy faoliyatga sho'ng'ib ketgan Taqiyiddin Nabahoni «Hizbut-tahrir» partiyasini ta'sis etdi va 1979-yilgacha, ya'ni vafotiga qadar rahbarlik qildi. Taqiyiddin Nabahoniyning vafotidan so'ng bu vazifani uning shogirdi Abdulqadim Zallum o'z zimmasiga oldi.

Yuqorida qayd qilinganidek, «Hizbut-tahrir» partiyasining yagona va asosiy maqsadi – dunyoni xalifalik shaklida ko'rish. Ya'ni, butun dunyo musulmonlarini (ularning qat'iy ishonchiga ko'ra, butun

dunyo musulmon xalifaligiga bo'ysunishi kerak) yagona xalifalik bayrog'i ostida birlashtirish. Vaholanki, o'rtta asrlarda bir necha yuz yillik xalifalikni boshdan kechirgan musulmon xalqi hozirgi XXI asrda yana orqaga qaytish hech qanday aqlga to'g'ri kelmasligini yaxshi biladi.

Islomdek o'ta olижаноб va insonparvar ta'limotning mohiyatini teran tahlil qilgan mamlakatimiz Prezidentining ushbu fikrlari diqqatni jalb etadi: «Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto, fanatizm (o'taketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqiyligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir.

Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'iqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar. Ustiga-ustak, ommaviylik unsuri muayyan bir xatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlik hissini yo'qotib yuboradi...»

2004-yilning mart-aprel oylarida mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida, Buxoro va Toshkent viloyatlarida sodir etilgan, bir qancha begunoh yurtdoshlarimizning umriga zomin bo'lgan fojiali voqealar ham fanatizmning manfur namoyishidir. Ko'ksini qalqon qilib, Vatanimiz xavfsizligi, yurtdoshlarimizning tinch-osoysishta hayotini asrash yo'lida o'z jonini ayamagan vatandoshlarimizning ibratli xatti-harakati shundan guvohlik beradiki, xalqimizning aksariyat qismi yurtimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash, Vatan qudratini oshirish, ma'rifiy dunyo xalqlari yashayotgan farovon hayot darajasiga erishish uchun bugun davlatimiz rahbari boshchiligidagi o'tkazilayotgan izchil siyosatni to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, shuni ham qayd qilish kerakki, yurtdoshlarimiz orasida irodasi zaif, dunyoqarashi tor, vatanparvarlik tuyg'usi to'liq shakllanmagan kimsalar ham borki, ular shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlardan ustunroq qo'ygan holda, O'zbekiston mustaqilligini ko'ra olmayotgan, bizning asrlar davomida orzu qilib, endigina Ollohnning marhamati bilan erishgan istiqlolimizdan mahrum qilmoqchi bo'layotgan ayrim ayirmachi guruhlarning quroliga aylanib, tinchligimizni buzayotir.

Insoniyat o'zligini anglay boshlagan hozirgi zamonda g'oyaviy

ziddiyatlarni demokratiya va plyuralizm tamoyili asosida hal qilish imkoniyatlari ochila boshladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan yuksak mafkuraviy madaniyatni mujassam etgan g‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqatgina ma’rifat bilan kurashish haqidagi tamoyil maydonga tashlandi.

O‘zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi hayotbaxsh va adolatli g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.

### Savol va topshiriqlar

- ① G‘oyaviy bo‘sqliq haqida nimalarni bilasiz?
- ② Mafkuraviy immunitet deganda nimani tushunasiz?
- ③ Fikr qaramligi va tafakkur qulligi oqibatlarini tushuntirib bering.

### Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular

- ① Mafkuraviy tahdid shakllari va turlari.
- ② Aqidaparastlik va uning oqibatları.
- ③ Buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurash -- hayot zarurati.



# MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI:

## asosiy tushuncha va tamoyillar

### MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Olamda millat, xalq va davlatlar juda ko‘p. Har birining o‘ziga xos manfaatlari, maqsad va orzu-umidlari bor. Ana shu orzu-umidlari va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni ro‘yobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan g‘oyalar ham bor. Bugun bizning jamiyatimiz, O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, orzu-istiklarini, oliyjanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadigan o‘z g‘oyasi shakllandi. Bu milliy istiqlol g‘oyasidir.

**Buni yodda tuting:** «O‘zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan asriy orzu-istiklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir».

Asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelingan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, ona Vatanning manfaatlarini yurakdan his etib, faol harakat qilishimiz zarur. Bu xalqimiz manfaatlari o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oyani anglash bilan bog‘liq. Zero, Vatanning obodligi xalqning farovonligidir. Fuqarolari badavlat mamlakatgina moddiy va ma’naviy to‘kis bo‘ladi.

Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o‘zi va oilasi oldidagi burch va mas’uliyatini qay-

darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

### Milliy istiqlol mafkurasi:

#### Buni yodda tuting:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

– xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlar, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;

– adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

– yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

– jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

– millati va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;

– jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

G'oya safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, mafkura mana shunday g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi tizimidir. Uning mazmun-mohiyati Prezident Islom Karimov asarlarida bat afsil yoritilgan: «*Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Bu konstitutsiyariy qoida bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini go'yadi*».

Milliy istiqlol mafkuri keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etadi. «Milliy istiqlol mafkuri, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumi manfaatlarini ifodalaydi».

Mafkura – milliy o'zlikni anglatuvchi kuch. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tayanch nuqtasi ham ana shunda. Ya'ni, millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamaguncha u o'zining obro'yi, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg'ura olmaydi, milliy

g‘urur va iftixor tuyg‘usini his eta olmaydi. O‘zlikni anglash – xalqni uyg‘otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyuştiruvchi kuchdir. Uning negizida «bu – bizniki» degan egalik hissi yotadi. Albatta, bu tuyg‘u muayyan me'yorda bo‘lganda ijobiy xususiyat kasb etadi. Me'yorida oshganda esa u xalqni manmanlikka, tajovuzkorlikka undaydi, me'yoriga yetmaganda esa, milliy tushkunlikka olib keladi. Sharq va G‘arbda, Osyo va Yevropa xalqlari hayotida ham o‘zlikni anglash tuyg‘usining uyg‘onishi, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy musobaqaga kirishuviga turtki bo‘lgan.

Bizda ham «O‘zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg‘u yuksak darajada shakllanmoqda. O‘zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, xilma-xil e’tiqod va dunyoqarashlar yonmayon yashab kelgan.

**Buni yodda tuting:** Milliy istiqlol mafkurasining quyidagi asosiy tamoyillari bor:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashda yordam berish;
- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanganligi;
- o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi;
- jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillariga xizmat qilishi.

O‘zbekiston ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makon, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu zaminda jahonni hayratga solgan buyuk sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub qadriyat va an‘analar shakllangan. Qadimgi Yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkurning beshigidir» deya e’tirof etgan.

Azal-azaldan yurtimiz sivilizatsiyasi o‘ziga xos tafakkur uslubi, turmush tarziga ega. Bag‘rikenglik, insonparvarlik, xokisorlik, xilma-xil g‘oyalar va turlicha nuqtayi nazarlar hamda mafkuralarning bir-biriga daxl etmasdan yashay olishi bilan bog‘liq jarayonlar bu sivilizatsiyaga xos xususiyatlardir.

Ana shu sababli yurtimizda turli millatlar va diniy e'tiqodlar yonma-yon yashay olgan: ham otashparastlik, ham buddaviylik, ham yahudiylik, ham xristianlik, ham islom dinlari vakillari hamjihat umr o'tkazgan.

Yurtimizda bir ibodatxona ichida turib turli din vakillari o'zaro munozaralar olib borgan, lekin bir-birining insoniy sha'niga til tekkizmagan. Bunday munozaralarda turli din va mazhab vakillari bir-biridan xayrli odatlarni o'rganib olishgan. Shu sababli ham saxovatli zaminimizda yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarida umuminsoniy g'oyalar ustuvorlik qilgan.

Kundalik hayotimizda ham ana shularga amal qilib kelinmoqda. Ular yurtimizdagi tinchlik-totuvlik va barqaror taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Buni yodda tuting:** Milliy istiqlol mafkurasi quyidagi milliy xususiyatlarni aks ettiradi:

- jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-onas, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- ona tiliga muhabbat;
- kattaga – hurmat va kichikka – izzat;
- ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Ana shu xususiyatlar tufayli inson o'zining kimligini, nimalarga qodir-u nimalarga qodir emasligini, qanday yutuqlari bor-u qanday kamchiliklarga ega ekanligini, qaysi yo'ldan, qayoqqa borishi lozimligini anglaydi. Bu esa milliy istiqlol mafkurasi insonning bunyodkorlik salohiyati va xalqimizning tanlangan yo'li to'g'rilingini anglatishga, o'tmishni kelajak bilan bog'laydigan ma'naviy ko'priki bo'lishiga xizmat qiladi. Har birimiz xalqimizning o'tmishda erishgan ma'naviy boyliklariga egalik qilishga, ongimizga, shuurimizga singib ketgan sharq tafakkur tarzi orqali bugungi voqealarni anglashga yordam beradi. Bu boy tarixiy tajribaga tayangan holda buyuk kelajakni bunyod etishda milliy istiqlol g'oyasining g'oyaviy tayanch ekanligini bildiradi.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida aytilganidek: «Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasida ustun sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa.

Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mayjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qurolgan aylantirilmaydi». Umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan bu mafkura hammaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning yuqorida qayd etilgan umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

**Buni yodda tuting:** Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- o'zga xalqning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga asoslanadigan g'oyalar ana shu tamoyillarga xizmat qiladi. «Milliy g'oya — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov, — birinchi navbatda, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur».

Milliy istiqlol g'oyasi inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushunchalar, go'zal va hayotiy tuyg'ularni o'zida mujassam etadi. Bu mafkura har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata oladi. Ushbu g'oya xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbayi bo'lib, O'zbekistonda yashovchi barcha millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqlidir.

U har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirib, har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera oladi, yangicha vaziyatga tez moslasha oladigan hozirjavob va ijodiy nazariga hisoblanadi.

Milliy mafkuramiz ayrim siyosiy kuchlar va partiyalarning bir tomonga yo'naltirilgan tor manfaatlari chegarasida o'ralashib qolmaydi, o'tkinchi yoki vaqtincha kampaniyaga xizmat qilmaydi. U tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezoni sifatida, xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'taydi. Bu g'oya orqali xalq o'zining o'tmishidan saboq chiqaradi, qay-

maqsad sari, qanday yo'ldan borish lozimligini aniqlaydi va shu asosda o'z istiqbolini belgilaydi, shu yo'lida mehnat qiladi.

Yangi mafkuraning asl ma'nosi, — deb yozadi Islom Karimov, — eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iboratdir. Busiz jamiyatni demokratik taraqqiyot yo'liga olib chiqib bo'lmaydi». Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz soxta mafkuraning yakkahokimligidan qutuldik. Ma'naviyatni, mafkurani zug'umlardan ozod qilib, erkin fikrga, milliy tafakkurga keng yo'l ochdik. Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rGANishi, o'ziga ishonchi ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bo'limasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi».

Bu boradagi o'zgarishlarning zarurligi shundaki, faqat hur fikrli insongina mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'ladi. Mutelik va jur'atsizlik o'z erkiga ega bo'lmagan kishilarga xosdir. Bu illatdan qutulish uchun inson, eng avvalo, mustaqil va ozod, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol, aqlan yetuk va bilimli bo'lishi zarur. «Bilagi kuchli birni yengsa, bilimi kuchli mingni yengadi», deydi dono xalqimiz. «Kuch — bilimdadir» degan qadimiy hikmatning asl ma'nosi ham shunda.

Bundan tashqari iymon-e'tiqod, insof-diyonat, xayr-saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharm-u hayo kabi sharqona fazilatlar ham xalqimizga xos. Ulardagi inson uchun ibrat bo'ladigan jihatlarni e'zozlash, rivojlantirib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarish, ularni targ'ib etish zarur. Mehmondo'stlik, uy-ro'zg'or yuritish madaniyati, oiladagi, qarindoshlar, do'st-u birodarlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar kabi odat-udumlarning ibratli jihatlaridan foydalanish, ularni ardoqlab, avlodlarga yetkazish lozim.

Ko'pmillatli mamlakat bo'lgan O'zbekistonda yuzdan ziyod millat va elat farzandlari istiqomat qiladi. Milliy istiqlol g'oyasining yutug'i — u ham Vatanimiz ravnaqi, ham shu yurtda yashovchi fuqarolarning barchasiga birdek taalluqli. Shu bois har bir fuqaro qalbida o'z yurtiga egalik hissini tarbiyalash, har bir odam qalbida mamlakatimiz yutuqlaridan g'ururlanish, millati, dinidan qat'i nazar, biz uchun **«O'zbekiston — yagona Vatan»** degan tabiiy tushuncha paydo bo'lishiga erishish muhim. Shundagina barcha fuqarolar qalbida Vatan istiqbolini bunyod etish uchun faol ishslash,

vatanparvarlik, el-yurt uchun fidoyilik, mardlik va jasorat tuyg‘ulari yanada kuchayib boradi.

**Buni yodda tuting:** *Milliy istiqlol masifikurasining tarixiy idizlari mustahkam.* Bu – xalqimizning moziy sinovlaridan o‘tib kelayotgan boy madaniy va ma’naviy merosi, milliy qadriyatları, urf-odat va an’analari, qo’shiqlari, bayram va marosimlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo‘lida ko‘rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari ham g‘oyamiz tayanadigan asosdir. Asrlar mobaynida, yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan komil inson g‘oyasi ham bunday tayanchlardan biridir.

Odamzod hayotida nafaqat bunyodkor, balki vayron etuvchi kuch ham mavjud. Hayotda ezgulik hukmron bo‘lishi uchun yaxshilikka,adolatga xizmat qilish zarur. Ota-bobolarimiz ana shu sababdan ham aql-idrokni yovuzlik qo‘liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, uni ma’naviyat bilan, iymon-e’tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e’tibor bergenlar.

Bu sohada ilm-ma’rifat qadrlangan, insonning sha’ni, or-nomusi e’zozlangan, uning mol-mulki davlat muhofazasiga olingan, qaroqchilik, o‘g‘rilikka keskin barham berishga harakat qilingan. Masalan, Sohibqiron bobomiz Amir Temurning: «Mening sultanatimning u chetidan bu chetiga, boshida oltin to‘ldirilgan laganni yosh bola ko‘tarib o‘tsa ham, uning mulkiga hech kimsha daxl eta olmaydi» degan so‘zleri nihoyatda ibratlidir.

O’sha davrda yordamchisi yo‘q biron ayol suv oladigan chelakni darvoza tashqarisiga chiqarib qo‘ysa, mo‘min-musulmonlar chelakni olib, unga suv to‘ldirib kelib, shu joyga qo‘yib ketishar edi. Do‘konlarga savdogarlar umuman qufl osishmasdi. Bularning hammasi o’sha zamonda hayot iymon va e’tiqod, insof va diyonat talablari bilan boshqarilganini, odamlar ana shu yuksak tuyg‘ular bilan yashaganini ko‘rsatadi. Mo‘min-musulmonlar shunday turmush tarziga odatlanishgan edi, o‘zлari och qolishsa ham o‘zganing mulkiga qo‘l tekkizmaslik xalqning turmush tarziga aylangan edi. Afsuski, keyingi mustamlaka davrlarida o‘zgalar mulkiga ko‘z olaytirish, hatto, tajovuz qilish uchun yo‘l ochildi. Odamlar birovning haqidan hazar qilmaydigan, o‘g‘rilik va talonchilikdan jirkanmaydigan bo‘lib qoldi, ma’naviy qashshoqlik paydo bo‘ldi. Shu sababli ham tarixiy xotirani uyg‘otish muhim

vazifaga aylandi. Chunki tarix – buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, achchiq saboqlarni ham tan olishga, o‘z hayotiga xolis baho berishga undaydi.

*«Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, – deb yozadi Islom Karimov, – biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligidan negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak».* Bu vazifa esa xalqimizning o‘ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga munosabatini ifoda etuvchi xalq og‘zaki ijodi namunalari, «Algomish», «Shashmaqom» kabi durdona asarlar, milliy qahramonlarning ibratli hayotini o‘rganish orqali amalga oshishi mumkin.

**Buni yodda tuting:** Xullas, milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy ildizlari deganda xalqimizning o‘tmishi, ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, eng yaxshi urf-odatlari, an’analari, qadriyatlar majmuyi tushuniladi. Ular fuqarolarimiz uchun namuna bo‘lib hisoblanadi, xato, kamchilik, nuqsonlardan esa to‘g‘ri xulosa va saboqlar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Buni yodda tuting:** Milliy istiqlol g‘oyasining falsafiy negizlarini, avvalo, ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo‘lgan ilmiy, dunyoviy, diniy qarashlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi.

«Avesto»da ifodalangan falsafiy tamoyillar va g‘oyalari, ezbilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, inson, uning kamoloti haqidagi qarashlar, poklik, halollik, mardlik kabi sifatlar milliy g‘oya shakllanishiga ta’sir o‘tkazgan. Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to‘g‘risidagi g‘oyalari, insoniyatga «Algebra» fanini hadya etgan Muhammad ibn Muso Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari, Sharq naturfalsafasining asoschisi Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari bu g‘oyada mujassamdir. Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi qarashlari, Abu Ali ibn Sinoning dualizm ta’limoti, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, Bobur va Mashrab, Bedil va Donish hamda XX asrning boshidagi ma’rifatparvar ziyorilarning faoliyati ham milliy istiqlol g‘oyasining falsafiy ildizlaridir.

Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida

quyidagilarni yozadi: «Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur vaiftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlari Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz».

**Buni yodda tuting:** Milliy istiqlol g'oyasining falsafasi, uning ma'no-mazmuni, asosiy g'oya va tamoyillari jamiyatimizning taraqqiyot yo'lini nazariy va amaliy jihatdan belgilab bergan Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida chuqur ifoda etilgan. Bu asarlarda milliy istiqlol g'oyasining maqsad-muddaolari, mamlakatning rivojlanish yo'li, uning o'ziga xos xususiyatlari, oldimizga qo'yilgan ulug'vor vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, istiqlol g'oyasining falsafiy asosi umuminsoniyatning boy tarixiy o'tmishiga, qadimgi Sharq, Yunon, Rim va boshqa falsafa maktablarining merosiga, xususan, Suqrot, Platon, Aristotel singari mutafakkirlarning asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelayotgan dono fikrlariga ham tayanadi. Jahan falsafasining o'rta asrlar va hozirgi zamon namoyandalarining qarashlari ham milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning falsafiy hikmatlari, Platonning «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» to'g'risidagi ta'limoti, Gegel dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g'oyalar ham milliy istiqlol mafkurasingning umuminsoniy asoslardir.

Xullas, o'tmish falsafasi, g'oyalar va tarix saboqlari mafkuramizning ma'no-mazmunini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va

dunyoqarashi ushbu mafkuraning tayanchi va ildizi bo‘lib hisoblanadi.

Nomlari yuqorida zikr etilgan allomalarning asarlari, milliy va umuminsoniy madaniy meros namunalarini chuqur o‘rganish milliy istiqlol g‘oyasining asoslari, tamoyil va yo‘nalishlarini yaxshi bilib olish uchun asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

### Takrorlash uchun savollar

- ① Milliy g‘oyaning mohiyatini qanday tushunasiz?
- ② Milliy istiqlol g‘oyasining mazmunini qanday izohlaysiz?
- ③ Milliy g‘oyaning o‘zlikni anglatuvchi kuch ekanligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
- ④ Milliy istiqlol g‘oyasining qanday tamoyillarini bilasiz?
- ⑤ Milliy g‘oyamizning tarixiy asoslari to‘g‘risida so‘zlab bering.

### Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

- ① Milliy istiqlol g‘oyasi tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.
- ② Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy xususiyatlari.
- ③ Milliy istiqlol g‘oyasining falsafiy-tarixiy asoslari.



## MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING ASOSIY TAMOYILLARI

G‘oya va mafkuralar muayyan xalq va jamiyat hayotidagi o‘ziga xos o‘rni hamda ahamiyati bilan farqlanadi. Bu farq uning milliylik, xalqparvarlik, buniyodkorlik kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Bizning g‘oyamiz milliy istiqlol g‘oyasi bo‘lib, u xalqaro huquq qoidalariga, umuminsoniy qadriyatlarga, davlatimiz Konstitutsiyasiga, milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizga, vijdon erkinligi, insonparvarlik, fikrlar rang-barangligi kabi demokratik tamoyillarga mos keladi.

**Buni yodda tuting:** *Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari deb, uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarining imkoniyatlari va yo‘llarini*

**belgilab beradigan yo‘nalishlarga aytildi.** Bunday yo‘nalishlar ko‘p va har biri keng qamrovlidir. Milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari o‘zaro uzviy aloqador bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, qonun ustuvorligi kabi talablarni ham nazarda tutadi.

**Buni yodda tuting:** *Qonunning ustuvorligi tamoyili milliy istiqlol g‘oyasining huquqiy asosidir.*

Mazkur tamoyilning huquqiy me’yorlari mamlakatimiz Konstitutsiyasining 12-moddasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan: «*O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas*».

Albatta, davlat jamiyat siyosiy tizimining o‘zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti kafolati bo‘lgan siyosiy institutdir. U siyosiy muassasa, ya’ni boshqaruvchi, uyuştiruvchi va safarbar etuvchi tuzilmadir. O‘zbek modeli haqidagi mavzudan yaxshi bilasizki, bizda davlat bosh islohotchi. U jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Biz milliy va umumbashariy qadriyatlarga, xalqimizning boy merosiga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasiga tayangan holda insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz. Bu borada olib borayotgan islohotlarimiz natijasida bugungi kunga kelib mustabid tuzumdan xalos bo‘ldik.

Xalqimizda «Kengashli to‘y tarqamas» degan maqol bor. Umumbashariy demokratik tamoyillarning hayotimizdan mustahkam o‘rin olishi – milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarida aks etgan maqsad-muddaolarni amalga oshirishimizga bog‘liq.

**Buni yodda tuting:** *Inson huquqlari, erkinliklari va hurfikrlilik tamoyili milliy istiqlol g‘oyasining ijtimoiy mohiyatini belgilaydi.* Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda fuqarolarimizning huquqlari va burchlari to‘liq ifodasini topgan. Milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari ana shu huquqiy asosga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu esa demokratiya mohiyatini teran anglab yetishni, hokimiyat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni yuqori saviyaga ko‘tarishni talab etadi.

Odamzod azaldan intilib kelgan umuminsoniy tamoyillardan biri vijdon erkinligi bo‘lib, u «e’tiqod erkinligi» tushunchasidan ko‘ra keng mazmunga ega. «E’tiqod erkinligi» insonning biror

din yoki g‘oyaga e‘tiqod qo‘yishda o‘z ixtiyor‘ bilan ish tutishini ifodalaydi. «Vijdon erkinligi» esa kishining biror dinga, g‘oyaga e‘tiqod qilishi yoki umuman e‘tiqod qilmasligini ham anglatadi. Insonning dinsiz yoki xudojo‘y bo‘lishi uni ayblastash yoki maqtash uchun asos bo‘lmaydi. Bu tamoyil kishining ishonch-e‘tiqod borasidagi erkinligi, jamiyat qonunlariga mos hayot kechirishini bildiradi.

**Buni yodda tuting:** *Milliy istiqlol g‘oyasining fikrlar rang-barangligini qaror toptirish tamoyili – demokratik jamiyat barpo etishning asosiy shartidir.* Ushbu tamoyil odamlarning xilma-xil fikrlari, rang-barang qarashlari umumiy maqsad asosida uyg‘unlashuvini ifodalaydi. Aynan shu uyg‘unlik milliy istiqlol g‘oyasini amaldagi kuchga aylantiradi.

Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillaridan yana biri – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlidir. Odamlarning buyuk kelajak yaratish jarayonidagi ishonchini mustahkamlashda, fuqarolarning siyosiy madaniyatini o‘sirishda, ularning taraqqiyot muammolarini to‘g‘ri anglashlarida bu tamoyil muhim g‘oyaviy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.


**Buni yodda tuting:** *Milliy qadriyatlarga sodiqlik – istiqlol g‘oyasining tayanchidir.* Bu tamoyil O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z milliy qadriyatlarini asrabavaylab, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to‘liq imkoniyatlar yaratilishini bildiradi. Vatanimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari o‘z ona tilini, madaniyatini, urf-odatlarini asrash va rivojlantirish imkoniyatiga ega. Tarixiy meros va madaniy boyliklarni, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o‘rganish mazkur tamoyilning asosiy jihatlaridir.

Milliy istiqlol g‘oyasi, shubhasiz, shaxsning e‘tiqodi va insonning ma’naviy olami bilan bog‘liq. Bu g‘oyani amalgalashish, avvalo, har tomonlama bilimli, ma’naviy, jismoniy va aqliy yetuk insonlarni voyaga yetkazishga bog‘liq. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish ham ana shu vazifalar sirasiga kiradi.

Shaxsning masfuraviy jarayonlardagi faol ishtiroki milliy istiqlol g‘oyasi tushuncha va tamoyillarini odamlar qalbi va ongiga singdirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki, faol, intiluvchan shaxs milliy istiqlol g‘oyasini yetkazuvchi vosita bo‘ladi. Shu tariqa milliy g‘oya xalqni aniq maqsad-muddaolar sari yetaklaydigan yagona bayroqqa aylanadi.

**Buni yodda tuting:** *Istiqlol g‘oyasi tayanaadigan milliy asosdagи yana bir tamoyil xalqimizga xos jamoaviylikdir. U jamiyatimizning muhim xususiyati, ijtimoiy hamkorlik va hamjihatlik negizi hisoblanadi.* Jamoaviylik, ayniqsa, mahalla faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Milliy istiqlol g‘oyasini odamlar qalbi va ongiga singdirish, avvalo, oiladan boshlanadi. Milliy g‘oya bu yerda bobolar o‘giti, otaning



shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali avloddan avlodga, insondan insonga o‘tadi, yosh avlod ongi va shuurida muhrlanib boradi. Shu bois g‘oyaviy-tarbiyaviy jihatdan sog‘lom oila negizidagi jamiyat va davlat mustahkam bo‘ladi. Bunday oilalarda komil insonlar voyaga yetadi, ularning e’tiqodi va dunyoqarashiga milliy istiqlol g‘oyasi asos bo‘ladi.

Istiqlol g‘oyasining amal qilish jarayonida milliy turmush tarzimizga xos bo‘lgan «shaxs – oila – mahalla» uchligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada shakllangan iyomon-e’tiqod, odob, aql-idrok hamda tafakkur mahallada yanada yuksalib, o‘zaro totuvlik va hamkorlik munosabatlaridan oziqlanib, inson kamolotiga xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasi har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldida burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma’naviy mezondir.

Bu – O‘zbekistonda istiqomat qiladigan va o‘z taqdirini shu

muqaddas zamin bilan bog‘lagan har bir kishining «Vatan menga nima berdi» deb emas, balki «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilayapman» degan mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashi demakdir.

**Buni yodda tuting:** *Jamiyat hayotini demokratlashtirish istiqlol g‘oyasining amaliy tamoyillaridan birdir. Amaliy tamoyil – biz ko‘zlagan maqsadlar, belgilagan dasturlar va qabul qilgan qarorlarning aniq hayotiy ijrosini ta’minlash degani.*

Demokratik institutlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish – uzoq davom etadigan jarayon. Prezidentimiz Islom Karimov bu xususda shunday degan: «*Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog‘i kerak. Bu esa bir zumda bo‘ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo‘la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko‘rish va demokratiya tamoyillarini o‘zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir.*

Har bir jamiyat, davlat o‘zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo‘lini o‘zi tanlaydi. O‘zbekiston ham o‘zi uchun mas’ul demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Xususan, sharqona demokratiyaning bir qator ustuvor jihatlari mavjud. Bu – g‘oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlikdir. Sharq siyosiy falsafasida «me’yor» tushunchasiga katta ahamiyat berilgan. Chunki demokratiya, aslida, me’yorga asoslangan siyosiy madaniyatdir. Me’yorning o‘zi esa huquq va burch, erkinlik va tenglik o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi.

Saylov tizimi, davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari – barchasi Sharqda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar hokimiyatga an‘anaviy ishonch qonuniyati bilan ifodalanadi. Sharq mamlakatlarida siyosiy qarorlar qabul qilish va ularning amaldagi tatbiqini ta’minlash, xalq manfaatlarini hisobga olgan holda, mas’ul kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Shu tufayli Sharqda «El-yurt nima der ekan?» degan masala har bir hukmdor va siyosatchi faoliyatida bosh masala bo‘lib turgan.

Sharq xalqlari hayotida odil va dono hukmdor g‘oyasi «Avesto» yaratilgan zamонлардан бoshlab rivojlanib kelgan. Sohibqiron Amir Temur faoliyatida «Kuch – adolatda» degan qoida ustuvor bo‘lgani buning yaqqol tasdig‘idir. Sharq mutafakkirlari davlatni, avvalo, jamiyat taraqqiyotidagi ikki mühim omil: ijtimoiy barqarorlikni

ta'minlash va ijtimoiy adolat mezonlarini amalga oshirish quroli deb tushungan, qonunchilik va me'yoriy tizimlar ham aynan ana shu maqsadlarga xizmat qilgan. Amir Temur «Tuzuklar»i bunga misol bo'la oladi. Sharqda mahalla va boshqa o'zini o'zi boshqarish idoralari asosan jamoatchilik fikriga tayangan holda ish yuritgan. Ijtimoiy salmoqli masalalarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish mahalla guzarlarida, choyxonalarda, karvonsaroylarda, to'y-ma'raka va hasharlarda amalga oshirilgan. Shu bilan birga, jamoatchilik fikri davlat qarorlarini qabul qilishda ham muhim o'rin tutgan.

Xullas, Sharq xalqlari, xususan, bizning hayotimizda azaldan o'ziga xos demokratik an'analar bo'lgan.<sup>1</sup> Umuminsoniy g'oyalarga o'ta xayrixohligi tufayli xalqimiz zamonaviy demokratik qadriyatlarni ham tez o'zlashtirib olishi shubhasiz.

Demokratiya, aslida, insoniyatning o'zi qadar tarixiy bo'lib, u inson faoliyatining turli jihatlariga tatbiq etiladi va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Zaki Validiy To'g'on bu haqda shunday deb yozgan edi: *«Demokratiyaning birdan bir, yagona retsepti (qolipi) yo'q. Uning maqsadi millatlarga va jamiyatlarga o'z ixtiyorlariga muvofiq hayot kechirish imkoniyatini berishidadir. Demokratiya turli millatda turlicha bo'lishi mumkin. Lekin uning asosiy sharti bor: millat va jamiyat orasidagi mas'uliyatga sheriklashib, shunga muvofiq ravishda ish qonunlariga bo'ysunish kerak bo'ladi. Inglzlarda, Amerikada, Shvetsiyada, Norvegiyada ish shu tarzda tuzilgan. Rossiyada esa bu yo'q. 1919-yilda yaxshigina demokratik partiylar vujudga keldi, ammo bolsheviklar partiyasi tepaga chiqdi-yu, butun boshli partiyalarni yo'q qildi va tarixda misli ko'rilmagan mustabidlik tuzumini o'rnatdi. Davlat ishida mas'uliyat hissining umumiyligi – xalqning madaniy kamolotiga bog'liq tarbiya va odat masalasi hamdir».*

Bugungi sharqona demokratiyada bag'rikenglik, hamjihatlik, qadr, oqibat, andisha, kattalarga hurmat, ona zaminni e'zozlash borasida o'ziga xoslik yaqqol namoyon bo'ladi. Bular esa milliy istiqlol g'oyasining amal qilishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari borish konsepsiyasini amalga oshirish jarayoni bilan uyg'un holda olib boriladi.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish jarayonida shaxs erkinligi muhim o'rin tutadi. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va

imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqeahodisalarga mustaqil munosabat bildiradigan, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan insongina milliy g‘oyamiz tamoyillarini to‘g‘ri baholay oladi.

«Erkinlik» tushunchasi g‘oyatda keng qamrovli bo‘lib, ijobiy va salbiy jihatlarga ega. Shaxs moddiy va ma’naviy ne’matlardan oqilona foydalanishga intilib, bu yo‘ldagi xatti-harakatlari bilan o‘zgalar manfaatlariga ziyon yetkazmasa – bu erkinlikning ijobiy jihatidir. Aksincha, inson o‘z maqsadlariga erishish jarayonida boshqalar manfaatini tan olmasa, erkinlik salbiy ma’no kasb etadi.

Shunday qilib, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari ko‘p va keng qamrovli bo‘lib, ular mafkuramizning amal qilish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Savol va topshiriqlar

- ① Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari deb nimaga aytildi?
- ② Vijdon erkinligi tamoyili deganda nimani tushunasiz?
- ③ Fikrlar xilma-xilligi tamoyili haqida gapirib bering.
- ④ Qonun ustuvorligi nima degani?
- ⑤ Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili qanday ahamiyatga ega?
- ⑥ O‘zbekistonning o‘z demokratik taraqqiyot yo‘liga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- ⑦ «Erkinlik» tushunchasining mazmuni haqida so‘zlab bering.

### Mustaqil ishlash va referat uchun mavzular

- ① Istiqlol g‘oyasining amal qilish tamoyillarining mazmun-mohiyati.
- ② Insonparvarlik, vijdon erkinligi va fikrlar rang-barangligi.
- ③ Umuminsoniylikning ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik, qonunning ustuvorligi.
- ④ Demokratiya va jamiyat hayotini erkinlashtirish.



## MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Tarixda ko'plab g'oya va mafkuralar bo'lgan. Ular muayyan maqsadni ifoda etgan. Bunday maqsad odamlarni ushbu g'oyaga ishontiradi, uning atrofida uyuştiradi, uni amalga oshirish uchun safarbar qiladi.

**Buni yodda tuting:** *Milliy istiqlol g'oyasining vazifasi xalqni birlashtirish, ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, unda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda harakat dasturi bo'lishdan iboratdir.*

G'oya insonni biror-bir maqsad sari da'vat etadi va shu orqali unda yashashga, faol bo'lishga, kamchiliklarga qarshi kurashga ishtiyoq uyg'otadi. Bu ishtiyoq, oxir-oqibatda, insonning hayotiga yangicha ma'no-mazmun baxsh etadi. Chunki insonni biror narsaga ishontirmoq, uning qalbi va shuuriga ta'sir etmoqdan maqsad hayotining ma'nosini o'zgartirmoqdir. Shuning uchun biror-bir g'oyani targ'ib etuvchi kishi fidoyi, bilimli, malakali va mohir notiq bo'lmos'hiz zarur.

Demokratik jamiyatda amal qiladigan pluralizm (fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi) tamoyili kishilarga o'z maqsad-muddaolariga mos g'oyalarni tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning asriy orzu-tilishlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham u bunyodkor g'oyadir. U ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishni har bir yurtdoshimizning e'tiqodiga aylantiradi. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlari qalbi va ongida mustaqil e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangi jamiyat barpo etish jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirish milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Buning uchun odamlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni hayotiy dalillar asosida aniq va lo'nda qilib tushuntirish zarur. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, ayniqsa, yoshlari o'rtaida keng targ'ib etish, birinchi navbatda, rahbar kadrlar, ziyorilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining fuqarolik burchidir. Milliy mafkura masalalariga loqaydlik umummilliyl manfaatlarimizga butunlay yot bo'lgan mahalliychilik, to'rachilik, urug'-aymoqchilik singari illatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.


Odamlarni biror-bir g‘oyaga ishontirish uchun, avvalo, uni targ‘ib etuvchi kishining o‘zi unga ishongan bo‘lishi lozim. Ana shu sababdan ham milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini amalga oshirish jarayonida har bir kishi bunyodkor kuchga aylanadi. Chunki bu g‘oyaning ma’no-mazmuni bunyodkorlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan.

Jamiyat hech qachon faqat o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlaydigan odamlar toifasidangina iborat bo‘lib qolmaydi. Aslida, kishilar umumiyl manfaatlarni teran anglash natijasida jamoat bo‘lib uyushadi va shu tariqa o‘zлari shakllantirgan ijtimoiy talab hamda me‘yorlarga asosan faoliyat ko‘rsatadi. Bu haqiqatni anglash, ayniqsa, hozirgi o‘tish davrida nihoyatda muhimdir. Shu bois jamiyat a‘zolarini umumiyl maqsad va manfaatlar asosida birlashtirish milliy istiqlol g‘oyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson qalbida Vatan deb atalmish ulug‘ bir oilaga, tabarruk bir maskanga mansublikni his etish, ya’ni yurtga muhabbat tuyg‘usi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki izchil yo‘lga qo‘yilgan tarbiya natijasida yuzaga keladi. Shu ma’noda, milliy istiqlol g‘oyasi jamiyat a‘zolari ongiga teran singib borgani sari ularning barchasi umumiyl maqsad yo‘lida o‘zaro hamkor va hamjihat bo‘lib harakat qiladigan maslakdoshlarga aylanadi.

Milliy istiqlol g‘oyasining oliyjanob vazifalaridan yana biri yurtdoshlarimizni asrlar davomida xalqimiz qalbidagi shakllanib kelgan, istiqlol tufayli yuzaga chiqqan maqsad-muddaolarni amalga oshirish yo‘lida safarbar etishdan iboratdir. Bunyodkor g‘oyaning bu vazifasi jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarda, hayotimizdagи ma’naviy o‘zgarishlarda, xalqning yaratuvchilik faoliyatida, Vatanimizda qad rostlayotgan ko‘rkam binolar, yirik inshootlar, ravon ko‘prik va yo‘llar, go‘zal shahar va qishloqlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Milliy istiqlol g‘oyasining safarbar etuvchilik xususiyati, ayniqsa, tarixiy o‘zgarishlar davrida aniq ko‘zga tashlanadi. Masalan, mamlakatimiz mustaqilligi va yaxlitligiga tahdid soladigan mafkuraviy xavf-xatarlar kuchaygan paytlarda xalqni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ulug‘ maqsadlar yo‘lida jipslashtirish va safarbar etishda milliy istiqlol g‘oyasi g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: 1999-yil 16-fevralda Toshkentda ro‘y bergen portlashdan keyin va 2000-yilda Surxandaryo viloyatining Tojikiston bilan chegaradosh bo‘lgan



joylariga dushmanlar bostirib kirganida, 2005-yil 13-may kuni xalqaro terrorchilar Andijon shahrida konstitutsion tuzumni ag'darmoqchi bo'lganda yurtimizda ana shunday safarbarlik tuyg'usi yaqqol namoyon bo'ldi.

Tarixiy burilishlar davrida yot va zararli mafkuralarning chetdan bo'ladigan tajovuzlari natijasida ayrim g'o'r va nodon yoshlar noto'g'ri yo'lga kirib qolishi ham mumkin. Ammo xalq bunday zararli g'oyalarni tashuvchilarni vaqtida payqab, ularga zarba berdi.

Prezidentimiz Islom Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot—pirovard maqsadimiz» nomli asarida ta'kidlaganidek, «Xalq – o‘zining ming yillik an’ana va tajribalari, so‘nmas xotirasiga buyuk tuyg‘ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Yolg‘onga, aldovga duch kelgan paytda uning asriy qadriyatları, doimo uyg‘oq vijdoni tilga kiradi, nokaslikka, qabihlikka qarshi kurashga da’vat etadi».

Mafkuraviy ziddiyatlar keskinlashgan davrda vayronkor kuchlar tomonidan maqsadga erishishning eng yovuz vositalari – bosqinchilik, terrorchilik, qo‘poruvchilik kabi barcha vahshiyliklar qo‘llanishi mumkin. Ularga munosib zarba berish uchun ham

insonda yuksak e'tiqod, vatanparvarlik, mardlik va fidoyilik kabi olivjanob fazilatlar shakllangan bo'lishi kerak. Milliy istiqlol g'oyasi aynan ana shunday fazilatlarni shakllantirishga qaratilgandir.

O'z umrini o'tab bo'lgan eski ijtimoiy-siyosiy tuzumdan butunlay yangi bir tuzumga o'tish davrida milliy istiqlol g'oyasi xalqni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, unga suyanch bo'ladi, odamlarda kelajakka ishonch uyg'otadi. Chunki odamlar bu g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari misolida o'z hayotiy manfaatlari va orzu-umidlari ifodasini ko'radi.

Jamiyatdagi boshqa g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy qarashni tarbiyalash milliy istiqlol g'oyasining yana bir muhim maqsadidir. G'oyalalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, haqiqiy yoki ramziy shakllarda targ'ib etilishi mumkin. Odatda, inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa-da, bu hamma vaqt ham ko'zga yaqqol tashlanavermaydi. G'oyaviy tarbiyaning yana bir vazifasi kishilarda hushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, ularda yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini, ya'ni mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkuraviy immunitet tarbiyasi uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayonda tarix, adabiyot kabi ijtimoiy fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish – g'oyaviy-tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezoni hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Garchi bu g'oya odamlarni bugungi muammolarni hal qilish uchun jipslashtirish va safarbar etish zarurati tufayli yuzaga kelsa-da, u uzoq istiqbolni ko'zlaydi. Shu bois g'oyani takomillashtirish, yangi mazmun bilan boyitish zarurati hamma vaqt dolzarb bo'lib turadi. Milliy mafkura esa jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlam va guruhlarning umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Shu ma'noda, Prezidentimizning quyidagi so'zlari g'oyat muhim ahamiyatga ega: «Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'n-u sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariiga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalalar tizimidir». Mafkuraviy maqsad – g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan pirovard natijadir. Maqsadni aniq-ravshan idrok etish inson va jamiyat faoliyatiga izchillik, sobitqadamlik va faollik bag'ishlaydi.

Milliy istiqlol g'oyasining oliy maqsadi – Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalq farovonligi g'oyalariga tayangan holda, xalqimizni mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etishdir.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan barcha kishilarni, millati, dini, tili, kasb-kori, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, yagona maqsad yo'lida birlashtirishni, butun xalq irodasini ijtimoiy muammolarni oqilonan hal etish uchun yo'naltirishni, ularda kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda kimning g'oyasi kuchli, maqsadi aniq, mafkurasi hayotiy bo'lsa – o'sha g'alaba qozonadi. Bu – insoniyatning ko'p asrlik tarixidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir. Ana shu sababdan ham milliy istiqlol g'oyasi xalqning tub manfaatlari va maqsadlarini o'zida ifoda etadi, jamiyat a'zolarini shu maqsad atrofida jipslashtirishga xizmat qiladi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarida xalqimizning umumiy manfaatlari, orzu-umid va intilishlari o'z aksini topgan.

**Buni yodda tuting:** Prezidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadini quyidagicha belgilaydi: «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroni yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyi hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir».

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalari uning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadidan kelib chiqadi. Binobarin, odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish – milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni chuqur o'rganish, undan zarur xulosalar chiqarishga e'tibor berilgani beziz emas. Chunki mustaqillikning qadr-qimmatini teran his etish uchun, avvalo, tarixni bilmoq, mustamlakachilik davrida xalqimiz boshiga tushgan sinovlarni yurakdan his etmoq, ulug' ajdodlarimizning ozodlik yo'lidagi jasoratidan xabardor

bo'lmoq zarur. Zero, tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan.

Istiqlol g'oyasi o'zida xalqning hayotiy manfaat va intilishlarini aks ettiradi. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Istiqlol g'oyasi jamiyatimizdagi sog'lom ijtimoiy muhitni mustahkamlashga yordam beradi, demokratik qadriyatlarning rivojlanishi, fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligining (plyuralizmning) qaror topishida muhim o'rinn tutadi. Shu bois yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasining muhim vazifasidir. Bugungi hayot ijodiy fikrlaydigan, tashabbuskor va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishni talab etmoqda. Milliy g'oya davr talabi va xususiyatlarni aniq aks etirgani uchun ham kishilar qalbiga tez yetib boradi va hayot dasturi bo'lib xizmat qiladi.

**Buni yodda tuting:** Milliy istiqlol g'oyasi yosh avlod hayotiga yangicha ma'no va mazmun baxsh etishga, unda faol hayotiy qarashlarni shakllantirishga qaratilgandir. Chunki yoshlар mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashning muhim vositasini milliy g'oyada ko'radilar. Milliy istiqlol mafkurasi hali turmushning achchiq-chuchugini tatif ko'rmagan, hayotiy tajribaga ega bo'limgan yosh avlodni milliy manfaat va taraqqiyotimizga yot bo'lgan soxta, buzg'unchi g'oyalarni tajovuzidan himoya qiladi, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

Mamlakatimizning ko'pmillatli xalqi ongida «O'zbekiston — yagona Vatan» degan tushunchani qaror toptirish — istiqlol g'oyasining muhim vazifalaridan. Bu g'oya o'zining tub mohiyati bilan milliy mustaqilligimizga putur yetkazadigan mahalliychilik illatlarini tag-tomiri bilan yo'qotish, turli xalq va millat vakillarida O'zbekiston farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Donishmand xalqimizning «Kuch — birlikda», «Birlashgan — o'zar, birlashmagan — to'zar» singari maqollarida ifoda etilgan

ijtimoiy hamkorlik g'oyasining mohiyatini anglash, xalqimizda vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, qonunni hurmat qilish, iymon-e'tiqodlilik kabi oliyanob fazilatlarni tarbiyalashda ham milliy istiqlol g'oyasi muhim ahamiyatga ega.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoyilik tuyg'usi ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan buyuk merosdir. Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur singari ulug' sarkarda va xalq qahramonlarining jasorati



bugungi kunda ham vatandoshlarimizda faxr va g'urur tuyg'usini kuchaytiradi. Mustabid tuzum qurbanini bo'lgan Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir singari adiblarning mustaqilligimiz yo'llidagi kurashlari buyuk ibrat namunasidir.


Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida «ma'naviy jasorat» degan teran tushunchani asoslab, ijtimoiy mustabidlik, mafkuraviy tazyiq va ma'naviy qashshoqlik yillarda ham buyuk yurtdoshlarimiz haqiqiy fidoyilik va qahramonlik ko'rsatganini ta'kidlaydi. Shoira Zulfiya xonim, akademik Yahyo G'ulomov, adabiyotshunos Ozod Sharofuddinov kabi yurtdoshlarimizning ma'naviy jasoratini ibrat qilib ko'rsatadi.

«Tabiat va tarix qonunlarini, uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur tushunadigan odamgina o'z hayotini ma'naviy jasorat asosiga qurishga qodir bo'ladi, – deb yozadi I.Karimov. – Shu ma'noda, shaxsan men zahmatkash va bunyodkor xalqimizning hayotini, ayniqsa qish qahratoni va yoz jaziramasida ham, bahor va kuzning

yog‘in-sochinli kunlarda ham yerdan rizq undirish maqsadida kungi kunga, tunni tunga ulab mehnat qiladigan dehqonlarimiz hayotini tom ma’noda jasorat namunasi, deb bilaman.

Ko‘pchilik qatorida, faqat vaziyat taqozo etgan taqdirda maydonga otilib chiqish, qahramonlik ko‘rsatish — albatta, bu ham oson emas. Buning uchun ham insonda katta yurak, g‘ayrat-shijoat, eng muhimmi, o‘ziga, o‘zining kuch-qudratiga mustahkam ishonch bo‘lishi kerak. Lekin menga buyursa, har kuni, har soatda fidoyi

### MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI



bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish — haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo‘lar edim».

Milliy istiqlol g‘oyasi asosida amalga oshiriladigan barcha vazifalar, oxir-oqibatda, yagona maqsad — Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizni ozod va obod etish, farovon jamiyat

qurishga xizmat qiladi. U o'tmishni kelajak bilan bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. Chunki uning tushuncha va tamoyillari bir necha avlodning aql-zakovati bilan yaratiladi, keyingi avlodlar tomonidan yangi mazmun bilan boyitiladi. Prezidentimiz so'zları bilan aytganda, milliy mafkura xalqni xalq, millatni millat etuvchi hayotbaxsh kuchdir.

Islom Karimov aytganidek: «*Milliy mafkura – bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir*». U o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istikclarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalalar tizimidir.

Milliy istiqlol g'oyasi kishilarni buyuk maqsadlar yo'lida birlashtiradi va ularni amalga oshirish uchun safarbar etadi. Ana shu sababdan ham bu g'oya xalq buniyodkorlik faoliyatining mezonidir. Xalqning intellektual ma'naviy salohiyati milliy istiqlol g'oyasi tushuncha va tamoyillarini qay darajada hayotga tatbiq eta olishida, ajdodlar orzu-umidini ro'yobga chiqara bilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu g'oya jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish quroli, mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi vositadir.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari xuddi uning o'zidek keng qamrovli va xilma-xildir.

---

### Savol va topshiriqlar

---

- ① G'oya insonni nimaga da'vat etadi?
- ② Mafkuraning asosiy vazifalari mohiyatini qanday tushunasiz?
- ③ Milliy istiqlol g'oyasining asosiy xususiyatlari izohlab bering.
- ④ Milliy istiqlol g'oyasining oliy maqsadi nimadan iborat?
- ⑤ «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasining ahamiyati haqida gapirib bering.

### Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular

- 1 Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadi.
- 2 Milliy istiqlolimizning g'oyaviy sohadagi asosiy vazifalari.
- 3 Milliy istiqlol mafkurasining muhim xususiyatlari.



## VATAN RAVNAQI VA YURT TINCHLIGI, XALQ FAROVONLIGI VA KOMIL INSON G' OYASI

*Vatan ravnaqi* — mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladigan asosiy g'oyalardan biridir. Vatan har bir kishining tug'ilib o'sgan makoni, bobolari yashagan va uning farzandlariga meros qoladigan zamindir.

Har bir inson biror-bir oilada, muayyan mamlakat va millat bag'rida dunyoga keladi. U ko'z ochib, onasini, uyini, o'zi tug'ilgan zaminni taniydi. Avval onasining oq sutidan, keyin o'zi tug'ilgan zamin ne'matlardan bahramand bo'ladi. Shuning uchun ona va Vatan tushunchalari uyqash tushunchalardir. Zero, inson Vatanni ham onadek aziz biladi, unga bolalikdan mehr va ixlos qo'yadi.

Onaning iliq bag'ridan, qadrdon go'shasidan, Vatanidan uzoqda bo'lgan odam uni darrov sog'inadi, uning diydorini qo'msab, intiq va intizor bo'ladi. Onasiga, tug'ilgan xonadoniga, Vataniga taalluqli narsalarning hammasi unga nihoyatda noyob va tabarruk bo'lib tuyulaveradi. Bu — onaga, qadrdon ostonaga, Vatanga bo'lgan so'nmas mehrning dalolatidir.

Vatan — insонning kindik qoni to'kilgan muqaddas zamin, uni kamolotga yetaklovchi, hayotiga ma'no-mazmun bag'ishlovchi tabarruk maskandir. Buning ustiga, Vatan — har birimiz uchun ota-bobolarimizning xoki poklari yotgan aziz joydir. U — ajdodlardan avlodlarga qoladigan tengsiz, bebahо meros, ncyob in'om. Uni biz ham keyingi avlodlarga ozod, obod va farovon holda meros qilib qoldirishga mas'ulmiz. Shundagina avlodlar bizdan minnatdor bo'ladi, nomimizni ulug'laydi, yurtimizga ko'z olaytirganlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi.

Xullas, Vatani bor odamning qadri baland, g'ururi yuksak, maqsad-muddaolari aniq bo'ladi. Vatani bor odamning orqasida tog'dek tayanchi bo'ladi. Vatan tuyg'usi — insonni fidoyilikka, mardlik ko'rsatishga da'vat etib turadi.

*Vatan baxt-saodati, obodligi uchun fidoyilik — vatanparvarlikning asosiy belgisidir, uning olly ko'rinishi esa Vatan ozodligi yo'lidagi jasoratdir.*

Vatanni asrash yo'lida jasorat ko'rsatgan qahramonlarimiz ko'p. Masalan, miloddan oldingi VI asrda ahmoniyalar sultonи Kit II katta qo'shini bilan Vatanimiz hududiga bostirib kirganida, o'sha paytda bu yerda yashagan, bizning ajdodimiz bo'lgan xalqning

yo‘lboshchisi To‘maris o‘z qavmi – massagetlarni ularga qarshi jangga boshlagan va g‘alaba qilgan. Bu g‘alabaning sabablarini tahlil etar ekan, qadimgi tarixchilardan biri: «Vatanga mehr mo‘jizalarga undaydi, To‘marisning g‘alabasi buning bir dalilidir» degan edi. Biz Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Chor Rossiyasi bosqinchilariga qarshi kurashgan Namoz Pirimqul o‘g‘li kabi bahodir bobolarimizni ham ana shunday mardligi va jasorati uchun sevamiz va qadrlaymiz. 2000-yilda Vatanimizning janubiy sarhadlariga suqulib kirgan, 2005-yili Andijonda davlat to‘ntarishi qilmoqchi bo‘lgan terrorchilarga qarshi jon olib, jon berib kurashgan va mardlarcha halok bo‘lgan o‘g‘lonlar ham mustaqil O‘zbekistonning asl farzandlari, fidoyi vatanparvarlardir.

**Buni yodda tuting:** Islom Karimov bunday deb yozganlar: «Shuni alohida ta‘kidlash joizki, xalqimiz tarixning har qanday to‘fon va suronlariga qaramasdan, milliy o‘zligi va azaliy qadriyatlarini saqlab qolib, bugungi dorilomon zamonlarga bezavol yetib kelishida uning qon-qoni, suyak-suyagida bo‘lgan ma’naviy jasorat tuyg‘usi, hech shubhasiz, hal qiluvchi ta’sir o‘tkazib kelmoqda.

**Buni yodda tuting:** Chunki, o‘zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Biz — boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma’naviyat vorislارимиз. Qadimi tariximizni har tomonlama o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va tahlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zafarlarga, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma’naviy jasorat tuyg‘usidir.

**Buni yodda tuting:** Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida, dunyoni to‘fondek bosgan Chingizxon qo‘siniiga qarshi o‘n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdining jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib, buyuk davlat barpo etgan Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatida ham ma’naviy jasorat tuyg‘usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz, albatta.

**Buni yodda tuting:** O‘tgan asr boshlarida, tariximizning og‘ir va murakkab davrida maydonga chiqqan

jadid bobolarimizning fidoyiligi zamirida ham ana shunday jasorat namunasi mujassam edi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi».

Tarix saboqlari, hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, haqiqiy milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o'zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbayiga aylanadi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan yot va begona g'oyalar esa hech qachon bizning milliy g'oyamizga aylanolmaydi. Ular qanday libosga o'ralib olmasin, qanday niqob kiymasin, bizga yo'l dosh bo'lomaydi.

«Vatan» va «Vatan ravnaqi» tushunchalari mustaqillik yillarda alohida ahamiyat kasb eta boshladи. Bugun biz Vatanimiz mustaqil bo'lgan davrda yashamoqdamiz. Mustaqillikni asrab-avaylash vatanparvar insonning eng birinchi vazifasidir.

Fransuz adibi Volter shunday degan edi: *«Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'ssa, Vatanimni jahondagi boshqa xalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi»*. Vatanparvarlik — millatchilik yoki milliy mahdudlik belgisi emas, balki u yuksak insoniy tuyg'udir. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani — Vatanimiz ravnaqining asosi bo'lmoqda.

Vatan ravnaqi, avvalo, xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga asoslanadi. Bu salohiyatni to'la yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida yuksaltirish taraqqiyotda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahonda Ford, Rokfeller, Dyupon, Krupp singari uddaburon, g'ayratli kashfiyotchi tadbirkorlar o'z vatanlari tarixida katta iz qoldirgan. Mustaqil O'zbekiston ravnaqi xalqimiz orasidagi ana shunday omilkor tadbirkorlarga ham bog'liq. Shuning uchun yurtimizda jahon bozorida o'zining munosib o'rnnini egallaydigan, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga qodir bo'lган mutaxassislarni tarbiyalashga muhim e'tibor qaratilmoqda. Xullas, Vatan ravnaqi g'oyasi O'zbekiston fuqarolarining e'tiqodiga aylansa, yurtimiz yanada taraqqiy topadi.

*Yurt tinchligi — milliy istiglolimizning asosiy g'oyalaridan biri* bo'lib, u beba ho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka

intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash umumbashariy masala. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari tinchlik-totuvlik sharoitidagina samarali hal etilgan. Shu boisdan ham yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir.

Tinchlikka o‘z-o‘zidan, quruq xohish-istik bilangina erishib bo‘lmaydi. Uni izchil va qat’iy harakatlardan tufayligina ta’minalash mumkin.

Bosqinchilik harakatlari, milliy, diniy va boshqa xildagi turli nizolar, urush-janjallar ming yillar mobaynida bashariyatning umumiyligi taraqqiyotiga pand berib keldi. O‘tgan besh ming yil davomida insoniyat 15 mingdan ortiq urushni boshdan kechirgan. XX asrdagi yuz bergan ikkita jahon urushida 60 milliondan ortiq kishi halok bo‘lgan. Afsuski, bu illatdan insoniyat hanuzgacha to‘la qutulgani yo‘q.

Urush va nizolar, beqarorlik va buzg‘unchilik g‘oyalari, har qanday g‘oya singari, avvalo, ba’zi insonlar ongida paydo bo‘ladi va so‘ngra ma’lum bir guruhrler ongiga singdiriladi hamda amalga oshiriladi. Masalan, fashizm, avvalo, Mussolini va Hitler kabi buzg‘unchi odamlar ongida paydo bo‘lgan, keyin ijtimoiy kuchga aylanib, o‘ta salbiy oqibatlarga sabab bo‘lgan.

Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi hamda uni o‘z orzu-umidlari, oliy maqsadlarining kafolati deb biladi. Shu bois otabobolarimiz duoga qo‘l ochsa, dastavval tinchlik-omonlik tilaydi, xalqimiz ham «Tinchlik bo‘lsa, har qanday ezgu maqsadga erishish mumkin» degan qarashga tayanib yashaydi.

Lekin tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, orzu-niyatning o‘zi bilangina uzoqqa borish qiyin. Yurt tinchligi – dunyo va mintaqalar tinchligi bilan chambarchas bog‘liq. Davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda tinchlik nihoyatda muhim omil sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro maydonda ro‘y berayotgan tub siyosiy o‘zgarishlar tinchlikning qadrini yanada oshirmoqda. Boshqacha aytganda, xalqimizning «Qo‘sning tinch – sen tinch» maqoli yanada teranroq ma’no kasb etib bormoqda.

Tariximizga nazar tashlasak, yurtimiz tinch, elimiz xotirjam yashagan davlarda yurtimiz yuksak moddiy va ma’naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrga hukmronlik

qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, buniyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Shuning uchun o'zbek she'riyatining sultonni Alisher Navoiy Ulug'bek to'g'risida quyidagicha yozgan:

**Temurbek naslidin sulton Ulug'bek  
Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.**

Ulug'bek zamonidan keyin toj-u taxt talashlari, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik avj olgan davrlarda esa yurtimizdan fayz-baraka ko'tarilgan, ko'hna Turkiston jahon taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketgan. Qalblarni ma'rifat o'rniga jaholat va xurofot egallab, odamlar nafs-u havoga berilgan, amaldorlar Vatan taqdirini emas, o'zining tor va mayda manfaatlarini o'ylaydigan bo'lib qolgan. Oqibatda, mamlakat bo'linib ketgan, pirovardida, muqaddas ona tuprog'imiz bosqinchi g'animplar oyog'i ostida ayovsiz toptalgan, xalqimiz ularga qaram bo'lib qolgan.

Yurtimiz istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab tinchlik-totuvlikni o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb bildi. Bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti o'z sa'y-harakatlari tufayli, nafaqat o'z hududida, balki butun mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashga katta hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining tinchlik borasidagi siyosati, mintaqamiz va jahondagi xavf-xatarlarga doir qarashlari Prezident Islom Karimovning asarlarida, ayniqsa, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida, Yurtboshimizning BMTning 48 va 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida aniq va batatsil bayon qilib berilgan.

Islom Karimov tinchlikning bugungi va kelajak hayotimiz uchun ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: **«Biz – Sharq farzandlarimiz. Sharq mamlakatlarining qayeriga bormang, odamlar bir-biri bilan uchrashganda, avvalambor, «Assalomu alaykum!» deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, «Sizga tinchlik yor bo'lsin» degan ma'noni anglatishini yaxshi bilasizlar. «Salom», ya'ni «tinchlik» so'zi Qur'oni karimda 40 marta uchrar ekan. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: «Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida «tinchlik» so'zi aytilar».»**

Biz ko‘pincha, yurt tinchligini himoyalash deganda qo‘lida qurol ushlab, Vatan sarhadlarini qo‘riqlayotgan jangchini tasavvur qilamiz. Aslida, mamlakatning har bir fuqarosi – Vatan himoyachisidir. Har birimiz Vatanni, uning sha’n-u sharafini, yurt tinchligini himoya qilishga burchlimiz. Fidoyi, millatparvar, sadoqatli kishilarning har bir ishi, so‘zi, amali, maqsadi Vatan himoyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va istiqlolli bilan chambarchas bog‘liq. Birovgaga qaram xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Konstitutsiyasida Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun kurashish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekani qayd etilgan. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, oydin kelajagi Vatan, Yurt taqdirlari bilan bog‘liq. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda «Yurtim tinch – men tinch, o‘zimni, o‘z uyimni o‘zim asramog‘im darkor» degan haqiqatni chuqur anglash nihoyatda muhim.

Shunday qilib, yuksak ma’naviyat, siyosiy madaniyat, doimiy ogohlik va hushyorlik, millatning g‘oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning eng muhim omilidir. Xalqimiz uchun muqaddas bu g‘oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo‘lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtiradi, shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hamma zamonlarda odamlar tinch-totuv va farovon hayotga intilganlar. Ana shu sababdan ham milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalardan biri xalq farovonligidir. U jamiyatning tarixiy taraqqiyotida doimiy diqqat markazida turib kelgan masalalar qatoriga kiradi.

**Buni yodda tuting:** *Xalq farovonligi – Vatan obodligini, unda yashaydigan kishilar hayoti uchun moddiy-ma’naviy boyliklarning mo‘l-ko‘lligini, odamlarning munosib turmush sharoitiga ega bo‘lishini anglatadi.*

Ushbu g‘oya mustaqillikka erishgan O‘zbekiston xalqining olıyanob maqsadlaridan birini ifodalaydi. Unga erishish uchun mamlakat iqtisodiyoti bugungi kunda tubdan isloq qilinmoqda. Binobarin, yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ma’no-mazmuni ham ana shu maqsadga qaratilgan.

Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslari shakllanmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotni

valqimizning maqsad-muddaolariga mos holda tashkil etdi. Biz turmushda o‘zini oqlagan, dunyodagi rivojlangan davlatlar hayotida sinovdan o‘tgan iqtisodiyot qonunlari asosida yashay boshladik.

Bu yo‘lning afzalligi nimada?

Avvalo iqtisodiyot o‘zining tabiiy qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Unda talab va taklif ustuvor ahamiyat kasb etadi. Unga chetdan aralashish kutilgan natijani bermaydi. Odamlar o‘z qobiliyatiga yarasha mehnat qilib, ehtiyojga mos narsani xarid qila oladigan bo‘ladi. Iqtisodiy munosabatlardagi bunday holat jamiyatdagi hayotga ham asos bo‘ladi. Endi O‘zbekiston g‘allani deyarli chetdan sotib olmaydi. Yurtimizda boshqa mahsulotlarni yetishtirish ham ko‘payib bormoqda. Endilikda o‘z paxtamizdan tayyorlangan kiyim-kechak va matolarni xomashyo narxidan qimmatiga sotish imkoniga ega bo‘ldik.

Mamlakatda qazib olinayotgan oltin bugungi kunda o‘z iqtisodiy qudratimizni oshirishga xizmat qilmoqda. Bizda iqtisodiyotning asosi bo‘lgan neft-gaz ishlab chiqarish nihoyatda rivojlandi. Yurtimiz yoqilg‘i-energetika mustaqilligiga erishdi.

Bozor iqtisodiyoti tufayli boqimandalikka barham berilmoqda. Endi har kim o‘z aql-idrokini ishlatib, fidoyi mehnati bilan yashab, kichik korxonalar ochib, tijoratni rivojlantirib, boy-badavlat yashashi mumkin. Bugun xususiy mulkchilikka, tadbirkorlik, sarmoyadorlik, ijara-chilik, fermerchilikka – xullas, mulkning rang-barang shakllariga yo‘l ochildi. Mulk shakllarining xilma-xilligi daxlsizligi Konstitutsiyamiz asosida, mustaqil Vatanimizning qonunlari bilan qat’iy himoya qilinadi.

Xususiy mulkning qadr-qimmati baland. Chunki, har bir odam o‘z mulkini asrab-avaylaydi, uni yanada ko‘paytirishga intiladi. Dehqon o‘z tomorqasini, chorvasini ko‘paytirish va boyitish yo‘lida sa'y-harakat qiladi. Fermer ham o‘z texnik imkoniyatlarini oshirib, texnologiyalarini takomillashtirib borish orqali mehnat unumдорligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va hosildorlikni yuksaltirib borishdan manfaatdordir. Xususiy lashtirilgan, aksiyadorlik shakliga o‘tgan korxonalarining ishchilari o‘z korxonalarini ravnaq toptirish uchun kurashadi. Chunki korxona rivojlansa, o‘zlari to‘q-farovon yashaydi, aksiyalariga oladigan ulushi ko‘payadi.

Xullas, mulkni xususiy lashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Bozor qonuniyatlari mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Agar mahsulot sifatli bo'lsa, unga ehtiyoj ortib boradi. Mabodo bozorga tavsiya etilgan mahsulot sifatsiz bo'lsa, kasodga uchrab, uni ishlab chiqargan odam, korxona yoki xo'jalik ham inqirozga uchrashi mumkin. Chunki bugun bozor – mo'l-ko'lchilik manbayi, uning quchog'i hammaga ochiq. Ko'pgina chet davlatlardan ham mamlakatimiz bozoriga mahsulotlar kelmoqda. Bunday raqobat sharoitida bozorda faqat mahsulotning sifatini oshirib, mustahkam o'rinn egallash mumkin.

Bugun tadbirkorlik hayotimizda muhim o'rinn tutadi. Davlat korxonalari ham, xususiy korxonalar ham eng zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yangilasagina bozor talablariga javob bera oladi. Shuning uchun bugun mamlakatimizga chetdan faqat tayyor mahsulot emas, balki ilg'or, zamonaviy texnologiya ham keltirilmoqda, qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar chet ellarga eksport qilinmoqda. Iqtisodiyotda eksportni – xorijiy bozorga mahsulot chiqarishni rivojlantirish mamlakatga chet el valutasi keltiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini yanada qudratli qiladi.

Iqtisodiyot sobiq davlat tuzumida ayrim mutaxassislarninggina ishi bo'lgan bo'lsa, bugun umumxalq, umumjamiyat manfaatiga daxldor masala bo'lib qoldi. Bugun xalq yangi iqtisodiy tafakkur bilan qurollanmoqda. Masalan, bir vaqtlar kir yuvish, tish yuvish kukuni kabi kundalik maishiy turmush mahsulotlari chiqaradigan zavodlar bor edi. Ularning sifati o'rtacha edi. Bozor iqtisodiyoti davriga kelib, ular raqobatga yaramay qoldi. Oqibatda, bunday mahsulot tayyorlovchi korxonalar zaiflashdi. Nihoyat, bu korxonalar o'z-o'zini boshqaruvchi aksiyadorlik uyushmalariga aylanib, yangi texnologiyalar bilan jihozlandi. Korxona ishchilari qayta o'qitildi. Natijada, korxonalar sifatli, bozorbop mahsulotlar chiqara boshladи. Ular boshqa mamlakatlardan ham xaridor topmoqda. Xullas, tadbirkorlik ana shunday mevalar bermoqda.

Bugun O'zbekistonda fidoyi, tadbirkor, mehnatkash insonlar hayoti, turmushi farovonlikka yuz burmoqda. Bozor iqtisodiyoti jarayonida mamlakatimizda mulkdorlar sinfi paydo bo'ldi va bu harakatni yanada rivojlantirish uchun davlat miqyosida ko'pgina chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

**Buni yodda tuting:** *Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yurtimizda xalqning keskin tabaqalanishiga – oshib-toshib ketgan boylar va kambag‘al-qashshoqlarga bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlari ko‘rilib, kuchli ijtimoiy siyosat yuritilyapti. Aholining eng kam himoyalangan va muhtoj toifalari qo‘llab-quvvatlanayotgani xalq farovonligi yo‘lda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatining kafolatidir.* Ijtimoiy himoya aholining ehtiyojmand qatlamlariga yo‘naltirilmoxda. Bu borada davlat manbalari bilan bir qatorda jamoat va xayriya tashkilotlari jamg‘armalari ham ishga solinmoqda.

**Buni yodda tuting:** *Xalq farovonligi g‘oyasi quyidagi qoidaga asoslanadi: har qaysi inson va oila badavlat bo‘lsa, jamiyat va davlat ham kuchli hamda qudratli bo‘ladi. Haqiqatga tayangan bugungi iqtisodiy islohotlarimiz yaqin kelajakda, albatta, yanada ko‘proq natijalar beradi. Mehnatkash va mirishkor xalqimiz o‘z turmushini o‘z qo‘li bilan farovon qila olishi shak-shubhasizdir.*

**Buni yodda tuting:** Komil inson g‘oyasi – odamzodga xos eng yuksak ma’naviy va jismoni yuksakkunni o‘zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyanob umuminsoniy g‘oyadir. Milliy g‘oyamizning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bu g‘oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

**Buni yodda tuting:** Komil inson bu – ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, ezgu g‘oyalar va o‘z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o‘z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda, «*Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo‘ldagi asosiy tayanchimiz – insondir. Yuksak malakali va yuksak ma’naviyatlidir insondir. Bu narsa, ayniqsa, yosh avlodga tegishli».*

Biz yuqorida tadbirkor-ishbilarmon shaxslar haqida gapirdik. Bunday insonlar faqat o‘zini o‘ylamaydi. Ular o‘z iste’dodi va

malakasini, avvalo, jamiyat farovonligini oshirishga sarflaydi, faqat shaxsiy boylik orttirish uchun emas, hayotni obod, xalqni farovon qilish uchun ham kurashadi.

Komil inson g‘oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g‘oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma’no-mazmun kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyoti uchun yangi ma’naviy imkoniyatlarni izlash maqsadlari bilan bog‘langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g‘oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma’naviy kamolotiniadolatli jamiyat qurishning asosiy sharti, deb hisoblagan.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimdonlik bilan bir qatorda, axloq va odob bilan ham yuksak ma’no-mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o‘zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an'analarimizga ko‘ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy yetukligida, ajdodlar merosini chuqur o‘rganib, uni boyitish, katta-kichikka ehtirom ko‘rsatish borasidagi harakatlarida ko‘zga ko‘rinadi.

Komillik darajasini har kim o‘zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir odamning o‘zidan ko‘ra boshqalarga yaxshiroq ma’lum bo‘ladi. Komil inson — qullik, mutelik, boqimandalikdan xalos bo‘lgan shaxsdir. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak, ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo‘ladi. Komil inson o‘z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g‘oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo‘ladi.

Xalqimizning qadim-qadimdan rivojlanib kelayotgan ajoyib odatlari, go‘zal an'analarini bor. Yurtga muhabbat, Onani e’zozlash, Vatanni sajdagoh kabi muqaddas bilish, yolg‘on gapirmaslik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, kattani hurmat, kichikni izzat qilish shular jumlsidandir. Bular xalqimizning hayoti, turmush tarzi, ma’naviyati va mentalitetiga chuqur singib ketgan. Ajdodlarimizning ana shu talablarida jamiyat va inson uchun eng zarur fazilatlar, komillikning turli qirralari yashiringani ayon bo‘ladi. Oqqan daryo oqaveradi, deganlaridek, e’tiqodi mustahkam ulug‘

ajdodlarning avlodlari bugungi kunga kelib ushbu xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan munosib farzandlar bo‘lib yetishmoqda. Shuning uchun bizning Vatanimiz yosh avlodga, uni tarbiyalashga bor kuch-imkoniyatini sarflamoqda.

Tariximizda komillik timsollari ko‘p: Alpomish – ma’naviy va jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlik timsoli, Farhod – aqliy va jismoniy kamolot egasi, Bahouddin Naqshbandning «*Diling Ollohda, qo‘ling – mehnatda bo‘lsin*» degan hikmatining mujassami, Otabek – odob-andisha, toza iymon va oriyat ramzi va hokazo.

Bugungi kunda Vatanimizda ibrat bo‘ladigan barkamol insonlar ko‘p. Zero, biz o‘zimizga oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g‘oyali yetuk insonlarga buniyod eta oladi.

Shunday qilib, komil inson tarbiyasi milliy istiqlooling asosiy g‘oyalaridan biridir. Yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor berilmoqda. Vatanimizda sog‘lom avlod harakatining keng tus oglani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» amalga oshirilayotgani ham ana shu ulug‘vor maqsad yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Odamlar o‘rtasidagi nifoq, kelishmovchilik va dushmanlik hech bir zamonda, hech bir jamiyatga yaxshilik keltirmagan. Mana shu hayot haqiqatidan xulosa chiqarib, xalqimiz o‘zaro totuvlik, ahillikni qadrlovchi maqollar, hikmatlar yaratgan. «Bo‘linganni bo‘ri yer», «Oltovlon ola bo‘lsa – og‘zidagini oldirar», «To‘rtovlon tugal bo‘lsa – tepadagini undirar» kabi hikmatlar juda ko‘p.

Ijtimoiy hamkorlik, hamjihatlik g‘oyasi shu boisdan qadimiylardan ildizlarga ega. Bunday g‘oya hukmron bo‘lgan jamiyatda tinchlik va totuvlik mustahkam, barqaror taraqqiyot bo‘ladi.

**Buni yodda tuting:** *Ijtimoiy hamkorlik – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinka mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligidir.*

Sho‘rolar davrida yakka hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura sinfiylik va partiayaviylik shiori ostida olamni faqat oq-qora bo‘yoqlarda tasvirladi, millatlar va xalqlarni bo‘lib tashladi. Buning sababi shundaki, sho‘rolar mafkurasida sinfiy manfaatlar umuminsoniy g‘oyalardan ustun qo‘yilgan edi.

O‘zbekiston istiqlolga erishgach, bunday illatlarga barham berildi. Ya’ni jamiyatdagi kuchlarni bir-biriga dushman qiladigan, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itadigan ishlarga chek qo‘yildi. Prezidentimiz ta’kidlagani kabi, biz «Bu — partokrat, bu — kommunist, bu — dindor, bu esa — dahriy» deb odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish yo‘lidan bormadik. Aksincha, barcha muammolarni faqat hamjihat bo‘lib bartaraf eta olish mumkinligini to‘g‘ri tushundik.

Biroq ijtimoiy hamkorlik degani jamiyatdagi kishilar, partiyalar, toifalar faqat bir andoza asosida yashasin yoki bir xil fikr yuritsin, degani emas. Aslida, har bir kishining qarashlari, partiya yoki ijtimoiy kuchning dunyoqarashi, manfaatlari turlicha bo‘ladi va ular bir-biridan farq qiladi. Lekin bularning harakatini bir maqsadga yetaklaydigan umumiy yo‘nalish — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi asosiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun uyushish, yakdil bo‘lish, hamjihat yashashga erishish nihoyatda muhim.

*Bu qanday shakllarda amalga oshiriladi?*

**Birinchidan**, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o‘zida mujassam etadigan ilg‘or g‘oyalalar jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

**Ikkinchidan**, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o‘zining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu ustuvor milliy g‘oyalalar bilan uyg‘unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi.

**Uchinchidan**, har bir shaxs, ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi va e’tiqodidan qat‘i nazar, ustuvor milliy g‘oyalarning amalga oshishi uchun o‘zini mas‘ul deb biladi.

Shunday qilib, ijtimoiy hamkorlikni milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalardan biri bo‘lib, uni mustahkamlash barcha fuqarolarga, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamiyatning ilg‘or vakillari bo‘lgan ziyolilar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Shu bois, barcha Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta‘minlash, ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday xavf-xatarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rmog‘i darkor. Chunki, shu aziz Vatan — barchamizniki, uning yutuq va kamchiliklari, tashvishlari va muvaffaqiyatlari hammamizga tegishlidir.

**Buni yodda tuting:** *Millatlararo totuvlik g'oyasi umum-bashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlarning bir hududiy birlikda, tinch-totuvlikda istiqomat qilishini anglatadi, ushbu mintaqa va davlatlarning taraqqiyotini belgilaydi, shu joydag'i tinchlik va barqarorlikni kafolatlaydi.*

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod odam yashaydi. O'zbekiston hududida esa 25 milliondan ortiq kishi, 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda.

Har bir millat – olamning mo'jizasidir. Davlatlar ko'pmillatli (polietnik) va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Chunki, millatlarning umumiy manfaatlari bilan birga, o'ziga xos qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari ham bor. Umumiy va xususiy manfaatlар bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng yuzaga chiqarish, ular rivojini ta'minlash juda mas'uliyatli masala. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: «*Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kamsonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniyma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir».*

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish – xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan avlodga avaylab o'tkazib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g'oyasi surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida qo'iga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos holda yechish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini

ko'rib chiqdi. Yurtimizning ko'pmillatli xalqi ongida «*O'zbekiston – yagona Vatan!*» degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usi shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida: «*O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etidi*», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtaсидаги о'заро hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda «*O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi*» deb ta'kidlangan.

Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirdilar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1992-yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Shu jumladan 31 ta koreys, 23 ta rus, 10 ta tojik, 9 ta qozoq, 9 ta tatar, 8 ta ozarbayjon, 7 ta turkman, 6 ta ukrain, 6 ta qirg'iz, 8 ta yahudiy, shuningdek, bir qanchadan nemis, polyak, armani, uyg'ur, belorus, qrim tatar, arab, bolgar, grek, gruzin, litvalik, xitoy va dunganlar milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritmoqda. Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy markazlar faollaridan 71 kishi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Shu jumladan, 32 kishi «Do'stlik» ordeni bilan, 2 kishi «Mehnat shuhrati» ordeni bilan, 13 kishi «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan. 7 kishiga faxriy unvonlar, 17 kishiga O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari berilgan. Mukofotlanganlar orasida 24 millat vakillari bor.

Bugungi kunda O'zbekiston Qahramoni Vera Borisovna Pak Xorazm viloyati koreys MMM boshqaruvi a'zosidir. Respublika rus markazi raisi Svetlana Ivanovna Gerasimova esa senator, O'zbekiston Xalq o'qituvchisi.

Televideniye va radioda 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi.

Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosiladi.

Shuningdek, umumta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliv o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuva va radioeshittirishlar olib borilayotgani hamda shunga o'xshash boshqa bir qator tadbirlar bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, bolshevism, shovinizm, irqchilik g'oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi tajovuz qilishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.

Xullas, hamkorlik, totuvlik g'oyalariga tayanib, hamjihat bo'lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek olivjanob maqsadlarga erishish mumkin.

**Buni yoddha tuting:** *Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilmalarni qilmaydigan kishilarining bir zamin, bir Vatanda, olivjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.*

Din – olam, odam va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishi, hayotning ma'no-mazmuni, insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtayi nazardan yondoshuvchi dunyoqarash shaklidir. U bugungi kunda ham shu vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. O'rta asrlarda din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan. Qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni ifoda

etib kelgan. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning sharofatidandir. Prezident Islom Karimov so‘zлari bilan ifodalaganda, «**din bizning qon-qonimizga, ong-u shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo‘lmaydi**».

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi va odamzodni yaxshilik, tinchlik, do‘stlikka da‘vat etib keladi. Jahondagi barcha yirik dinlar insonning yashashdan asl maqsadi bu dunyoda xayrli, savobli ishlar qilib, oxirat saodatiga sazovor bo‘lish, degan g‘oyani targ‘ib etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o‘rnatish masalasi o‘z aksini topgan. Shu bois har bir vatandoshimiz, ayniqsa yoshlar, avvalo, dinlar tarixini, ularning asl mohiyatini chuqr bilishi lozim. Shundagina ularni g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab yurgan kuchlar yo‘ldan chalg‘itolmaydi.

Vatanimiz hududida islom dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik kabi dinlar mayjud bo‘lgan. Ular negizida betakror madaniyat vujudga kelgan. Zardushtiylik ta‘limoti bo‘yicha, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy kurashda oraliq yo‘l yo‘q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Bu dinning uch tayanchi bo‘lib, ular niyatning ezguligi, fikrning pokligi, amallarning bunyodkorligidan iborat. Bu jihatlar zardushtiylikda «ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu ish» tarzida ifodalangan.

Qadimgi Xitooning milliy dini – konfutsiylik ta‘limotiga ko‘ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi bilan emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik, samimiyat kabi yuksak fazilatlar vositasida yuksak kamolotga erishishi mumkin. Hindistonda keng tarqalgan hinduiylik falsafasiga ko‘ra, inson o‘z hayotida nimaiki yomonlik qilsa, oqibatsiz qolmaydi, buning uchun albatta jazo oladi. «Besh qo‘l barobar emas» maqolida ifodalangan haqiqat, ya’ni ijtimoiy tabaqlanish falsafasi ham bu dinda o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi zamonda dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a‘zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro hamjamiyat O‘zbekiston tajribasini e’tirof etayotgani,

sinchiklab o'rganayotganini quyidagi misollar ham tasdiqlaydi:

2004-yil 22—23-mart kunlari Fransiyaning Parij shahrida «O'zbekiston va Fransiyada diniy bag'rikenglik» va «O'zbekiston va Fransiya xalqaro munosabatlar tizimida» mavzularida Xalqaro konferensiylar o'tkazildi.

2004-yil 3—10-oktabr kunlari AQSHning Vashington shahrida R. Nikson markazi tomonidan tashkil etilgan «Davlat va din, konfessiyalararo bag'rikenglik: O'zbekiston misolida» mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi.

2007-yil 31-may kuni Buyuk Britaniyaning London shahrida «Uch din forumi» xalqaro tashkiloti tomonidan tashkil etilgan «Konfessiyalararo totuvlikka erishishda O'zbekiston tajribasi» mavzuidagi seminar uyushtirildi.

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatni, dunyoviy davlat barpo etilmoqda. Qurilayotgan jamiyatning tamoyillari, huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Davlat qonuniy asosda barcha dirlarga, barcha e'tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergen. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning qonun asosida, ularning haq-huquqlarini hurmat va himoya qilish negizida olib borilayotgani e'tiqod erkinligini amalda ta'minlamoqda. Ayni vaqtda diniy tashkilotlardan ham qonun oldidagi burch va majburiyatlarini bajarish talab qilinadi. Bu — xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingan to'g'ri yo'ldir.

Vatanimizda turli dinlar va din vakillari o'tasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda o'ndan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi — xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish orzusini amalga oshirish uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, hamkorlik, hamjihatlik va bag'rikenglik milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri bo'lib, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda, xalqni oliyjanob maqsadlar sari boshlashda muhim o'rinn tutadi.

## Savol va topshiriqlar

- ① Hamkorlik deganda nimani tushunasiz?
- ② Millatlararo totuvlik deganda nimani tushunasiz?
- ③ O‘zbekiston hududida qancha millat va elat vakillari yashaydi?
- ④ «O‘zbekiston xalqi» tushunchasini sharhlab bering.
- ⑤ Dinlararo bag‘rikenglik deganda nimani tushunasiz?

## Mustaqil ishslash va referat uchun mavzular

- ① Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi.
- ② Millatlararo hamjihatlik g‘oyasi.
- ③ Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi.



## ISTIQLOL VA G‘OYAVIY TARBIYA

O‘zbekiston xalqining tub manfaatlari, yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlari va buyuk ishlarni amalga oshirish yosh avlodga bog‘liq. Zero hozirgi o‘quvchi va talabalar avlodni yurtni kelajakda taraqqiyot va farovonlik sari yetaklaydi, xalqqa ham ma’naviy, ham ruhiy kuch-quvvat beradi.

Ma’lumki, inson bolasi har xil his-tuyg‘ularga, tafakkurga ega bo‘lgani uchun yoshi ulg‘aya borgan sari o‘zi ham o‘zgaradi. Shu sababdan uni yetuk shaxs qilib yetishtirishda ta’lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tarbiya vositasida ma’naviy qiyofasini shakllantiradi, o‘zining kimligini, amalga oshiradigan sa‘y-harakatlari qanchalik foydali yoki zararli ekanini anglaydi, yomon ishlardan, nomaqbul xatti-harakatlardan tiyiladi.

**Buni yodda tuting:** Sog‘lom tarbiyaning bosh maqsadi – insonni ezgu amallar va foydali ishlarga o‘rgatish, yomon va zararli ishlarni qilmaslikka odatlantirish, har bir shaxsni ma’naviy komil bo‘lishiga erishish, unda yuksak insoniy tuyg‘u va xislatlarni shakllantirishdir.

**Buni yodda tuting:** Tarbiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – g‘oyaviy tarbiyadir. Bu – inson qalbi va ongiga hayot haqida falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy tushuncha va qarashlarni, yaxshilik va

yomonlik, ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi azaliy ziddiyatni tushuntirish, muayyan g'oya va mafkura tamoyillarini bosqichma-bosqich singdirishdan iborat bo'lgan jarayondir. Aslida har qanday tarbiya, o'zining maqsadi va mohiyatiga ko'ra, g'oyaviy mazmunda bo'ladi. Chunki sog'lom jamiyatda oila, bolalar bog'chasi, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiya – barcha ta'llim muassasalaridagi o'quv tarbiya jarayoni talaba hamda tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirishga, bilimlarini boyitishga, jamiyat ravnaci uchun zarur bo'ladigan fazilatlarni kamol toptirishga qaratiladi.

Mafkurasiz inson, guruuh, xalq, millat yoki jamiyat bo'lishi mumkin emas. Sog'lom jamiyatda bir ijtimoiy guruuh (siyosiy partiya, ijtimoiy harakat) mafkurasini boshqa bir ijtimoiy guruuhga majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holatga yo'l qo'yilgan mamlakatda nosog'lom aqidalar yuzaga kelib, oxir-oqibatda uning o'zi ham halokatga yuz tutadi. XX asrda hukmron bo'lib, Germaniyada butun hokimiyatni egallab olgan va dunyo xalqlari boshiga ko'plab azob-uqubatlar yog'dirgan fashizm yoki sobiq SSSR davridagi kommunistik mafkura misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

**Buni yodda tuting:** G'oyaviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi, ijtimoiy qatlam yoki guruhda ezgu g'oyalarga sadoqat, ularni amalga oshirish uchun mas'uliyat, yot va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir.

**Buni yodda tuting:** Bu esa pirovard natijada jamiyat rivojiga turki beradigan ilg'or g'oyalarning paydo bo'lib, har bir fuqaroning tafakkur tarzi va ongli faoliyatiga ta'sir etuvchi omilga aylanishiga imkon yaratadi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda yashaydigan har bir fuqaroning bugungi va ertangi manfaatlarini ifodalaydi, eng sog'lom orzu-tilishlarini aks ettiradi.

G'oyaviy tarbiyaning samarasи, eng, avvalo, yangicha dunyoqarash, yuksak e'tiqod, iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

**Buni yodda tuting:** Dunyoqarash. Sog'lom g'oyalari natijasida insonda sobit e'tiqod va yuksak dunyoqarash shakllanadi. Dunyoqarash – inson ongida shakllangan, muayyan tartibga solingan, yaxlit tizimga aylangan bilim, tasavvur va g'oyalari majmuyidir. U shaxsni jamiyatda o'z o'miga va mustaqil fikriga ega bo'lishga chorlaydi.

Yurtimizda mustaqillik davrida yoshlар ongida Vatanga, milliy qadriyat va an'analarga muhabbat, ota-ona, oila va mahallaga mehr, kasb-hunar va bilimga intilish hislari, yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslari shakllanmoqda. Mustaqillik davrida shakllangan milliy e'tiqod va dunyoqarashga xos xususiyatlar, ayniqsa, yurtdoshlarimizning ma'naviyat va tafakkurida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

E'tiqod qalbda shakllanadi va insonning haqiqatga bo'lgan ishonchini ifoda etadi. Bu ishonch odatda insonning eng muqaddas narsalarga muhabbatni orgali namoyon bo'ladi. Masalan, Vatanga bo'lgan muhabbat – Vatanga bo'lgan e'tiqod natijasidir. Insonning insonga xos sifatlari, jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. E'tiqod sizlik – yomon illat. Chunki, hech narsaga ishonmaydigan, maqsad-maslagi noma'lum, iymonsiz kishi nafaqat o'ziga, balki atrofdagilarga ham ziyon yetkazadi.

E'tiqodli odam, eng, avvalo, foydali, yaxshi amallar bilan shug'ullanadi, yolg'on gapirmaydi. Bir narsani bajarishga kirishsa, butun kuch va iqtidorini shunga sarflaydi, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Haqiqiy e'tiqod egasi ilmga tashna, aniq maqsad bilan yashaydigan, har tomonlama barkamollikka intiladigan bo'ladi. E'tiqod shaxsda jur'at, mardlik, fidoyilik, qat'iyatlik, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Tug'ilib o'sgan yerni muqaddas deb bilish, kindik qoni to'kilgan tuproqni asrash, Vatan ravnaqi yo'lida vijdonan mehnat qilish – iymonlilikdir.

**Buni yodda tuting:** Iymon arabcha so'z bo'lib, ishonch degan ma'noni anglatadi. U e'tiqod so'zining ma'nodoshidir, binobarin, e'tiqodli odam iymonli hamdir. Hadisda «Vatanni sevmoq – iymondandir» deyilgan. Shuning uchun ham Vatan xoinlari iymonsizlar deb la'natlanadi.

Iymonga faqat diniy tushuncha sifatida qarash to'g'ri emas. Chunki, foydali amal, savob ish qilgan, yaxshi axloq sohibi bo'lgan kishilar ham iymonli deb ataladi.

**Buni yodda tuting:** Mas'uliyat – g'oyaviy tarbiya mezonlaridan biridir. Mas'uliyat – odamning o'z zimmasidagi vazifalar mohiyatini, ularni bajarish yoki bajarmaslikdan keladigan oqibatlarini to'g'ri his qilishi, anglashi va bu vazifalarni amalga oshirish yo'lidagi ijobiylar sa'y-harakatlaridir.

Mas'uliyat ikki xil, ya'ni shaxsiy va fuqarolik mas'uliyatidan

iborat bo'ladi. Shaxsiy mas'uliyat shaxsiy manfaatni nazarda tutsa, fuqarolik mas'uliyati, avvalo, mehnat qilayotgan jamoasi, ta'lim olayotgan o'quv dargohi, mahallasi yoki yurtining ravnaqini, jamiyat foydasini o'ylab yashashni taqozo etadi. O'zbekiston fuqarolari uchun umumiy maqsad – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilishdir. Fuqarolik mas'uliyati ham aynan ana shu maqsadlar yo'lidagi harakatlar bilan belgilanadi.

Mas'uliyatni his qiladigan kishi o'zining erkin va mustaqil fikriga ega bo'ladi, maqsad sari faol harakat qiladi. Shu bois, Vatan va millat oldidagi burch, mahalla, mehnat jamoasi, oila taqdiri uchun javobgarlik hissini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir.

Oila, mahalla, ta'lim-tarbiya maskanlari, adabiyot va san'at asarlari, ommaviy axborot vositalari, mehnat jamoasi, jamoat tashkilotlari milliy istiqlol g'oyasini singdirishning asosiy vositalaridir.

**Oila.** Shaxs madaniyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodiga bog'liq ko'nikmalar dastlab oilada shakllanadi. Oila – tom ma'nodagi ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiyaning asosiy omili va muhitidir. Milliy istiqlol g'oyasiga doir ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga oila muhitida singadi. Ota ibrati, ona mehri bunda muhim o'rinni tutadi. Oila va uning muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga sadoqat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, ilm va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi.

**Ota va ona.** Mashhur bir rivoyatda aytishicha, ota o'z farzandiga ilm-u hunar o'rgatish uchun ustoz huzurliga olib boribdi. Ustoz otadan: «Farzandingiz necha yoshga kirdi?» deb so'rabdi. Ota: «Bu yil yettiga to'ladi», debdi. Shunda ustoz: «Farzandingizni tarbiyalashda yetti yil kechikibsiz», degan ekan. Bu o'rinda oilaning, ota-onaning farzand tarbiyasi borasidagi o'rni va vazifasi juda ta'sirli bayon qilingan. Bu xususda yana ko'p rivoyatlar, tarixiy voqealar, hadis va oyatlar bor. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun, avvalo, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Ota-ona bo'lishlik g'oyatda mas'uliyatlari vazifa. Oiladagi tarbiya jamiyatimiz manfaatiga mos bo'lishi uchun, avvalo, ular mas'ul, shu bois birinchi galda ota-onaning o'zi ham ma'naviy, ham psixologik jihatdan tarbiyalangan bo'lishi lozim.

Kasbni puxta egallash va fidoyilik bilan mehnat qilishi uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlarni tarbiyalash uchun ham shunchalik muhimdir. O'rta asrda yashab ijod qilgan iste'dodli shoirlardan biri Abdibek Sheroziy ota-onaga, ayniqsa, ayol kishiga

ilm qanchalik zarur ekani to‘g‘risida shunday yozgan edi: «Ilm – ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan xalos etgan har bir ayol nomus, izzat, ayollik kabi haqiqatlar qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatoliklarga yo‘l qo‘yadi».

**Ota-oná bola taqdiri uchun jamiyat oldida javobgar hisoblanadi.** Ota-onalik burchiga e’tiborsiz qarash, fuqarolik mas’uliyatini his etmaslik muhim ijtimoiy burchni bajarmaslik bilan barobardir. Chunki, bolani dunyoga keltirishga nisbatan, uni jamiyatga nafi yetadigan, sog‘lom e’tiqodli qilib tarbiyalash mushkulroqdir.

G‘oyaviy tarbiyada ayniqsa onaning alohida o‘rni va ahamiyati bor. Bugun yurtimizda ayollarga jamiyat tomonidan bildirilayotgan yuksak ishonch zamirida ham onalarga mehr-muhabbat, ularni hayotimizning gultoji sifatida qadrlash mavjud. Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi allomalarni voyaga yetkazgan momolarimizning munosib vorislari bo‘lgan ayollarimiz ham bugun sog‘lom va barkamol, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida kuch-g‘ayrati, bilim va iqtidorini ayamaydigan avlodni tarbiyalashmoqda. Yurtboshimizning «Har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma‘naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi» degan fikrining zamirida ham ana shunday yuksak ma’no bor.

**Mahalla** o‘zini o‘zi boshqarishning o‘ziga xos milliy modeli bo‘lib, xalqimizning azaliy udumlari, urf-odat va an‘analariga tayanadi va muhim tarbiya vazifasini ham bajaradi. Mahallada jamoa bo‘lib yashash, bir-birining issiqsovug‘idan xabardor bo‘lib turish, keksalar nasihatni, kattalarga hurmat, o‘zaro hamjihatlik va ahillik vositasida odamlar ongiga ezzulik singdirib borildi.

Mahalla – sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu yerda jamoatchilik fikri odamlarning xulq-atvori, munosabatlarini adolat mezonlari asosida tarbiyaga solib turadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, *mahalla – haqiqiy demokratiya darsxonasıdır*.

Mahallada g‘oyaviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar bor. Milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun fidoyilik kabi fazilatlar mahallada kamol topadi.

Respublikamizda ta’lim va tarbiya maskanlari – O‘zbekistonning

taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning asosiy vositalaridandir.

Maktab, litsey va kollejlarda g'oyaviy ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi omillarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- Ona tiliga muhabbat;
- Milliy qadriyatlarga hurmat;
- Ayolni – onani ulug'lash;
- Oilaning tarbiya borasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish;
- Mahalla – demokratiya darsxonasi va o'zini o'zi boshqarish maktabi ekanini yoshlarga o'rgatish;
- Umuminsoniy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish;
- Dinning dunyoviylikka zid emasligini anglatish;
- Huquqiy madaniyat – sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish.

Bularning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bu dastur barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga yetkazishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

**Milliy qadriyatlar.** Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebahो meros bo'lib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar milliy maskuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omildir. Ayniqsa, g'oyaviy tarbiya jarayonida Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi bayram va marosimlarimiz bunda katta ahamiyatga ega.

### Savol va topshiriqlar

- ① Tarbiyaning ma'no-mazmuni nimadan iborat?
- ② Sog'lom tarbiyaning bosh maqsadi deganda nimani tushunasiz?
- ③ G'oyaviy tarbiya qanday maqsadni ko'zlaydi?
- ④ G'oyaviy tarbiyaning samarasini nimalarda ko'rindi?

### Mustaqil ishslash va referet uchun mavzular

- 1 Ta'lim va tarbiyaning mohiyati va mazmuni.
- 2 G'oyaviy tarbiyaning uslub va vositalari.
- 3 E'tiqod va barkamol avlodni tarbiyalash.



## KOMIL INSON – MILLIY ISTIQLOL G‘OYASINING ASOSIY MAQSADLARIDAN BIRI

**Buni yodda tuting:** Kishilik tarixidan ma'lumki, komillik sifati faqatgina insonga nisbatan qo'llaniladi.

Zero yer yuzidagi tirik mavjudotlar orasida faqat odamzodgina aqlga ega bo'lgan yagona bunyodkor hisoblanadi. Bundan tashqari inson – tafakkur va tasavvur sohibi, fikr-tuyg'ular, g'oya va orzularga ega bo'lgan, ularni amalga oshira oladigan zotdir. Aniq fanlar uchun odam – bu biologik yoki fiziologik vujud va moddiy ehtiyojlar sohibi bo'lsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun u madaniy borliq, ma'naviy boyliklar yaratuvchi bo'lib hisoblanadi. Ana shu bois, insonni ijtimoiy jihatdan baholaganda bo'y-basti, shakl-shamoyili, og'irligi emas, balki uning intellektual imkoniyatlari, yarata olish qobiliyati, faoliyati, xatti-harakati, fe'l-atvoriga ko'proq e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytganda, insonning qadr-qimmati va hurmat-e'tibori uning moddiy emas, balki ijtimoiy sifatlari va aniq faoliyat mezonlari bilan belgilanadi.

Ana shu sababdan ham insoniyat asrlar davomida jismoniy sihat-salomatlik bilan birga, ma'naviy komillik va yetuklikni orzu qilib keladi. O'zining aql kuchi, tafakkuri qudratini, bilimlari darajasini oshirishga harakat qiladi. Bu yo'lda qanchadan qancha kitoblar yozilgan, kashfiyotlar qilingan, olamshumul yutuqlarga erishilgan. Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifodasini topgan.

Madaniy merosimizning ilk namunalaridan biri «Avesto»dayoq g'oyaga alohida e'tibor bilan qaralganini ko'ramiz. Asarda «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu ish» tamoyillarini o'z qiyofasida ifodalagan kishi komil bo'lishi mumkinligi misollar orqali ko'rsatilgan. Ana shu uch xususiyat aslida eng yetuk inson qiyofasining asosiy belgisi emassi? Haqiqatan ham inson ezgulikni o'ylasa, unga intilsa, ezgulikdan so'ylasa va kuylasa, unga amal qilsa, bu jarayonda ezgu ishlarni amalga oshirsa, shuning o'zi komillik emassi?

Vatanimiz tarixidan ma'lumki, umuman ta'lim va tarbiya muammolari va xususan komil inson masalasi doimo ulkan ma'rifiy

vazifa sifatida qaralgan. Bu masala ayniqsa tasavvufning bosh mavzularidan biri bo‘lgan va o‘tmish allomalari ijodida o‘z aksini topgan. O‘rta asrning yirik namoyandalari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab allomalar ham o‘z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatli fikrlarni bayon qilganlar.

Misol uchun Unsurulmaoliy Kaykovusning 44 bobdan iborat bo‘lgan «Qobusnomá»sini olaylik: 63 yoshida, ya’ni muayyan hayotiy tajriba to‘planganidan so‘ng, yozishni boshlagan mutafakkir, bu asarda o‘z o‘g‘liga murojaat orqali, keljak avlodning mukammal qiyofasini yaratishni maqsad qilib qo‘ygan.

Kitobda jumladan shunday fikrni o‘qiymiz: «Ey farzand, ogoh bo‘lki, hamma maxluqotdan (ko‘ra) odam yaxshiroq yaratilgan va o‘zga jonivorlardan odam o‘n daraja ziyodadir». Komilllik g‘oyasi zaminimizda chuqur ildiz otgan, uning ta’sirini barcha zamon olimlari ijodida, mutafakkirlari faoliyatida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan: insonga ta’rif berar ekan, Abu Nasr Forobiy jumladan shunday yozadi: «Barcha hayvonlardan inson o‘z alohida xossalari bilan farq qiladi, chunki unda jon bor. Ana shu jordan kuch paydo bo‘lib, bu kuch tana a’zolari vositasi bilan harakat qiladi va bundan tashqari unda shunday kuch borki, bu kuch tana a’zolari vositasisiz harakat qiladi. Bu kuch aqldir. Aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat, ruh bilan bog‘liqidir».

Odamning qadr-qimmati, aql-zakovati, ijodiy va bunyodkorlik imkoniyatiga yuksak baho bergan Forobiy uchun inson – shunchaki tirik mavjudot emas, balki o‘z mohiyatiga ko‘ra, aql-idrokining kuchi orqali komillikka daxldor bo‘lgan ijtimoiy xususiyatlar sohibidir. Olim fikricha inson – ijtimoiy faol mavjudot. Uning hayoti, yashash tarzi mazmun-ma’nosiz kechmasligi lozim. Bu hayot, avalo, aql orqali boshqarilishi, tashkil qilinishi, aniq maqsadga yo‘naltirilishi va albatta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi zarur.

Forobiy o‘zining «Aflatun qonunlarining mohiyati» asarida komillik ma’nosiga uyg‘un bo‘la oladigan «Oliyjanoblik» sifatiga quyidagicha izoh beradi: «Oliyjanob (kishi) o‘z go‘zalligi, kuchi, zaifligi, sog‘lomligi yoki semizligi uchun oliyjanob emas, balki qonunlarga mos hayot tarzi bo‘yicha ma’qul ko‘rilgan odatlarga rioya qilgani uchun oliyjanobdir».

Ko‘rinib turganidek, Forobiy uchun komillik tushunchasining eng muhim sifati va asosiy mezoni insonning o‘zi yashab turgan davrdagi xatti-harakatlari va jamiyatdagi qabul qilingan qonun-qoidalarga rioya etishi bilan bog‘liq deb hisoblaydi.

Mashhur faylasuf va shoir Pahlavon Mahmud:

*Yuz ming Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq  
Va yoxud bir asr zindonda yotmoq –  
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq, –*

deb bejiz yozmagan. Nodonlik bilan komillik orasidagi tafovutni aniq ko‘ra olgan, nodon va johil insonlarning qiyofasini butun bo‘yi basti bilan anglagan zot – Pahlavon Mahmudning ushbu to‘rtligida hamma fikr to‘liq bayon etilgandek. Ortiqcha izohga hojat ham yo‘qdek. Lekin chuqurroq e’tibor bersangiz, shoir komillikka emas, nodonlikka ta‘rif beradi. Nodonlik, bilimsizlik, ma‘rifatsizlik va johillikni qoralaydi.

Komil inson shaxsini yaratish Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yan Amos Komenskiy, logann Genrix Pestalotti asarlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning quyidagi misralariga e’tibor bering:

*Olimki, pisandadur, xisoli bilgil,  
Hilmin tan aro ruh misoli bilgil,  
Komilda kerak hilm hayoli, bilgil,  
Kim hilmdadur ilm kamoli, bilgil.*

Ulug‘ allomamiz merosida bu borada ko‘pdan ko‘p ibratli misralar uchraydi. Masalan, hazrat Navoiyning «Kamol et kasbkim, olam uyidin senga farz o‘limgay g‘amnok chiqmoq. Jahondin notamom o‘tmak biaynih, erur62 hammomin nopok chiqmoq» degan fikrlari har bir inson komillikni o‘ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Komillik yo‘li – bu ilm yo‘lidir. Boshqacha aytganda inson komillikka o‘qish, o‘rganish va bilish vositasida erishadi. Bir umrga tolibi ilm bo‘lishni tarannum etuvchi mana bu ruboiy Bobur Mirzo qalamiga mansubdir:

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O‘rgangali ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo‘q,  
Men borman ilm tolibi ilm kerak.*

Darhaqiqat, komillikning negizi ma'rifat va ilmlilikdir. Ayniqsa ular insonni ma'naviy yuksakliklar sari yetaklovchi buyuk fazilatlardir. Shu o'rinda Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sidan olingan quyidagi misralarni yodga olaylik:

*Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,  
Shunda bilursankim, ilm – bepoyon.*

Yoki:

*Ilm – aql gavhar, ilm – bir ummon,  
Ilm-la yechilur mushkullar – oson.  
Ilm sohibi bo'l, ilmdir iyomon,  
Ilm mevasidir mukammal inson.*

XIX asarda yozilgan Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat» yoki XX asr boshlarida chop etilgan Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida, ular bilan zamondosh bo'lgan boshqa olim-u fuzalolarning asarlarida ham komil inson orzusi asosiy mavzulardan biri bo'lgan.

Bugungi kunga kelib komil inson tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, butun insoniyatning XXI asrgacha bo'lgan orzu-armonlari bir tomon-u, uchinchi ming yillik boshida turib belgilayotgan rejalar bir tomon bo'la oladi. Elektronika, komputer, uyali texnika, atom, ultratovush, lazer va infraqizil nurlar, biogenetika, kosmonavtika kabi umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan soha va yo'nalishlar soni yanada ko'payishi shubhasiz. Murakkab va shiddatli XXI asr boshida turib butun insoniyatni o'ylantirayotgan muhim masalalardan – odamning odamiyiligini asrab qolish, shaxs tabiatining tabiiyligini saqlash, inson qalbidagi eng ezgu sifatlarni himoya qilish, odamzodni ma'naviy tanazzuldan qo'riqlash bilan bog'liq. Tobora murakkablashib borayotgan jarayon qarshisida turib qolayotgan insoniyatning, odamzod organizmining komillik sifatlarini saqlab qolish masalasi yangi asrda, yangi ming yillikda umuman bashariyatga aloqador muammodir.

Ushbu masala ular bilan bog'liq bo'lgan yosh avlodga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifat-u madaniyatga yetaklash muammolari bilan ham dolzarb bo'lib turibdi.

Tafakkur rivojining, fan-texnika taraqqiyotining, bugungi dunyodagi hadsiz axborotlar, globallashuv jarayonlarining insoniy sifatlariga, ma'naviy-axloqiy tushunchalarga va nihoyat komillik mezonlariga u yoki bu darajada ta'sir etishi tabiiy hol. Yangi asr

kishisining komillik xususiyatlari o‘zgarib borishi, ong, qalb va tuyg‘u tushunchalarining qisman yoki butunlay transformatsiyaga uchrashi, biz o‘qigan, tasavvur qilgan, shakllantirmoqchi bo‘lgan komillik qiyofasi mazmun-mohiyati bilan yangicha tus olishi ham mumkin.

Ana shu bois komil inson tushunchasining bugungi tahlili, birinchidan, komillik qiyofasini zamonga nisbatan, davr va muhit ichida, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda tasavvur qilishga asoslanadi.

Ikkinchidan, komil inson qiyofasiga nisbatan, hayotiy tajribalar ko‘lami va odamiylik sifatlarining umumlashgan yoki xususiyashgan shakllarida ko‘rishimiz mumkin.

Va nihoyat, uchinchidan, inson komilligining ahamiyatiga nisbatan, komillik darajasiga yaqinlasha olgan shaxsnинг o‘z davriga, zamonasiga, millati, xalqi, Vatani va butun insoniyatga ta’siri, keltirgan nafi yoki ma’nnaviy ozuqasi salmog‘i bilan belgilanishi shubhasiz.

Ta’kidlash joizki, inson ongini, qalb yoki tafakkurini qolipga solib, to‘la «modellashtirib» bo‘lmaydi.

Komil inson qiyofasini iloji boricha aniqroq tasavvur qilish uchun nazarda tutilgan, komillikni shakllantiruvchi tarkibiy qismlarni belgilash va tavsiflash zarur deb hisoblaymiz. Bular qatoriga quyidagi insoniy sifatlarni kiritish mumkin:

1. Oliyjanoblik.
2. Oqillik.
3. Ilmlilik.
4. Fozillik.
5. Odillik.
6. Qobililik va boshqalar.

Komil inson darajasi barchaga ham nasib etavermagani bois ushbu sifatlar qatorini yanada ko‘paytirish ham mumkin. Zero komillik darajasi ham mutlaq emas, balki nisbiydir. Qolaversa, inson umri va imkoniyatlari cheklanganligi sababli komillik sari erishilgan yutuqlar va ma’nnaviy yuksaklik darajalari ham nisbiy. Zero o‘z zamonasining eng yetuk insonlaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy ham «Navoiy yomon bo‘lsa sen yaxshi bo‘l» deb bejiz yozmagan. Bir umr komillikka intilgan bu buyuk zot ham ushbu yo‘lda mutlaq kamolotga erishish – ushalmas orzu ekanligini nihoyatda yaxshi anglagan.

Insonning komillik darajasiga yeta olishi – bu shunchaki orzu emas, balki uning ezgulikka xizmat qilishi, ilmlarni o‘zlashtirish va rivojlantirishi, ezgu ishlar qilish jarayonida erishilishi mumkin bo‘lgan aniq hodisa yoki oliy darajadagi ma’nnaviy yuksaklik hisoblanadi. Shunday ekan, uzlusiz ta’lim berish va maqsadli tarbiyalash orqali komillik sifatlariga ega bo‘lgan barkamol insonlarni voyaga yetkazish mumkin. Bu oliy maqsad bo‘lib, u mustaqillik

yo‘lida borayotgan mamlakatimizdagi ma’naviy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

Ana shu ma’noda mustaqil O‘zbekistonda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yangi asrning barkamol avlodini yetishtirishdek murakkab va olivjanob vazifalarni hal etishga qaratilgan. Mazkur dastur rejalari mamlakatimizda nafaqat ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga, balki jamiyatda ma’rifiy ongning shakllanishi va takomillashuvi, ilmiy salohiyat va intellektual qadriyatlarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Erkin fuqarolik jamiyatini ma’naviy barkamol, ezgu g‘oyalar hayotiy e’tiqodi bo‘lgan insonlarga bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e’tibor berilmoqda.

**Buni yodda tuting:** «Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» risolasida Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so‘zlarini o‘qiymiz: «*Ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim ya ma’rifatni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi*». Ushbu fikr mamlakatimiz ta’lim muassasalarida mehnat qilayotgan muallim va o‘qituvchilar, shu sohada izlanishlar olib borayotgan ilmiy xodimlarga katta mas’uliyat yuklaydi. U ilmiy-pedagogik kadrlar faoliyatini yangi o‘zanga solish, milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar va umuman aholi ongiga singdirishda omilkor bo‘lish zaruratini ta’kidlaydi. Bunda ayni paytda jamiyat va shaxs munosabatlarining dolzarb muammolarini aniqlash, shaxs kamoloti bilan komil inson tushunchalarini zamonaviy talqin etish maqsadga muvofiqdir. Undan keyingi vazifa — komil insonni tarbiyalash xususiyatlarining o‘zgarib borayotgan yo‘nalishlarini chuqur ilmiy tahlil qilish masalasi. Bu o‘rinda ana shu xususiyatlarga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar, xususan ijtimoiy, siyosiy ta’sirlarga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Va nihoyat, shaxsnинг o‘ziga ijtimoiy muhit mahsuli sifatida emas, balki jismoniy imkoniyatlar, individual xususiyatlar, iroda va mehnat mahsuli sifatida qarash lozim. Albatta, yuqoridaqgi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish bugungi ta’lim-tarbiya ilmining

o‘ziga yaqin bo‘lgan psixologiya, sotsiologiya, falsafa kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan yaqin hamkorlik qilishini taqozo etadi. Chunki milliy istiqlol g‘oyasi ko‘zgusida komil insonni ko‘ra olish, uning muayyan darajadagi «model»ini yaratish ana shu ilmiy sohalar bilan uyg‘unlashgan faoliyat asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda sog‘lom avlod tarbiyasi harakatining keng tus olgani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta’lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug‘vor maqsadni amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

2000-yilning «Sog‘lom avlod yili», 2001-yilning «Onalar va bolalar yili», 2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yil «Obod mahalla yili», 2004-yil «Mehr va muruvvat yili», 2005-yil «Sihat salomatlik yili», 2006-yil «Homiyalar va shifokorlar yili», 2007-yil «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yil «Yoshlar yili», 2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2010-yil «Barkamol avlod yili» deb e’lon qilinganligi, amalda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar hajmining serqirraligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, komillik yo‘li – mashaqqat va haqiqat yo‘li, mehr-u muhabbat, sabr-u qanoat, ilm-u ma’rifat yo‘lidir. Ana shu ma’noda milliy istiqlol g‘oyasi – komillikka eltuvchi ulug‘ va muqaddas yo‘ldir. Eng muhimimi – bu yo‘ldan chiqmaslik va qat’iylik bilan oldinga intilishdir. Yana muhimrog‘i – bu yo‘lning asosi bor, tarixi bor, bu yo‘l biz uchun notanish emas. Chunki bizning bu yo‘lni bosib o‘tgan bobolarimiz bor, bugunning yetuk insonlari bo‘lgan zamondoshlarimiz bor, istiqlol g‘oyalari bilan hamqadam o‘sayotgan barkamol avlodimiz bor.

Xulosa shuki, dunyo yaralgandan buyon undagi jonzotlar yashash, o‘z ehtiyojlarini qondirish, hayot davomiyligini ta’minalash uchun intilib kelmoqda. Ana shu tirik jonzotlarning eng mukammali, eng aqllisi, eng oliy va albatta eng mas’uli – insondir.

Inson dunyoning obodligi, jamiyatning barqarorligi, tinchlik va totuvlik, o‘z-o‘zi va har biri, nihoyat nasli uchun, keljak avlod uchun, qolaversa butun insoniyat taqdiri uchun ham mas’uldir.

Ana shu mas’ullik hissi komillikning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, har bir insonning kundalik xatti-harakatida namoyon bo‘lishi shart. Bu istiqlolimizni asrash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish uchun zarur avlodni tarbiyalaydi.

# IKKINCHI QISM MILLIY ISTIQOL G'YOASI

## AMALIY MASHG'ULOTLAR asosiy tushuncha va tamoyillar

### «G'OYA» VA «MAFKURA» TUSHUNCHALARINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Reja:

1. G'oya tushunchasi, uning mazmuni va shakllari.
2. G'oyaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati.
3. Mafkura tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.
4. Mafkuraning turli shakllari va hayotdagi ahamiyati.

Sinf taxtasiga quyidagi yozuv osib qo'yiladi: «Milliy g'oya bu odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iyomon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularning o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir» (Islom Karimov).

Darsning turi: Davra suhbatি.

Darsning maqsadi: O'quvchilar ongiga g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini singdirish. Ularning ma'naviy tushunchalar ekani to'g'risidagi bilimlarni yetkazishdan iborat.

Dars boshlanishida o'qituvchi quyidagi qisqa ma'lumotlarni bayon qiladi: **G'oya – kishidagi biror ish-harakat qilish, muayyan maqsadga erishish haqidagi fikr bo'lib, muayyan niyat va maslakni anglatadi, ularni ifodalaydi, dunyoqarashning muhim tamoyili sifatida insonni biror maqsadga yo'naltiradi.** Albatta g'oya dastlab biror-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Bu bunyodkorlik g'oyasi bo'lishi ham yoki buzg'unchilik g'oyasi bo'lishi ham mumkin.

Diyorimizdan chiqqan Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Bahouddin Naqshband, Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar bunyodkorlik g'oyalari bilan yashab ijod qilganlar. Ongi yovuzlik, bosqinchilik g'oyalari bilan sug'orilgan Makedoniyalik Aleksandr yoki keyinroq Chingizxon boshliq istilochilar Mavarounnahr xalqlari boshiga ko'plab kulfatlar solgan. O'zlarining istibdod g'oyalarini xalqimizga singdirishni, uni mutelikda

hayot kechirishini maqsad qilib olgan chor hukumati, keyinroq esa sho‘rolar tuzumi ana shunday g‘oyalalar asosiga qurilgan. Bu tuzum tomonidan turli tazyiqlarga duchor bo‘lgan Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Qodiriylarning bunyodkorlik xususiyatiga ega bo‘lgan vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalari barq urib turadi.

Toki xalqimizda, ayniqsa yoshlarimizda dunyo taraqqiyotiga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, hayotimizda ilg‘or g‘oyalalar tug‘ilaveradi. Bizning oldimizda turgan asosiy vazifa o‘quvchilarda bunyodkorlik g‘oyasini shakllantirishdir.

**Davruga savol:** G‘oya tushunchasining ta’rifini aytib bering.

1-o‘quvchi: O‘zi yod olgan ta’rifni aytadi.

2-o‘quvchi: O‘zi yod olgan ta’rifni aytadi.

**Davruga savol:** G‘oyaning quyidagi jihatlarini qanday tushunasiz?

1. G‘oya ijtimoiy fikrdir.

2. G‘oya muayyan shaklda namoyon bo‘ladi.

3. G‘oya biron-bir maqsadni ifodalaydi.

4. G‘oya amaliy harakatga undaydi.

5. G‘oya biron-bir maqsadga yetaklaydi.

6. G‘oya muayyan mafkuraning asosidir.

Ushbu fikrlarning har biri to‘g‘risida eng kamida 2 tadan o‘quvchining fikri so‘raladi. Ularning har birini 3–4 ta o‘quvchi ishtirokida muhokama ham qilish mumkin.

**Davruga savol:**

1. Tarixdan ma'lumki, buyuk bobolarimiz o‘zga ellarda ko‘p yillar yashaganlar, shon-shuhratga ega bo‘lganlar. Masalan, Imam Buxoriy, Ahmad Farg‘oniylar o‘zga yurtlarda yashaganida ularga qanday g‘oyalalar madad berib turgan, deb o‘laysiz?

**Javob:** Insonlarga bo‘lgan mehr, o‘z ishiga sadoqati va ona Vataniga bo‘lgan muhabbatiga asoslangan g‘oyalardir. Ular qayerda yashamasinlar, ma’naviy komillik, ilm-fan rivoji g‘oyalariiga xizmat qildilar, o‘zgalarga saboq bo‘ladigan umr kechirdilar.

2. A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanida qanday g‘oyalalar ilgari surilgan?

**Javob:** A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanining asosiy mazmunini ezgulik, yurt-millat erkinligi, inson kamoloti kabi g‘oyalarga oid fikrlar tashkil qiladi. Bu milliy ruh Otobek, Kumushbibi, Yusufbek hoji va boshqalar timsolida yaqqol ko‘rinadi. Bu timsollar orqali yozuvchi o‘z xalqining boy madaniy merosini, yuksak ma’naviyatini namoyon qiladi.

**O‘qituvchi maskura to‘g‘risida qisqa ma’lumot beradi:** Maskura arabcha – fikrlamoq, fikr bildirmoq ma’nosini anglatadi. U falsafiy tushuncha bo‘lib, ma’lum maqsadga qaratilgan, inson aql-zakovatini ifoda etuvchi g‘oyalari va qarashlar asosida shakllanadigan va ularni amalga oshirish yo‘llari, usul va vositalari tizimini ifodalarydi. U siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, badiiy, estetik va boshqa qarashlar majmuyidir. Uning asosini milliy qadriyatlar, ma’naviyat asoslari tashkil etadi va u insonlarni tabiatga, jamiyatga bo‘lgan qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

### **Mafkuraning quyidagi funksiyalari juda muhim:**

1. Bilish.
2. Baholash.
3. Prognozlash.

### **Davraga savollar beriladi:**

1. Kim mafkuraga oid **bilish** funksiyasiga o‘z munosabatini bildiradi?

**Javob:** Odam olamni, hodisalarni, har bir jarayonni o‘zining ongi, hayotiy tajribasi orqali bilib olishga harakat qiladi. Muayyan g‘oyalari ham bilish jarayonida tug‘iladi. Ular asosida mafkura shakllanadi.

2. Siz mafkuraning **baholash** funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

**Javob:** Inson ongi qanday g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lsa, u shunday baholaydi, baho orqali inson biron-bir voqeа yoki hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. Mafkurada ana shunday baholash aks etadi.

Unda muayyan jarayon va hodisalarga munosabat biron-bir tarzda namoyon bo‘ladi.

3. Mafkuraga xos **prognozlash** funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

**Javob:** Umuman prognozlash – oldindan biror narsani bilish, kishini shu masaladagi o‘y-fikrlarini bayon qilishini anglatadi. Mafkuraviy prognoz orqali biror-bir g‘oyaning qanday maqsadlarga yetaklashi, qanday natijalarga olib kelishi asosli dalillarga tayanib tushuntirilishi, bu borada shu g‘oyaga ergashganlarni nimalar kutayotganini aniqlashi mumkin.

Har qanday g‘oyaning amalga oshishi ana shu funksiyalarning oqilonasi qo‘yilishi bilan belgilanadi.

Milliy istiqlol g‘oyasini quyidagi 3 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholashga harakat qilaylik:

1. Mustaqillik.
2. Milliylik.
3. Taraqqiyot.

**Davruga murojaat qilinadi:**

1. Mustaqillik tushunchasini izohlab bersangiz.

**Javob:** Men mustaqillik deganda eng avvalo mamlakatimiz ozodligi, xalqimizning erkin yashashi, milliy davlatchiligidimizning qayta tiklanishini tushunaman. Biz shunday mustaqillikka erishdik.

2. Milliylik tushunchasiga kim o‘z munosabatini bildiradi?

**Javob:** Milliylik deganda men biron-bir xalqqa mansub kishining har qanday sharoitda ham o‘z millatini, ona tilini, urf-odatini, qadriyatlarini, Vatanini o‘ylab ish ko‘rishini, el-yurtning kelajagi uchun qayg‘urishini tushunaman.

3. Taraqqiyotimizni qanday tushunasiz?

**Javob:** Mamlakatimizda ozod va obod Vatan barpo etish, o‘zbek modelini amalga oshirish bizning taraqqiyotimiz maqsadi, deb bilaman. Bu boradagi xayrli ishlar tufayli bobokalonlarimiz ruhlari shod etilmoqda. Biz yoshlarga o‘sish, ishlash, yashashda katta imkoniyatlar yaratib berilgan yurtda yashayotganligimizdan faxrlanamiz.

**Davruga murojaat:** Kim qo‘srimcha qiladi?

**O‘quvchi:** Men qo‘srimcha qilmoqchiman. Men o‘zim olayotgan bilimlarimni ezgu g‘oyalar uchun sarflashga, ularni ona Vatanimni yot unsurlardan himoya qilishda qo‘llashga doim tayyorman. Barcha tengdoshlarimni ham ana shunga da‘vat qilaman.

Davrada munozara uchun, g‘oya, mafkura tushunchalariga, milliy istiqlol g‘oyasiga oid boshqa, rang-barang va xilma-xil fikr-mulohazalarini bildirish uchun zarur muhit yaratiladi.

## G‘OYA VA MAFKURANING TARIXIY SHAKLLARI

**Darsning maqsadi:** O‘quvchilarini g‘oya va mafkuralarning tarixiy shakllari to‘g‘risida mustaqil fikrashga va o‘z mulohazalarini qat’iyatlari ifodalashga, shu orqali esa milliy g‘oyamizning maqsad-mohiyatini to‘g‘ri anglashga o‘rgatish.

**Darsning shakli:** Guruhlar taqdimoti (prezentatsiyasi).

**Darsga oid jihozlar:** Markerlar, flamaster, plakatlar, kerakli adabiyotlar.

**Izoh:** Marker va plakat bo‘lmagan holda sinf taxtasi hamda bo‘rdan foydalanish mumkin.

- Darsning tuzilishi:** — Tashkiliy daqiqa,
- Yangi mavzu bo'yicha guruuhda ishlash,
  - Guruuhlar taqdimoti,
  - Guruh ishining yakuni,
  - Darsga yakun yasash va uy ishi.

Noan'anaviy amaliy mashg'ulot bo'lganligi uchun dars haqida qisqacha ma'lumot:

- Bu dars maqsadini o'qituvchi oldindan (oldingi darsda) o'quvchilarga tushuntiradi.
- Maqsad: o'quvchilarining ijodiy izlanishi va o'z mustaqil fikrlarini bildirishi uchun imkoniyat yaratish.
- O'qituvchi shu maqsadda o'quvchilarining bilimlarini, qobiliyatlarini hisobga olib, guruhlarga bo'ladi.

**Davraga murojaat:** Kim qo'shimcha qiladi?

- Har bir guruh qaysi mavzuni keng yoritib berishi va uni taqdim etishi (prezentatsiya) nega kerakligi tushuntiriladi.
- Mavzu taqdimoti plakatga chizilishi yoki sinf taxtasiga (doskaga) yozilishi kerak.
- Guruhdagi 5–6 o'quvchining hammasi o'z fikrini bildirishi kerak.
- Har bir guruh o'z chizmasini sinf doskasiga ilib qo'yishi kerak.
- Boshqa guruhdagilar savol berish huquqiga ega.
- O'qituvchi dars so'ngida guruuhlar ishiga yakun yasaydi va uy ishini topshiradi.

**Diqqat!** Ahamiyat bergen bo'lsangiz, birinchidan, darsda faqat o'quvchilar faol ishtirot etadi. Ikkinchidan, har bir guruh mustaqil fikrga ega bo'lib, o'z fikrini bayon qiladi va uni asoslashga harakat qiladi. Uchinchidan, dars jonli muloqot tarzida olib boriladi. To'rtinchidan, dars ko'rgazmalilik asosida tashkil qilinib, o'quvchilar o'zi ishlagan qurol (4 ta chizma)dan foydalanadi.

O'qituvchi darsni boshqarib boradi.

Guruuhlar va ularga beriladigan topshiriqlar :

**1-guruh:** G'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari.

**2-guruh:** Olamning vujudga kelishi va mavjudlik qonuniyatlarini turlicha talqin qilgan oqimlar.

**3-guruh:** Tarixda bunyodkorlik g'oyalari.

**4-guruh:** Sivilizatsiyalar tarixida vayronkor g'oya va mafkurlar.

**5-guruh:** Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining mazmunini yoritib bering.

**1-guruh taqdimoti:** (Prezentatsiya) (sinf taxtasiga chizma ilinadi).

**1-o‘quvchi:** Biz g‘oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko‘rinishlarini tushunishga va tushuntirishga harakat qildik. Bu mavzuni o‘rganishda Prezidentimiz Islom Karimovning asarlaridan, tarix, adabiyot va boshqa darsliklardan foydalanish katta yordam berdi.

**2-o‘quvchi:** Avvalo, g‘oya va mafkuraning nima ekanligini eslatmoqchimiz.

- G‘oya — inson tafakkuri mahsuli, biron-bir maqsadga qaratilgan fikrdir.

- Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyat ehtiyojlar, manfaatlarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarni amalga oshirish tizimidir.

- Milliy istiqlol g‘oyasi esa — yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda xalqimizni shu ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir.

**3-o‘quvchi:** Insoniyat tarixi turli g‘oyalar va mafkuralarning yig‘indisi shaklida namoyon bo‘ladi. Bu g‘oya va mafkuralar ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma’rifat yoki jaholatga xizmat qilgan.

Ibtidoiy hayot davrida afsona va rivoyatlarga asoslangan totemizm, animizm, fetishizm kabi diniy mafkura shakllari bo‘lgan.

Totemizm — ajdodlar ruhiga sig‘inish.

Animizm — Ruhga sig‘inish.

Fetishizm — fransuzcha — but, talisman ma’nosini bildiradi, jonsiz narsalarga, ularning tabiiy-mo‘jizakor kuchiga ishonish.

**4-o‘quvchi:** Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagи diniy mafkuralar shakllangan. Masalan: hinduizm, konfutsiylik, daosizm, sintoizm.

Konfutsiylik — mil.avv 551–479-yillarda yashagan xitoy mutafakkiri Konfutsiy nomidan olingan. Konfutsiy ta’limoti miloddan avvalgi VI–V asrlarda xitoyliklar orasida keng tarqalgan va asrlar davomida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Konfutsiylikda adolatli tartibni ushlab turish vositasi qonunga emas, balki an‘analarga, axloq-odob me’yorlariga rioya etish deb hisoblangan. Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, odamlarning hammasi tug‘ma xususiyatlarga ko‘ra bir-biriga yaqindir. Tug‘ilgandan keyin hosil bo‘ladigan xususiyatlarga ko‘ra ular bir-birlaridan farq qiladilar.

**5-o‘quvchi:** Prezidentimiz «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga

bergan javoblarida jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun xalqni birlashtiradigan bayroq bo‘lgan mafkurani shakllantirish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida xudoning o‘zi aql-zakovat, iste’dod, kuch-quvvat ato etgan buyuk insonlar mehnat qilganini ko‘ramiz. Konfutsiy, Forobiy, Maxatma Gandhi shular jumlasidan ekanligini ta’kidlaganlar. Mafkurmizning falsafiy asosini milliy tafakkurning mumtoz namunalari bo‘lgan dunyoviy bilimlar va jahon falsafasining durdonalari belgilaydi.

### **2-guruh taqdimoti:**

**1-o‘quvchi:** Olamning vujudga kelishi, mayjudlik qonuniyatları, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarни falsafiy talqin etish natijasida monizm, dualizm, pluralizm, idealizm, materializm singari oqimlar vujudga kelgan. Bularning har biri ma’lum darajada mafkura vazifasini ham bajargan.

**2-o‘quvchi:** Endi har bir oqimning mohiyati nimadan iborat ekanini ko‘rib chiqaylik.

Monizm – yunoncha «yakka» ma’nosini bildiradigan so‘zdan olingan bo‘lib, olamning asosi bitta deya ta’lim beruvchi yo‘nalish.

Dualizm – yunoncha ikki ma’nosini anglatadigan so‘zdan olingan bo‘lib, olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e’tirof etuvchi oqim.

Pluralizm – yunoncha ko‘p, xilma-xillik so‘zidan olingan bo‘lib, olamning asosida ko‘p narsalar yotishi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi.

**3-o‘quvchi:** Idealizm – ruh, g‘oya ma’nosini ifodalaydi. U olam va odamning yaratilishi, borliqning yashashi, rivojlanishi xususiyatlari, borliq hamda yo‘qlik masalalarida ruhiy-ilohiy tamoyillarni ustuvor deb bilish.

Materializm – modda ma’nosini bildiradi va aynan yuqorida masalalarda modda, materiya va uning xossalari ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirishdir.

**4-o‘quvchi:** Yuqorida ko‘rsatilgan oqimlar muayyan tarixiy davrlarda mafkura darajasiga ko‘tarilgan. Ayrimlari zamon o‘tishi bilan o‘z mavqeyini yo‘qotgan.

**5-o‘quvchi:** «Shovinizm» atamasи XIX asr boshlarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig‘inishni boshlab bergan ofitser Shoven nomi bilan bog‘liq. Bunday qarashning tarixi uzoq bo‘lsada, keyinchalik shovinizm muayyan shaxs, millat yoki davlatni boshqalardan ustun qo‘yadigan, uni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidani ifodalaydigan bo‘lib qoldi.

**6-o‘quvchi:** Xullas, inson va jamiyat bor ekan, ezgu g‘oyalarga zid bo‘lgan zulm va zo‘ravonlik, qabohat, jaholat ham yangi-yangi shakkarda namoyon bo‘laverishi mumkin. Lekin ular odamzodningadolat, tinchlik, birodarlik, taraqqiyot, farovonlik, ezgu maqsadlarsari intilishini aslo to‘xtata olmaydi.

**3-guruh taqdimoti:**

**1-o‘quvchi:** Tarixda bunyodkorlik g‘oyalari. Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch—bunyodkorlik va buzg‘unchilik g‘oyalari hamisha o‘zaro kurashadi. Bunyodkor g‘oyalari insonni ulug‘laydi, uning ruhiga qanot bag‘ishlaydi. Prezidentimiz afsus bilan ta‘kidlaganlari kabi, tarix tajribasidan ma’lumki, inson tabiatida insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq.

**2-o‘quvchi:** Men avvalo bunyodkorlik g‘oyalari haqida gapirmoqchiman. Agar tariximizga nazar tashlasak, bunyodkor g‘oyalari juda ko‘p. To‘maris, Shiroq kabi afsonalarda— umumiyl g‘oya, inson uchun jordan aziz hisoblangan muqaddas dargoh — Vatanning mustaqilligi uchun ajnabi yushmanlarga qarshi murosasiz kurashish — oliy insoniy burch ekanligi kuylangan. «Avesto»da g‘arazgo‘ylik, hasad, fitna-fasod qoralangan, insonlarni ezgu g‘oyalari yo‘lida mehnat qilishga, o‘z qo‘llari bilan moddiy boyliklarni yaratib, to‘q, farovon hayot kechirishga da‘vat etilgan. «O‘rxun-Enasoy yodgorliklari»da el-yurtga muhabbat, bosqinchilarga qarshi nafrat o‘z ifodasini topgan. Bular bunyodkorlik g‘oyalardir.

**3-o‘quvchi:** Sohibqiron Amir Temuring parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat tuzish, mamlakatni obodonlashtirish bilan bog‘liq faoliyati ham bunyodkorlik g‘oyalariga misol bo‘la oladi.

**4-o‘quvchi:** Afsuski, buzg‘unchi g‘oyalari ham mavjud. Bu g‘oyalari xalqlar boshiga so‘ngsiz kulfatlar keltiradi. O‘rta asrlardagi salb yurishlari, diniy fanatizm, fashizm, bolshevizm, va nihoyat, diniy ekstremizm, vahhobiylilik kabilari g‘ayriinsoniy g‘oyalardir.

**5-o‘quvchi:** Qanchadan qancha buyuk insonlar bu yovuz g‘oyalarning qurboni bo‘ldi. O‘rta asrlarda G‘arbda Galilei, Kopernik, Jordano Bruno, Sharqda esa Nasimi, Mashrab, Nodira kabi hur fikrli zotlar qatl etildi. XX asrning turli yillarda ko‘plab ziyyolilar, keyinroq, 1999-yil 16-fevralda Toshkentda terrorchilik tufayli begunoh odamlar shahid ketdi. Ular yovuz g‘oyalari bilan

qurollangan aqidaparastlar, ekstremist qotillarning qurboni bo'ldi.

**6-o'quvchi:** Bizda o'z milliy qadriyatlarimiz, ming yillik an'analarimizga, urf-odatlarimizga zid bo'lgan soxta kommunistik mafkuradan voz kechildi. Lekin mafkura dunyosida bo'shilqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, mutlaqo yot g'oyalalar o'rin egallahga urinishi shubhasiz. Biz esa mustaqilligimizga xizmat qiladigan bunyodkorlik g'oyalariiga asoslangan o'z fikrimiz, o'z yo'limiz va o'z mafkuramizga ega bo'lishimiz, shu yo'lda tarbiyalanishimiz va faol xizmat qilishimiz kerak.

#### **4-guruh taqdimoti:**

**1-o'quvchi:** Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yilda «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblarida: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», — degan edilar. Insoniyat yangi asr boshida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Biz buni sezib yashayapmiz. Bunday sharoitda o'zimizni ezgu g'oyalalar ruhida tarbiyalashimiz lozim.

**2-o'quvchi:** Hozirgi vaqtida dunyoda turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Bu kurashdan ko'zlangan asosiy maqsad — inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallah, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Biz bu intilishlarni ham sezib turibmiz. Ularning yovuz maqsadlariga qarshi kurashamiz.

**3-o'quvchi:** Hozir jahoning olis bir burchagida qandaydir voqeа sodir bo'lsa, zum o'tmay butun dunyoga ma'lum bo'ladi. Bizdan uzoq mintaqalarda ro'y berayotgan yaxshi va yomon ishlar, ularning ta'siri ham yashin tezligida yetib keladi. Hattoki biror multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsad ifodalananadi. Demak, bugungi kunda turli yot g'oyalarni tarqatish yo'llari ko'p. Biz ana shunday paytda sezgir va ogoh bo'lishimiz lozim. Ularning ta'siriga berilmasligimiz kerak.

**4-o'quvchi:** Prezidentimiz g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish mumkin deganlar. Biz buni yaxshilab tushunib olishimiz kerak.

Esda tutaylik!

#### **O'quvchilar takrorlashadi:**

1. Milliy g'oya — millatni birlashtiruvchi bayroqdir.

2. G‘oya va mafkurasiz odam, jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotadi.
  3. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan xavfli bo‘lib bormoqda.
  4. G‘oya – o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prikdir.
- O‘qituvchi darsni yakunlaydi. Har bir guruh va o‘quvchini baholaydi. Maslahatlar va vazifalar beradi.

## HOZIRGI ZAMONDA INSON QALBI VA ONGI UCHUN KURASH.

### TARAQQIYOT VA HOZIRGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI

**Darsning maqsadi:** Inson ongi va qalbi uchun juda kuchli mafkuraviy ta’sirlar, urinishlar mavjudligi, zararli g‘oyalarning mohiyatini, ularga qarshi kurash zarurligini yoshlarmiz ongiga singdirish, irodasini baquvvat qilish, iymon-e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

**Darsga oid jihozlar:**

1. Dunyo xaritasi.
2. O‘zbekiston xaritasi.
3. Lug‘at (tushunchalarning izohlari).
4. Plakat va markerlar.

**Darsning tuzilishi:**

1. Tashkiliy daqiqa.
2. Topshiriqlarni bajarish vaqtisi.
3. Savol-javoblar.
4. Bahs-munozara.
5. Yakunlash.

**Izoh:** Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda o‘qituvchi oldindan sinf o‘quvchilariga topshiriq va vazifalar beradi. Kerakli adabiyotlardan qanday foydalanishni tushuntiradi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrashga va amaliy mashg‘ulotlarning sermazmun o‘tishiga yordam beradi.

**Amaliy mashg‘ulot usuli: Bahs-munozara.**

Sinf o‘quvchilari doira shaklidagi stol atrofiga o‘tiradi va ikki guruhga bo‘linadi. Bo‘linish ixtiyoriy bo‘lib, ko‘k va yashil rangli qog‘ozlar tanlanadi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan rangli qog‘ozni ko‘ksiga taqib qo‘yadi.

Yashil ranglar – savol berish huquqiga ega.

Ko‘k ranglar – javob beradi.

(Agar ko‘k ranglilar javob bera olmasa, savol berganlarning o‘zi javob berish huquqiga ega).

Davra markazida boshlovchi (eng iqtidorli o‘quvchi) bo‘ladi va u avvalo quyidagi savol bilan har ikki guruhga murojaat etadi:

**Savol:** Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini qanday tasavvur qilasiz?

**1-guruh javobi:** Hozirgi davr – dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari qurol-yarog‘ poligonlaridan ham kuchli bo‘lgan bir davrdir.

**2-guruh javobi:** Hozirgi vaqtida mavjud bo‘lgan va turli xil mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sirini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar jahonning mafkuraviy manzarasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Masalan: tajovuzkor millatchilik, terrorizm, irqchilik, diniy ekstremizm, shovinizm va hokazolar bugungi kunda jahonning mafkuraviy manzarasida o‘zining salbiy ta’siri bilan ko‘zga tashlanib turibdi.

**Boshlovchi:** Javoblarizingiz uchun rahmat.

Haqiqatan ham dunyoning mafkuraviy manzarasi juda tez o‘zgarib bormoqda. Unda turli kuchlar bor. Ularning maqsadini bilish uchun hozir guruqlar bir-birlariga savollar berishi kerak. Marhamat, yashil ranglilar, savol berish navbatni sizlarga.

**Savol:** Bugun ba’zi bir tushunchalarni kengroq o‘rgansak, mavzuimizni o‘zlashtirish osonroq bo‘ladi. Mening savolim quyidagicha: «Buyuk davlatchilik shovinizmi deganda nimani tushunasiz?»

**Javob:** Shovinizm, aslini olganda, XIX asr boshlarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig‘inishni boshlab bergen uning ofitseri Shoven nomidan kelib chiqqan so‘zdir. Shaxsga sig‘inish, bir millatni boshqasidan ustun qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari ham bo‘lgan. Ya’ni kuchli davlatlar tarixida o‘zini boshqalardan ustun qo‘yadigan, uni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidalar ko‘p bo‘lgan. O‘zimizning tariximizda esa, XIX asrda Rossiyaning yurtimizni bosib olganidan keyingi siyosatini hech ikkilanmasdan buyuk davlatchilik shovinizmi edi, desak xato bo‘lmaydi.

**Boshlovchi:** Javobingiz uchun rahmat. Endi navbatdagi savolimiz. «Keyingi vaqlarda tez-tez ishlatilayotgan diniy ekstremizm qanday g‘oyalarni ilgari suradi?»

**Javob:** Umuman ekstremizm bu tajovuzkor, yovuz g'oyalar hamda ularga asoslangan ayirmachilik harakatidir. Bunday mafkuralar bugungi kunda butun dunyo hamda mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi. Ularga diniy omil qo'shilayotgani ahvolni juda murakkablashtirmoqda.

**Boshlovchi:** Javobingiz uchun rahmat. Yana bir savol: «Xalifalikni tiklash singari zararli g'oyalarga munosabatingiz qanday?»

**Javob:** Xalifalik tarixda qolib ketgan. Uni tiklash xomxayoldan boshqa narsa emas.

**Savol:** Rahmat. «Mafkuraviy jarayonlarning globallashib borishi» deganda nimani tushunasiz?

**1-o'quvchining javobi:** Bugungi kunda dunyoda axborot tarqatish kuchaydi, universal texnologiyalar paydo bo'ldi. Ularning butun yer yuzini qamrab olish jarayoni globallashuv deyiladi. Internet tizimi orqali axborot almashuv ham tezlashyapti. Bu esa g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'lамини kengaytirmoqda. Biror-bir mamlakatda paydo bo'lgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatiga xizmat qiladigan, turli mafkuraviy markazlarning doimiy bosimi ostida yashamoqda.

**2-o'quvchining javobi:** Bugungi kunda komputer, faks, «uyалиқ» telefon, parabolik antenna, elektron pochtalarga о'рганиб qola boshladik. Hozir bu mo'jizalardan foydalinish biror o'quvchini hayratga solmaydi. Ulardan to'g'ri foydalana bilish ehtiyoji ham ma'naviyat sohasining ahamiyatini yanada kuchaytirishni talab qiladi.

**Savol:** Mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nimalar qilish kerak?

**Javob:** Avvalambor o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar bo'lib tarbiyalanish kerak. Bundan tashqari, mafkuraviy immunitetimizni kuchaytirishimiz kerak. Dunyonи chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishish davr talabi bo'lib qoldi.

**Boshlovchi:** Mana bugungi bahs-munozarali amaliy mashg'ulotimiz ham nihoyasiga yetdi. Endi munozaramizda ko'p ishlatalilgan ayrim asosiy so'zlarning ma'nolarini yana bir marta takrorlaymiz. Boshlovchi qog'ozga yozilgan yangi so'zlarni sinf taxtasiga iladi va takrorlaydi.

1. Dunyoning mafkuraviy manzarasi.

2. Shovinizm.
3. Ekstremizm.
4. Aqidaparastlik.

**Izoh: 1-variant:** Agar so‘zlarni yozib, ilib qo‘yishning imkoniyati bo‘lmasa, oldindan taxtaga bo‘r bilan yoziladi va bekitib qo‘yiladi. Dars oxirida taxta ochiladi va so‘zlarning mazmun-mohiyati takroran tushuntiriladi.

**2-variant:** Texnik vosita, kodoskop yoki multimediyasi bor maktablarda so‘zlar va atamalar ana shulardan foydalanib tushuntirilsa, dars yanada jozibali, qiziqarli o‘tadi.

## **MARKAZIY OSIYO: GEOSIYOSAT VA MAFKURAVIY JARAYONLAR**

**Darsning maqsadi:** Markaziy Osiyoda ro‘y berayotgan mafkuraviy jarayonlar haqida mustaqil fikrlash, erkin tafakkurni shakllantirish asosida yovuz g‘oyalarga qarshi javob bera olish, «O‘zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish.

**Darsga oid jihozlar:** Markerlar, plakatlar, xarita.

**Darsning tuzilishi:** Tashkiliy daqiqa, guruhlarga bo‘lish, muhokama, guruhlar taqdimoti, dars yakuni.

Sinf o‘quvchilari 4 guruhgaga bo‘linadi. Har bir guruh qaysi mavzuni yoritib berish kerakligini aniqlash uchun savollar yozilgan qog‘ozlar teskari qo‘yiladi. Guruhlar bittadan savol yozilgan varaqlarni olishadi.

Har bir guruh o‘z o‘rnini egallagach, muhokama boshlanadi.

**1-guruh taqdimoti:** (Izoh: har bir guruh o‘z taqdimotini plakatga chizilgan sxemalari orqali tushuntiradi.)

**1-o‘quvchi:** Har bir davlat o‘z mavqeyi va ta’sirini o‘zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga harakat qiladi. Geopolitik maqsadlar ana shunday siyosatni ifodalaydi. Mafkuraviy poligon tushunchasini anglashda biz quyidagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ochib berishga harakat qildik: Mafkura – arabcha so‘z bo‘lib, fikr, nuqtayi nazar va e’tiqodlar tizimini ifodalaydi. Poligon – lotincha so‘z bo‘lib, maydon demakdir. Mafkuraviy poligon – ya’ni g‘oyani amalgaloshiradigan tajriba maydoni ma’nosini bildiradi.

**Guruhlarga berilgan savollar:**

1. Geosiyosat va mafkuraviy poligon tushunchalarini izohlab bering. Mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy immunitet nima?

2. Narkobiznes, jinoyatchilik, terrorizm, ekologik tanglik kabilar haqida nimalarni bilasiz?

3. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun O'zbekiston qanday siyosat olib bormoqda?

4. Markaziy Osiyoda yot va begona g'oyalarga qarshi kurash zarurligini qanday tushunasiz?

**1-o'quvchi:** Mafkuraviy ta'sir – bu geosiyosatning siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar orqali o'z maqsadiga erishuvidanasi asosiy quroli bo'lib qoldi. Dunyodagi kuchli va iqtisodiy baquvvat davlatlar boshqa hudud va davlatlarga nisbatan ana shu usulni ham qo'llashmoqda.

**2-o'quvchi:** Geosiyosat – grekcha so'z bo'lib, geo – yer, mamlakat degan ma'noni bildiradi. Bu keng qamrovli so'z bo'lib, u yoki bu mamlakatning siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy va jug'rofij imkoniyatlarini hisobga olgan holda yuritiladigan siyosat deganidir. Bugungi kunda o'z g'arazli maqsadlariga yetishni ko'zlayotgan turli kuchlar geosiyosatning eng ta'sirli vositasи sifatida mafkuraviy quroldan keng foydalanmoqda.

**3-o'quvchi:** Mafkuraviy vaziyat – dunyo, Markaziy Osiyo va O'zbekistonda ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlar va ularning holatini ifodalaydi.

Mafkuraviy immunitet esa mamlakat aholisida har xil begona va zararli mafkuralarga qarshilik ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qilishdir.

### **2-guruh taqdimoti:**

**1-o'quvchi:** Mafkuraviy kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolari quyidagilar bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda:

- a) Buyuk davlatchilik g'oyasi.
- b) Buyuk millatchilik shovinizmi.
- d) Diniy aqidaparastlik.
- e) Narkobiznes.
- f) Jinoyatchilik.
- g) Terrorizm.
- h) Ekologik tanglik.

**2-o'quvchi:** Narkobiznes–narkotik moddalarning xufyona sotilishi va targatilishi. XX asrning ikkinchi yarmida narkobiznes, narkomaniya moddalari bilan savdo qilish biznesning eng ko'p foya keltiradigan usuliga aylandi. U ayni vaqtda, jahondagi millionlab kishilarni, ayniqsa, yoshlarni jismonan va ruhan safdan chiqara boshladi.

Narkotik va narkobiznesga qarshi kurashda O'zbekiston alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahonda narkotik o'simliklar o'stiradigan asosiy hududlardan biri bo'lgan Janubiy, Sharqiy Osiyo bilan, narkotik moddalarni iste'mol qiluvchi asosiy mintaqqa Yevropa o'rtasida joylashgan. Shu sababli, narkobizneschilar bu yo'lni eng yaqin yo'l deb qaraydilar va u orqali narkotik moddalarni olib o'tishga harakat qiladilar.

**3-o'quvchi:** Bu masalada O'zbekiston narkobizneschilarga qarshi baquvvat to'siq yuzaga keltirmoqda. 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov jahon jamoatchiligiga murojaat qilib, narkomaniya va narkobiznesga qarshi kurashda yanada faol bo'lish, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishga chaqirdi. O'zbekistonda narkobiznesga qarshi kurash choralarini mamlakat jinoyat kodeksining 270–274-moddalarida ko'rsatilgan va u aybdorlarni shafqatsiz jazolashga qaratilgan.

**3-guruh taqdimoti:** Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, uni amalga oshirishda O'zbekistonning ishtiroti. Bu guruh o'z plakatini doskaga iladi. O'quvchilar uni sharhlaydilar.

**4-guruh taqdimoti:** Markaziy Osiyoda yet va begona g'oyalar va ularga qarshi kurash zarurati.

**1-o'quvchi:** Markaziy Osiyodagi begona, yet g'oyalar asosan quyidagilardir:

- Diniy ekstremizm
- Terrorizm
- Noqonuniy qurol-yarog' sotish
- Uyushgan jinoyatchilik
- Narkobiznes
- Ekologik tanglik

Ana shu g'oyalar bilan qurollangan kuchlarning mustaqil O'zbekiston hududiga kirishga harakat qilayotgani bugungi kunda sir emas. Prezidentimiz 1997-yildayoq, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida bu zargarli oqimlarning mamlakatimiz va mintaqamiz uchun naqadar xavfli ekanini ko'rsatib bergen edilar.

**2-o'quvchi:** Bu asarda Afg'oniston va Tojikiston respublikalaridagi ahvol tahlil qilinib, mintaqada xavfsizlik va barqarorlik o'matish masalalari hamda bevosita O'zbekistonga xavf solayotgan tahdidlar ko'rsatilgan edi.

Markaziy Osiyodagi atrof-muhitning ifloslanganligi, nosog'lom ekologik vaziyat, ekologik tanglik insonlar boshiga xavf solib turibdi. Korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, terrorchilik, giyohvandlik bugun butun dunyoni tashvishlantirmoqda.

**3-o'quvchi:** Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston faol ishtirot etmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha Shanxay Hamkorlik tashkiloti Markazining Toshkentda ochilishi;

- Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish prinsiplari haqidagi Toshkent Deklaratsiyasi;

- narkotik moddalar va uyushgan jinoyatchilikka, terrorchilikka qarshi kurashda umumiy yondoshuv mavzusida Toshkent anjumani.

**4-o'quvchi:** Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi vazifalar quyidagilardan iborat:

- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash;

- Iqtisodiy hamkorlik miqyoslarini kengaytirish;

- Jamoatchilikning hushyorligini oshirish;

- Terrorchilikka qarshi kurashda yagona Markaz tashkil etish;

- Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli bo'lgan hududni yaratish;

- Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik va do'st-birodarlik jarayonlarini kuchaytirish va boshqalar.

**5-o'quvchi:** O'zbekistonning mustaqil taraqqiyotini asrab-avaylashimiz lozim. Erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch-e'tiqodni mustahkamlash yo'lida xavf-xatarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo'lib yashashimiz va birgalikda kurash olib borishimiz zarur. Men barcha tengdoshlarimni ana shunga chaqiraman.

O'qituvchi darsni yakunlaydi, faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi va mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar beradi.

## BIZ QANDAY JAMIYAT BARPO ETMOQDAMIZ?

### Reja:

1. Istiqlol va taraqqiyotning g'oyaviy tamoyillari.

2. Yangilanish va rivojlanishning ma'naviy-g'oyaviy yo'naliishlari.

**Darsning turi:** Davra suhbati.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarda mustaqillikni, barpo etilayotgan

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy asoslarini mustahkamlash va erkin demokratik fuqarolik jamiyatini bunyod etishda milliy istiqlol g'oyasining ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

XX asr oxirida dunyoda misli ko'rilmagan hodisalar yuz berdi. Tazyiqqa asoslangan sobiq totalitar tuzum va kommunistik mafkura tanazzulga uchradi, mustaqil davlatlar shakllandi. O'zbekiston ham mustaqillikka erishib, o'z yo'lini belgilab oldi.

O'qituvchi quyidagilar to'g'risida axborot beradi va dars boshida uning maqsadini tushuntirib beradi.

Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros bo'lib qolgan. Bu g'oya ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov: «O'zbek millati azaldan o'z fikrzikri, o'z istiqlol uchun kurashib yashagan, bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan sahifalarni qunt bilan o'rganish hammamiz uchun ham qarz, ham farz» deganda ana shuni nazarda tutadi. Xalqimizning uzoq tarixi o'tmishda ozodlik va istiqlol uchun tinimsiz kurash olib borganligidan guvohlik beradi.

Sobiq sovet hokimiysi yillarda ham O'zbekiston markazga tobelligiga qarshi, milliy mustaqillikka erishish uchun, tarixiy vaziyatga qarab goh oshkora, goh pinhona kurash olib borgan. Xalqimiz azal-azaldan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intilgan.

**Savol:** Istiqlol tushunchasini siz qanday tushunasiz?

**Javob:** Mustaqillik – xalqning ozodligi, milliy davlatning tiklanishidir, u tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo'lmagan joyda kim-kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Biz so'nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik davrida shunday bo'lgan edi.

Mustaqillik – davlatlarning bir-birini tan olish, bir-birini qadrlashi asosida, butun dunyo xalqlarining umuminsoniy qadriyatlarga tayanib umumiy mezonlar asosida yashashi demakdir.

Mustaqillik – dunyo jamiyatidan ajralmagan holda olam muammolar va o'z xalqi taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir. Shu yo'lda kurashish, ogoh va faol bo'lishdir. Shunda odam dunyoning shiddatli muammolar bo'roni qarshisida dovdirab qolmaydi. Ana shu oddiy hayotiy haqiqatlar faqat istiqlol sharoitida ro'yobga chiqadi.

## *Mustaqillik kafolatlari quyidagilar:*

Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy kafolatlar.

**O'qituvchi:** Kim bu kafolatlarning mazmun-mohiyatini ohib beradi? Ularga misol keltira olasizmi?

**Javob:** Mustaqillik – tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezoni. Ayni paytda u harakatlar, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishi va ro'yobga chiqishini taqozo etadi.

Istiqlol iztiroblar, istibdod iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umidlariga qanot, dardlariga malham bo'lib keldi. Mustaqillikning ma'naviy, ijtimoiy mazmuni, uning beqiyos ahamiyati bor.

Mustaqillik mafkurasi butun O'zbekiston xalqining g'ururiftixorini, kerak bo'lsa qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' ma'naviy kuchdir. Uning mohiyati va bosh maqsadi – O'zbekiston mustaqilligi uchun xizmat qilish, uning siyosiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va boshqa jahbalarida bu g'oyani amalga oshirish ishiga keng xalq ommasini safarbar etishda yaqqol ko'rindi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat yoshlарini barkamol avlod qilib tarbiyalash, ularni mustaqillikning ongli fidoyi kishisiga aylantirishdir.

**Savol:** Milliy istiqlol g'oyasining mustaqillik uchun ahamiyatini yana qanday tushunasiz?

**Javob:** Milliy istiqlol g'oyasi kishilarda milliy g'uruning, ongning o'sishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Millatlararo hamkorlik, hamjihatlikni kuchayishiga ko'mak beradi. Kishilarda ona Vatanga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z xalqi va madaniyati, milliy urfatlarini mukammal bilsa, milliy manfaatlarini chuqur anglab yetsa, mustaqillik shunchalik abadiy bo'ladi.

O'qituvchi aniq berilgan javob uchun o'quvchiga minnatdorchiligini bildiradi.

**Savol:** Mustaqillik mafkurasining negizlari haqida yana nimalarni bilasiz?

**Javob:** Mustaqillik mafkurasi zaminida ajdodlarimizning tajribalari, xalqimizning azaliy an'analari, urf-odati, rasm-rusumlari yotadi. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning milliy merosi,

ma’naviyati hamda umuminsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Milliy, umuminsoniy, axloqiy, diniy qadriyatlar mafkuramizning insonparvarlik mohiyatini yanada to‘ldiradi va boyitadi. Ular insonni halol va pokiza, xayr-ehsonli, saxovatli bo‘lishga, yor-birodorlarni qo‘llab-quvvatlashga, mehnatni sevishga, tabiatni e’zozlashga da’vat etadi.

**Savol:** Mustaqillikni mustahkamlash uchun mas’ul bo‘lgan komil inson qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim?

**Javob:**

- |                           |   |
|---------------------------|---|
| Komil inson<br>xislatlari | <ul style="list-style-type: none"><li>→ Ezgu fikr</li><li>→ Ezgu so‘z</li><li>→ Ezgu faoliyat</li><li>→ Yaxshi xulq-atvor</li><li>→ Yuksak ma’naviyat</li></ul> |
|---------------------------|---|

**Savol:** O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash uchun ana shu xislatlarning qaysi birini munosibroq deb hisoblaysiz?

**1. Javob:** Menimcha, har bir kishi ezgu fikrli, yaxshi so‘zlarni ishlatadigan, odobli, yaxshi xulq-atvorli bo‘lishi lozim. Shu xislatlarni o‘zida mujassam etgan har bir yigit va qiz boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi.

**2. Javob:** Menimcha, faqat ana shularning o‘zingga komil inson bo‘lish uchun yetarli emas. Bulardan tashqari har bir kishi faol mehnat qiladigan, agar o‘quvchi yoki talaba bo‘lsa, eng yaxshi baholarga o‘qishi, zamonaviy bilimlarni egallashi uchun faol harakat qiladigan, ota-onalariga yordam beradigan bo‘lishi lozim.

**O‘qituvchi:** «Yana kim javob beradi?» – deb sinfga murojaat qiladi va ikki-uch o‘quvchidan fikr bildirishni so‘raydi.

**Savol:** Yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: «Yangi mafkuraning asl ma’nosini eskicha aqidadan xoli bo‘lgan mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat». Siz bu fikrni qanday tushunasiz?

Bu savolga 2–3 o‘quvchi javob beradi.

Dars oxirida o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini umumlashtiradi, baholaydi, mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi va darsni yakunlaydi.

## TARAQQIYOTNING O'ZBEK MODELI

### Reja:

1. Taraqqiyotning o'zbek modeli.
2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'nalishlari.

**Darsning turi:** Guruhlarga bo'linib bahslashish.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilar ongiga bahs va munozara orqali taraqqiyotning o'zbek modeli O'zbekistonning bozor munosabatlariiga o'tishning besh tamoyiliga asoslanganligi, uning O'zbekiston istiqbolini ta'minlashga xizmat qilishi to'g'risidagi bilimlarni singdirish.

Milliy g'oyaning milliy manfaatlardan kelib chiqishi va uni o'zida ifoda etishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning milliy va umuminsoniy asosga qurilganligini tushuntirish ham ana shunday vazifalardan biridir.

**O'qituvchi:** O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakatidir, deyilganda nima nazarda tutiladi?

**Javob:** Mamlakatimizda tabiiy boyliklar, unumdon yer, qudratl iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi. O'zbekiston – o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, bu – jahonda o'zbek modeli deb tan olingen rivojlanish yo'lidir.

**Savol:** Tub islohotlar bevosita Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov nomi bilan bog'liqligini tushuntiring.

**Javob:** Istiqlolning dastlabki yillardanoq Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariiga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa Yurtboshimiz tomonidan jamiatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan tamoyillari ishlab chiqiladi.

**O'qituvchi:** Bu qaysi tamoyillar, ularning mohiyati nimada?

**Javob: Birinchi tamoyil:** Iqtisodiyotning siyosat va mafkuradan xoli bo'lishi, ya'ni iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak. U biror-bir mafkuraga bo'ysundirilmasligi lozim.

**Ikkinchi tamoyil:** Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishini belgilab berishi, yangilash va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

**Uchinchi tamoyil:** Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi, demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

**To'rtinchi tamoyil:** Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan amaliy choralar ko'riliishi lozim.

**Beshinchi tamoyil:** Bozor iqtisodiyotiga tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi.

**O'qituvchi** (yakuniy fikr): Demak, taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analarini, qadriyatlariga tayangan. Ayni vaqtida u jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga ham asoslangan. Shu tufayli xalqaro jamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Dunyodagi har qanday jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos va o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan g'oyalalar tizimi bo'ladi. Unga ega bo'lmasdan turib birorta ham jamiyat o'z maqsadlariga yeta olmaydi. O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli uchun ana shunday g'oyalalar tizimi suv bilan havodek zarur. Buni hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

**Savol:** Milliy istiqlol g'oyasining asosiy belgilari nimalardan iborat?

**Javob:** Milliy istiqlol g'oyasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning boy ma'naviy merosidan oziqlanadi;

- adolat, haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

- Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi va Xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

- millati, tili va dinidan qat'i nazar mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;
- jamoatchilik qalbi va ongida fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi;
- u jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, fuqarolarimizning o'z muddaolariga erishishi uchun kuch-quvvat beradigan ma'naviy-ruhiy omildir.

**O'qituvchi:** Milliy istiqlol mafkurasi kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'ururning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u millatimizning bo'linib, parchalanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy illatlar — mahalliychilik, guruhbozliklarga qarshi murosasiz kurash olib borishga kishilarni da'vat etadi. Milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikni kuchaytirishga ko'mak beradi.

Dars oxirida o'qituvchi unga yakun yasan ekan, muhokama qilingan masalalar bo'yicha umumiylar xulosalarni bayon qiladi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi, mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi.

## **QO'SHIMCHA AMALIY MASHG'ULOT: ZARARLI G'OYALAR VA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI OGOLLIK VA HUSHYORLIK**

### **Reja:**

1. G'oyaviy bo'shliq nima?
2. G'oyaviy bo'shliqni to'ldirish davr talabi.
3. Mafkuraviy tahidlarning shakllari va turlari, ularning salbiy oqibatlari.

**Darsning turi:** Davra suhbati.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarga millatni mutelik va qaramlik iskanjasida tutishga uringan sobiq sho'ro mustabid mafkurasining inqirozga uchraganligi, milliy manfaatlarimizga zid va begona g'oyalarning jamiyatimizga tahdid solayotganligini, bundan kimlar foydalanmoqchi bo'layotganligini tushuntirish; bu borada ogohlik hamda hushyorlik zarur ekanini yoshlar ongiga singdirish.

O'qituvchi davra suhbatini quyidagi fikrlar va ularni sharhlash bilan boshlaydi: O'zbekiston o'z ozodligini qo'lga kiritgandan so'ng

mohiyatan xalqimizning tabiatiga, dunyoqarashiga yot bo‘lgan kommunistik mafkuraga barham berildi. Ma’lumki, umrini o‘tab bo‘lgan g‘oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtayi nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g‘oya, ilg‘or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj tug‘iladi. Bu ehtiyoj voqelikka aylanganiga qadar biror muddat vaqt o‘tadi, ana shu davrda esa g‘oyaviy vakuum – bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatni oldini olish uchun mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Lekin ijtimoiy ong va tafakkur tezda o‘zgarib, yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi.

Aynan mana shunday sharoitda begona va yot g‘oyalar xalq va jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qilishi mumkin. Ayniqsa, yangi jamiyatga mos g‘oya shakllanmasa, mafkuraviy tahdid kuchayadi, aholi keng qatlamlari, xususan yoshlarning ongini egallashga urinishlar ortib boradi.

Masalan: XX asning 80-yillari oxirlarida mamlakatimizga kirib kelgan «Vahhobiylik», «Hizbut tahrir» kabi zararli oqimlar, turli sektalar dinning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan ozdira boshladи. Ular xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning ko‘ngli ochiq, soddadil, ishonuvchan, andishali, qalbida kattalarga hurmat, diniy qadriyatlarga intilish tuyg‘usi kuchli ekanidan foydalanishga harakat qildi. Shu bilan birga davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada yetarli ish olib bormagani, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolgani ham bunga sabab bo‘ldi.

Mustaqil taraqqiyotga nisbatan tahididlар savol-javoblar orqali yoritiladi. Bunda barcha o‘quvchilar faolligiga e’tibor qaratiladi.

**Savol:** O‘zbekistonda nima uchun ba’zi yot g‘oyalar tarqala boshladи?

**Javob:** Ularning O‘zbekistonda tarqalish sababi Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida atroflicha ta’riflab berilgan. Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi davrida «Islom omili» , «Islom uyg‘onishi», « Islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko‘proq ishlatilar, bu esa diniy omilning faollashuvini o‘zida aks ettirar edi. Buning ustiga bizga chegaradosh bo‘lgan ba’zi mamlakatlarda islom fundamentalizmi va ekstremizmining kuchayishi ham ba’zi

yot va zararli g'oyalarning respublikamizga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

**O'qituvchi:** Yurt tinchligi – Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

**Savol:** Diniy ekstremizm tushunchasi matbuotimizda hozirgi vaqtida tez-tez qo'llanilmoqda. Uning asl ma'nosi nima?

**Javob:** Ekstremizm tushunchasi fransuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, keskin fikrlarning bildirilishi, qattiq tadbirlarning qo'llanilishi yoki keskin fikr va choralarни yoqlovchi degan ma'noni bildiradi. Ekstremistlarni ba'zida jaholatparastlar ham deb atashadi.

Diniy ekstremizm faqat islomga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi boshqa dinlarga ham mansubdir. Islom ekstremizmi tashkiliy jihatdan yagona partiyaga birlashmagan, balki xalq ommasining turli tabaqalari orasida ish ko'ruvchi xilma-xil guruhlardan iborat. Eng faol ekstremistik guruhlardan biri «Musulmon birodarlar» uyushmasidir.

Asosan chet ellarda va Sharq mamlakatlarida faoliyat yurituvchi «Islom ozodlik partiyasi», «Islom sotsializmi» pozitsiyasida turuvchi «Islom demokratlari» kabilar ham bor. Ularning umumiy g'oyasi bitta, ya'ni din niqobida hokimiyatga intilishdir.

**Savol:** «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida ko'rsatilgan va hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'dirayotgan mafkuraviy tahdidlardan qaysilarini bilasiz?

**Javob:** Bunday mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimizni soxtalashtirishga urinishlar;
- axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarning kelib chiqishiga qaratilgan harakatlар.

O'qituvchi quyidagi chizmani ko'rsatadi va undagi har bir g'oyaviy tahnidning mazmun-mohiyati va boshqalari bilan aloqadorligi to'g'risida 3-4 o'quvchidan fikr bildirishini so'raydi:

<i>Yot va begona g‘oyalar, zararli mafkuralar</i>	<ul style="list-style-type: none"> <li>→ <i>Diniy ekstremizm va fundamentalizm</i></li> <li>→ <i>Noqonuniy quroq-aslaha sotishga urinish</i></li> <li>→ <i>Uyushgan jinoyatchilik</i></li> <li>→ <i>Terrorizm</i></li> <li>→ <i>Narkobiznes</i></li> <li>→ <i>Korrupsiya</i></li> </ul>
---	---

Bu chizmadagi javoblar to‘laroq va qiziqarliroq bo‘lishi uchun o‘quvchilarni bir necha guruuhga bo‘lish ham mumkin. Bunda har bir guruuhdan eng faol va to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar ajratib olinishi hamda ular o‘rtasida kichik savol-javob musobaqasini ham o‘tkazish mumkin.

O‘qituvchi dars so‘ngida quyidagi ikki fikrni sharhlashga alohida e’tibor berishi zarur:

1. Jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini o‘zida chuqur aks ettirgan sog‘lom, insonparvar mafkura bilan quollantirish zarur.

2. Har xil buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashga tayyor turish, mafkuraviy tahdidlardan hushyor va ogoh bo‘lish—mustaqillikni himoyalashning muhim shartidir.

O‘qituvchi dars oxirida unga yakun yasan ekan, muhokama qilingan masalalar bo‘yicha umumiy xulosalarni bayon qiladi, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholaydi, mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi. Qo‘srimcha savollarga javob berib, darsni yakunlaydi.

## MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING MOHIYATI VA MAZMUNI

### Reja:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi tushunchasi.
2. Milliy istiqlol g‘oyasining mazmuni.
3. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy xususiyatlari.

**Darsning turi:** Guruhlarga bo‘linib bahslashish.

**Darsning maqsadi:** a) ta‘limiy: O‘quvchilarning ongini bahsmunozara orqali milliy istiqlol g‘oyasi tushunchasining mazmun-mohiyati bilan boyitish; b) tarbiyaviy: G‘oya va mafkura atamalarining mohiyatini ochish orqali o‘quvchilarni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash.

O‘quvchilar 4 guruhda ishtirok etishadi.

O‘qituvchi (dars boshlanishida mavzu to‘g‘risida qisqa so‘zlab beradi):

Milliy istiqlol g‘oyasi inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadi, uni buyuk maqsadlarga, orzu-niyatlarga yetaklaydi. Mafkura esa ana shu g‘oyani amalga oshirish usuli, yo‘li, imkoniyatlari majmuyidir. Shu jihatdan uni muayyan tizimga qiyoslash mumkin. Mafkura – Yurtboshimiz Islom Karimov iborasi bilan aytilganda, xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi bir bayroq. Bu bayroq – bugun O‘zbekiston xalqining ruhini, g‘urur-iftixorini, kerak bo‘lsa qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug‘ kuchdir. Milliy g‘oya demokratik jamiyatni qurishdek oliyjanob ishni amalga oshirishga xizmat qiladi. U respublikamiz ko‘pmillatli xalqining ongi va qalbida «Vatan menga nima berdi» deb emas, balki «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman» degan mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishni asosiy maqsad sifatida ifodalaydi. Ana shu maqsadni qanchalik darajada tez o‘zlashtirib olsak, respublikamizning taraqqiyoti yo‘lidagi dolzarb masalalarining yechimini shu qadar tez topgan bo‘lamiz.

*1-guruh o‘quvchilar 3-guruh o‘quvchilariga murojaat qiladi:*

**Savol:** O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasini yaratish haqidagi fikr kim tomonidan asoslab berilgan?

**Javob:** Bu g‘oyaning muallifi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovdir. Prezidentimiz ta’kidlagani kabi, «mafkarasiz jamiyat uzoq yashay olmaydi. Biz uzoq yillar mobaynida kommunistik mafkura, kommunistik g‘oya tazyiqida yashadik. Mana, mustaqillikka erishdik, o‘zligimizni angladik. Jannatmakon yurtimizning haqiqiy sohibi bo‘ldik. Endigi vazifa xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni begona va yot g‘oyalardan himoyalab har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishimizdan iborat». (Prezidentimizning yana bu to‘g‘ridagi qaysi fikrlarini bilasiz?)

*3-guruh o‘quvchilar 1-guruh o‘quvchilariga murojaat qiladi:*

**Savol:** Prezidentimiz milliy istiqlol mafkarasiga qanday ta’rif berganlar?

**Javob:** Prezidentimiz bu to‘g‘rida: «*Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning shon-u sharafi, or-nomusi, ishonch-*

*e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir», — deya ta'kidlaganlar.*

**O'qituvchi** (2- va 4-guruhg'a murojaat qiladi):

Bu fikr qaysi kitobda aytildi?

**Javob:** Bu fikr «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasining Prezidentimiz tomonidan yozilgan «So'z boshi»sida aytildi.

**O'qituvchi** (butun sinfga): Prezidentimizning Milliy istiqlol g'oyasi mazmun-mohiyati to'g'risidagi yana qanday fikrlarni bilasiz?

1-guruh a'zolarining javobi...

2-guruh a'zolarining javobi...

3-guruh a'zolarining javobi...

4-guruh a'zolarining javobi...

4-guruh 2-guruhg'a savol beradi:

**Savol:** Istiqlol mafkurasi xalqimizning qanday umumiy manfaatlarini ifodalaydi?

**Javob:** Bu manfaatlar quyidagilardir:

- mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar daxlsizligi;
- yurtning tinchligi, jamiyatimizning turli tahdidlardan himoya etilishi;
- mamlakatda fuqarolar va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash;
- har bir oila va butun xalqning farovonligi;
- jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

**O'qituvchi:** Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun qanday talablarga javob berishi zarur?

**Javob:** Bu talablar quyidagilar:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan g'oya, tushuncha va tamoyillarni o'zida mujassam etishi;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbayi bo'lishi;
- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish;
- zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan maqsadlarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi.

*2-guruh o'quvchilar 4-guruh o'quvchilariga quyidagicha savollar bilan murojaat qiladilar:*

**Savol:** O'zbekiston Respublikasida qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin?

**Javob:** Hech qaysi mafkura. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas deb ko'rsatilgan. Respublikamizda ana shunga to'la amal qilinmoqda.

O'qituvchi dars yakunida o'quvchilardan tushgan qo'shimcha savollariga javoblar berib, darsni yakunlaydi.

## **MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING ASOSIY TAMOYILLARI**

**Reja :**

1. Milliy istiqlol mafkurasining milliy va umuminsoniy tamoyillari.
2. Istiqlol mafkurasi oziqlanadigan umumbashariy qadriyatlar.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasi asosiy tamoyillari haqida bilim berish, ularning ongiga milliy g'oyasiz, vatanparvarlik hissiyotisiz, milliy g'urursiz hech bir millatning kelajagi buyuk bo'lmasligi to'g'risidagi xulosani singdirish.

**Darsning turi:** Davra suhbat.

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. O'qituvchi dars boshlanishida quyidagi ikki fikrni sharhlaydi, ularning ma'nomohiyatini misollar bilan tushuntiradi:

1. Mafkoramiz milliy manfaatlar, milliy ma'naviyat asoslari, milliy qadriyatlar tizimini ham o'zida mujassam qilgan. U mustaqillik his-tuyg'usi, uni to'la idrok etish, ko'p millatli O'zbekiston xalqining vatanparvarligi, ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash tuyg'ularini aks ettiradi.

2. Milliy istiqlol mafkurasi – o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan iymon-e'tiqod, insof va diyonat, mehr-oqibat, shafqat, vijdon va andisha, or-nomus, bir-biriga hurmat kabi azaliy axloqiy, ma'naviy qadriyatlar majmuyi hamdir.

Milliylikning negizini quyidagilar tashkil etadi:

1. Milliy g'urur va o'zlikni anglash;

2. Xalqning asosiy ma’naviy fazilatlari;

3. Milliy madaniy merosi;

4. Milliy ong va dunyoqarash.

O‘qituvchi har bir guruhdan 2 kishining ana shu jihatlar to‘g‘risidagi fikrini eshitadi. Keyin bahsga o‘tiladi.

*3-guruh o‘quvchilar 1-guruh o‘quvchilariga quyidagi savol bilan murojaat qiladi:*

**Savol:** Vatanparvarlik so‘zini qanday tushunasiz va bu tuyg‘u qanday namoyon bo‘ladi?

**Javob:** «Vatan» deganda eng avvalo kindik qoni to‘kilgan yer tushuniladi. Vatan bu – insonni o‘rab olgan muhit, u yashaydigan makondir. O‘zbekistonning kelajagi buyukligiga e’tiqod, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarни bilish, yurtimizning buyuk farzandlari, qahramonlari bilan faxrlanish tuyg‘usi ham vatanparvarlikdir. O‘zbekiston ravnaqi uchun jon kuydirish, davlat ramzları, Madhiyani bilish, yurt himoyasiga tayyorlik, fidoyilik, vatanparvarlik tuyg‘usining namoyon bo‘lishidir.

*4-guruh o‘quvchilar 2-guruh o‘quvchilariga savol bilan murojaat qiladi:*

**Savol:** Milliy g‘urur tushunchasini izohlab bering.

**Javob:** Men so‘zimni shoир Abdulla Oripovning quyidagi misralari bilan boshlamoqchiman.

*Martabang unutsang mayliga unut,*

*Maktabing unutsang mayliga unut.*

*Lekin unutsangchi ona tilingni,*

*Zaharga aylansin onang bergen sut.*

Milliy g‘urur bu avvalo millatga mansublikni anglash, o‘z xalqi an‘analariga, qadriyatlariga, madaniyatiga sodiqlikdir. Shu millat farzandi sifatida o‘z burchini anglash, tariximiz, allomalarimizning merosiga egalik, uning qarshisidagi burchni namoyon qila olish, ajodolar o‘gitiga tayanish ham milliy g‘ururni tarbiyalash. Bu yana umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmatsizlikka qarshi kurash demakdir.

**1-guruh o‘quvchilar 3-guruhga:** «Istiqlol mafkurasi xalqimizning qaysi milliy xususiyatlarini zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi?» degan savol bilan murojaat qiladi.

### **3-guruhning javobi:**

- Xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi;
- Jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, Vatan tushunchalarining muqaddasligi;
- Ota-onा, mahalla, qo‘ni-qo‘shni va umuman ko‘pchilikka hurmat-e’tibor;
- O‘z ona tiliga muhabbat;
- Kattalarga — hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lish;
- Muqaddas ayol zotiga ehtirom;
- Sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- Halollik, iymonlilik, or-nomuslilik va hokazolar millatimiz qalbida namoyon bo‘ladigan xislatlar.

Ushbu tamoyillar to‘g‘risida boshqa o‘quvchilar ham o‘z fikr-mulohazalarini aytishlari mumkin.

**2-guruh 4-guruhga:** «Milliy istiqlol mafkurasi qanday umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi va ulardan oziqlanadi?» — degan savol bilan murojaat qiladi.

### **4-guruh javobi:**

- Qonun ustuvorligi;
- Inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;
- Turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- Diniy bag‘rikenglik;
- O‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganishdan iborat.

Mazkur qadriyatlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida so‘zlab bering.

O‘rtaga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi.

**O‘qituvchining umumiyy savoli:** Millatlararo muloqot va muomala madaniyati nima?

**Javob:** Har bir kishi yonma-yon yashaydigan millatlar madaniyati, tili, san’ati, urf-odati haqidagi tasavvurga ega bo‘lishi va an’analalarini hurmat qilishi lozim. Milliy istiqlolga, O‘zbekistonga sadoqatli bo‘lgan va Vatanimizda yashayotgan barcha xalqlarga hurmat tuyg‘usini bildirish, millatlararo muloqot madaniyatiga zid xatti-harakatlarga salbiy munosabatda bo‘lish bizning burchimizdir.

O‘qituvchi davra suhbatida faol ishtirok etganlarga, to‘g‘ri, aniq javob berganlarga minnatdorchilik bildiradi va shu bilan darsni yakunlaydi. Dars oxirida uyg‘a vazifa berilishini unutmaslik lozim.

## **MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Sinf taxtasiga quyidagi yozuv yozilgan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an‘analarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da‘vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir». Islom Karimov.

### **Dars rejasi:**

- 1. Milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalari.**
- 2. Milliy istiqlol mafkurasining xususiyatlari.**

**Darsning turi:** Innovatsion usul.

**Darsning maqsadi:** Millatidan qat‘i nazar yoshlar ongi va qalbida shu aziz Vatanga, uning o‘tmishiga bo‘lgan muhabbat his-tuyg‘usini o‘stirish maqsadida milliy istiqlol g‘oyasining asosiy vazifalarini tushuntirish.

O‘qituvchi darsni quyidagi fikrlarni sharhlash bilan boshlaydi:

1. «Vatanni sevmoq iymondandir» deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, mustaqil Vatanimizni sevish va Vatan ravnaqi hamda tinchligi haqida qayg‘urish har bir fuqaroning, ayniqsa, yoshlarning asosiy vazifasi va burchidir.

2. Ona yurtiga, jonajon xalqiga sadoqat kabi azaliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlar haqidagi g‘oyalarni o‘zlashtirish hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir. Modomiki shunday ekan, ona zaminga bo‘lgan muhabbat qanchalik kuchli bo‘lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e’zozlash kuchayib boradi. Har bir kishi o‘z Vatani tarixini va madaniyatini, milliy qadriyatlarini, ona tilini, urf-odatini mukammal bilsa, milliy manfaatlarni va istiqlolning qadrini shunchalik chuqur anglab yetadi. Ana shu asosda, mustaqilligimiz mustahkam, yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va barqaror bo‘ladi.

*Sinf 6 guruhga bo‘linib o‘tiradi. Har bir guruhda 4-6 tadan o‘quvchi bo‘ladi.*

*Bahs-munozara uchun savollar beriladi:*

**Savol:** Hurmatli o‘quvchilar, ona Vatan, Vatan – muqaddas kabি so‘zlarning ma’nosini kim izohlab beradi?

**Javob:** (O‘quvchi) Vatanga muhabbat ostonadan boshlanadi deyidilar.

1-guruh o‘quvchisi qarshi savol bilan murojaat qiladi: «Bu qanday ma’noni anglatadi?»

2-guruh o‘quvchisi: Bu degani har bir inson o‘zi tug‘ilgan oilasida shakllanadi, jamiyatda rivojlanadi deganidir. Avvalo, u o‘z ota-onasini, oilasini, aka-uka, opa-singillarini sevishi va hurmat qilishi kerak. Bu kichik **Vatandir**. Keyin bu holat kengayadi: shu tariqa kishining mahallasiga, qishlog‘iga, shahriga, Vataniga muhabbat, ajdodlari, allomalari, qahramonlari, merosiga hurmati tobora ortib boradi.

Ma’rifatparvar shoirimiz Fitratning quyidagi so‘zlarini yod oling: «**Vatan – u mening jon-u tanim, sajdagohimdur. U mening to‘lin oyim, tinch-omonligim, izzatim, sharafim, Ka’bam, qiblam hamda gulistonimdur**».


2-guruh o‘quvchisi 1-guruh o‘quvchisiga: Mafkuraning qaysi xususiyatlarini yoshlar yaxshi bilishi talab qilinadi? – degan savol bilan murojaat qiladi.

*1-guruh o‘quvchisining javoblari:*

- milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarga qarshi bo‘lgan g‘oyalarga murosasiz bo‘lish;
- milliy meros va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, o‘rganish;
- zamonaviy ilmlarni, kasb-hunarlarini puxta o‘rganib, o‘z bilimini Vatan ravnaqi yo‘lida hayotga tatbiq etish;
- yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lish.

O‘qituvchi har bir guruhning ikkita o‘quvchisidan quyidagi chizmani tushuntirib berishini so‘raydi:

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining  
ma’naviy-axloqiy negizlari



O‘qituvchi barcha guruh o‘quvchilariga quyidagicha savol bilan murojaat qiladi: «Biz huquqiy davlat barpo etmoqdamiz. Bu biz kabi yoshlar oldiga qanday talablarni qo‘yadi?»

**Javob:** Bunday davlatda adolat, demokratiya, so‘z erkinligi kabi tamoyillar ustuvordir. Ana shunday jamiyatni qurish yoshlardan yuqorida ko‘rsatilgan konstitutsion huquqlarga ega bo‘lish bilan birga yuksak huquqiy madaniyat, zamonaviy bilim, malaka, mas’uliyat va burch egasi bo‘lishini ham talab qiladi.

O‘qituvchi har bir guruhning bitta o‘quvchisidan quyidagi fikrlarga sharh berishini so‘raydi:

1. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.
2. Ogohlilik – muqaddas burch.
3. Ma’naviy kamolot – bunyodkorlik omili.
4. Vatan tuyg‘usi – muqaddas burch.
5. Milliy g‘oya va yoshlar.
6. Milliy istiqlol g‘oyasi – taraqqiyotimizning ma’naviy omili.
7. Komil inson tarbiyasi – asosiy maqsad.
8. Oila – muqaddas maskan.
9. Yurt tinchligi – taraqqiyotimiz omili.

#### **O‘quvchilarni baholash:**

1. Guruhlardagi o‘quvchilarning to‘plagan ballarini baholash.
  2. Qarama-qarshi berilgan savol-javoblar mohiyatiga qarab baholash.
  3. Mavzu bo‘yicha referatlar yozish va ularni baholash.
  4. Og‘zaki so‘rov orqali baholash.
  5. Tarqatma materiallar orqali baholash.
  6. Bahs-munozara orqali hosil bo‘lgan bilimga qarab baholash.
- O‘qituvchi darsni yakunlaydi va keyingi dars uchun vazifalar beradi.

### **MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING BOSH G‘OYASI VA ASOSIY G‘OYALARI**

Sinf taxtasiga quyidagi so‘zlar yozib qo‘yiladi: «Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir».

## Reja:

1. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi.
2. Istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari.

Darsning turi: Ikki guruh o'rtasida bo'ladigan bahs-munozara darsi.

**Darsning maqsadi:** Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalalarini bahs-munozara orqali o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish.

Dars boshanishida o'qituvchi sinf o'quvchilarini 3 guruhg'a bo'ladi va sinf taxtasiga yozib qo'yilgan fikrni sharhlashni so'raydi. Har bir guruhdan bu masala bo'yicha 2–3 o'quvchi javob berishiga erishish lozim.

1. O'qituvchi quyidagi fikrlarni sharhlaydi:

— Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga mos keladigan va uning xalqi uchun xizmat qiladigan maqsad hamda manfaatlarini himoya qila oladigan mafkurasi bo'ladi;

— Odamlar qaysi bir jamiyatda yashamasinlar, yagona bir g'oyaga, ta'limotga asoslanib, ishonib, e'tiqod qilib ish ko'radilar;

— Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidan kelib chiqadi. Ular o'zining ma'nomohiyati bilan Vatanimizni sevish, uni e'zozlashga xizmat qiladi. Chunki bu g'oya ajdodlarimizning azaliy orzulari bo'lgan mustaqillik, kelajagi buyuk davlat barpo etishni anglatgan g'oyadir.

O'qituvchi ana shu fikrlarning har biri to'g'risida guruh a'zolaridan 2–3 kishining fikrini so'raydi. Bu fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytib, bu boradagi diqqat qilish lozim bo'lgan «Ozod Vatan», «Erkin hayot» kabi tushunchalarga o'quvchilarning e'tiborini qaratadi.

So'ngra o'qituvchi guruhlarga navbat beradi.

*1-guruh: Mafkuramizning asosiy g'oyalari quyidagilar:*

- Vatan ravnaqi;
- Yurt tinchligi;
- Xalq farovonligi;
- Komil inson;
- Ijtimoiy hamkorlik;
- Millatlararo totuvlik;
- Dinlararo bag'rikenglik.

Ana shu g'oyalarning har biriga 2–3 daqqaqajiga ajratiladi, ularga ta'rif beriladi, misollar keltiriladi. Bu g'oyalarning mazmun-mohiyatini ifodalagan tugal fikrlar sinf taxtasiga yozib qo'yiladi.

2-guruhga navbat beriladi. Bu guruh mustaqillikka tahdid soluvchi g'oyalar quyidagilardir deya eslatadi:

- Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik;
- Etnik va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillar;
- Mintaqaviy mojarolar;
- Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik;
- Diniy ekstremizm va fundamentalizm;
- Korrupsiya va jinoyatchilik.

Bu tahdidlarning har biriga 2–3 daqiqa ajratiladi, ularga ta'rif beriladi, misollar keltiriladi. Ushbu tahdidlarning mazmun-mohiyati olib berilgan fikrlar sinf taxtasiga yozib qo'yilishi mumkin.

3-guruh o'quvchilari: Millatning nomi bilan atalgan davlatning (ya'ni O'zbekistonning) dunyo davlatlari orasida taraqqiyotga erishishi quyidagi g'oyalarda o'z aksini topadi:

- Vatanparvarlik
- Insonparvarlik;
- Komillik;
- Hamkorlik;
- Birodarlik;
- Hurfikrlilik;
- Hamjihatllilik;
- Halollik;
- Poklik.

Ushbu g'oyalarning har biriga 2–3 daqiqa ajratiladi, ular tavsiflanadi, har bir o'quvchi ularga o'z munosabatini bildiradi.


Ushbu g'oyalar to'g'risida hikmatli so'zlar, she'riy misralar va boshqalar sinf taxtasiga yozib qo'yilishi yoki ularni uyda tayyorlab kelish uchun vazifalar berilishi mumkin.

Dars yakunida o'qituvchi eng to'g'ri javoblar va misollarni ko'rsatadi, baholaydi, darsga yakun yasaydi va uuga vazifalar beradi.

## ISTIQLOL VA G'OVAVIY TARBIYA

### Darsning jihozlanishi:

Mazkur darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, undagi bosh g'oyalar va tayanch tushunchalarni ifodalaydigan asosiy fikrlar bayon etilgan ko'rgazmali va tarqatuvchi didaktik materiallardan foydalaniladi.



### Sinf taxtasiga quyidagilar yozib qo'yildi:

1. «Inson» tushunchasining mazmun-mohiyati nima? «Komil inson kim?», «Mafkuraviy tarbiya vositalariga nimalar kiradi?», «Ta'lim va tarbiya birligi nima?»

2. «Davrimizning eng muhim vazifalaridan biri bu – ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy g'oya asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir» (I. Karimov).

3. «Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim». (I. Karimov.)

### Darsning maqsadi:

**A) Darsning ta'limiy maqsadi:** Mazkur dars «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining yakunlovchi mavzusi, mafkuraviy tarbiyaning uslub va vositalariga bag'ishlanganligi bois, tabiiyki, unda avvalo kursni o'qish jarayonida o'rganilgan qator g'oyerlar va tushunchalar xususida takroriy fikr yuritiladi. Shu sababli darsning ta'limiy maqsadini belgilashda umuman ilgari o'tilgan mavzularga integratsion yondoshgan holda, talabalar bilan ko'proq o'zaro suhbat metodi qo'llanilgani ma'qul. O'quvchilarning asosiy diqqat-e'tibori mafkuraviy tarbiyani faol amalga oshirish uchun qo'llaniladigan

uslub va vositalarga qaratiladi. Ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda eng dolzarb masalalardan hisoblangan ezgu g‘oyalarga ishonch, millatlararo muloqot madaniyati, ommaviy axborot vositalari xabarlariga tahliliy tafakkur pozitsiyasidan yondoshish, madaniyat maskanlarida olib boriladigan ommaviy tadbirlar, sport o‘yinlari davomida milliy g‘urur, urf-odat va an‘analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor beriladi.

**B) Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Dars jarayonida o‘quvchilar tarbiyasiga kompleks yondoshib, mashg‘ulot davomida beriladigan muammoli savollarga olinadigan javoblar asosida tarbiyaviy muammolarni hamkorlikda ko‘rib chiqish va bartaraf etishga erishishdan iborat.

**D) Darsda rivojlantirib boriladigan ta’lim:** Yuqorida alohida qayd etilganidek, mazkur mavzu kursning yakunlovchi mavzusi bo‘lganligi bois dars davomida ushbu fanning dastur — talablariga ijodiy munosabatda bo‘lib, kursning bosh g‘oyalari va tayanch tushunchalarini imkoniyat boricha ko‘proq takrorlash, ular to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlash tamoyiliga amal qilinadi. Yo‘l-yo‘lakay mavzularni bir-biri bilan bog‘lab borishimiz uchun o‘quvchilar bilimi baholanishi zarur.

### **Mavzuni bayon etish rejasi:**

1. Inson va jamiyat fe’l-atvoriga ta’sir qiluvchi omillar.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va g‘oyaviy tarbiya.
3. Adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari, fan va ilmiy muassasalarining komil inson tarbiyasidagi ahamiyati.
4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi.
5. Oila, mahalla va jamoatchilikning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.
6. Milliy g‘urur va milliy iftixorni shakllantirish usullari.
7. Xulosa.

**Darsning turi:** Muammoli ta’lim elementlarini o‘z ichiga olgan noan‘anaviy dars.

### **Darsning blok chizmalari:**

**A)** Mashg‘ulotning dastlabki 2–3 daqiqli darsning tashkiliy masalalariga bag‘ishlanib, unda o‘qituvchi mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma didaktik materiallarni foydalananish holatiga

keltirib, yangi mavzu va uning rejasi yozilgan «ko'chma chizmani» guruh taxtasi yoniga ilib qo'yadi.

B) O'tgan darsda o'rganilgan mavzudan va uyga berilgan vazifadan bir necha savol nazorat sifatida o'rtaga tashlanib, javoblar tinglanadi va o'qituvchi tomonidan izohlangach, yangi mavzuning bayoniga o'tiladi.

1. O'qituvchi yangi mavzuni bayon etishga kirishar ekan, avvalo, uning rejasidagi birinchi masala, inson va jamiyat fe'l-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar xususida fikr yuritishdan oldin, o'quvchilarining «Inson va jamiyat» kursidan olgan ayrim nazariy bilimlarini yana bir bor eslatish maqsadida bu kursga tegishli biror-bir savolni o'rtaga tashlaydi. Javob o'qituvchi tomonidan izohlanadi.

2. Inson, uning jamiyat hayotidagi tutgan o'rni, Vatan ravnaqidagi ishtiroki xususida gap borar ekan, biz asrlar davomida bu muammoni me'yoriga yetkazib hal etib kelayotgan buyuk allomalarimizning ilmiy meroslaridan foydalanmog'imiz lozim. Masalan, Abu Rayhon Beruniy (973–1051) ning ilmiy merosida inson muammoi markaziy o'rinni egallagan. Beruniy insonning qadr-qimmatini ulug'lagan, insonlarning ishonch va ma'murliklari farqli ekanligicha diqqatni tortgan, dunyo madaniyati takomili shu rang-baranglik natijasida bunyod etilganligini tasdiqlagan. Beruniy, insonlar uch sababga ko'ra baxtsizlik keltiradilar, deydi:

a) Inson yer yuzidagi yaratilgan jonzotlar orasida eng mumtozidir. Ammo insonlar o'zlarining qizg'anchiqliklari sababli bir-birlarining qo'llarida bo'lgan narsalarga ko'z tikadilar. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy ziddiyatga sabab bo'ladi;

b) O'z e'tiqodini, mazhabi va qabilasini, o'z manfaatini boshqalarnikidan ustun ko'rmoq insonlar orasidagi nifoqlarga yo'l ochadi;

d) Xurofotlar va asossiz e'tiqodlar insoniylikning takomillashuvi va uning kamolotini orqaga suradi, jamiyatda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Allomamiz insonning ichki pokligi kaliti iymon va yaxshi niyat ekanligi, axloqan go'zal bo'lmoq esa har bir insonning o'ziga, uning didiga bog'liq ekanligini alohida qayd etgan.

3. O'qituvchi mavzuni bayon etish rejasi asosida o'quvchilarga «inson» tushunchasi xususida atroflicha bilim berishda davom etar ekan, endi uning xatti-harakati va fe'l-atvorining shakllanishida inson omili, milliy istiqlol g'oyasining bugungi talabi asosida

aytadigan bo‘lsak, bu borada kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturimizning o‘rnii va roli xususida bat afsil ma’lumot berishi lozim bo‘ladi. U O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1997-yilning 29-avgustida e’lon qilingan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonun yosh avlodning har tomonlama kamol topishi borasidagi tarixiy hujjat bo‘lib qolganini alohida ta‘kidlaydi.

Tabiiyki, yoshlарimizni milliy istiqlol g‘oyasi bilan qurollantirishda, ayniqsa, ta’limning turli tizimlarida o‘rganiladigan ijtimoiy fanlarning roli va o‘rnii benihoya kattadir. Biroq bu omillardan maqsadga muvofiq foydalanishning o‘ziga xos muammolari ham mavjud. Ana shunday muammolardan biri ilm va fan yutuqlarini yoshlарimiz ongiga samarali singdirib borishda qo‘llaniladigan metod va vositalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq. Masalan, tajribada bu omildan quyidagicha foydalanib, birmuncha samaralarga erishish mumkin.

Mavzuni yanada chuqurroq singdirish uchun bir guruhsda Milliy istiqlol g‘oyasi fanini o‘qtishni boshlashdan oldin o‘ziga xos kichik sotsiologik tadqiqot xarakteridagi tarqatma savollarini tuzib o‘quvchi talabalar orasida tarqatish va ularning har biri tarqatilgan savolga o‘z ismi shariflarini yozmasdan, anonim tarzda javob yozishlarini uqtirish orqali ham natijaga erishish mumkin.

*Tarqatiladigan savollar:*

– Milliy g‘oya nima?

– O‘zbekiston sharoitida milliy istiqlol mafkurasi nima uchun zarur?

– Mafkuraviy tazyiq nima?

– «Mafkuraviy bo‘shtiqliq» deganda nimani tushunasiz?

– Mafkuraviy kurashning qanday umumbashariy va mintaqaviy muammolarini bilasiz?

– Mafkuraviy tahdidni qanday bartaraf etish mumkin?

Anonim holda to‘ldirilgan tarqatma savollariga olingan javoblar darajasi va saviyasing turli-tumanligi, bu boradagi nazariy va amaliy pedagogik faoliyatning yo‘nalishlarini aniqlash hamda uning samaradorligini oshirishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Tarqatma savollar ichida o‘quvchilarning so‘nggi vaqtida qanday badiiy asarlari va san‘at asarlari bilan tanishganliklarini qayd etgan javoblariga alohida e’tibor berish zarur.

Gap shundaki, ko‘pgina o‘quvchilar akademik litsey yoki kasb-

hunar kollejlarida tahlil olish davrida dasturdagi fanlarni o‘rganishga ko‘p vaqt ajratib, badiiy asarlarni oz o‘qiganlari yoki teatr spektakllari va tasviriy san’at muzeylari, ko‘rgazmalarida kam bo‘lganliklarini qayd etganlar. Xuddi shunga o‘xshash natijalar huquqiy bilim beradigan asarlar haqida berilgan savollarda ham namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi savol bilan murojaat qiladi: G‘oyaviy tarbiyada oilaning o‘rnii qanday?

**Javob (1-o‘quvchi):** G‘oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashni kamol toptirishda oilaning ahamiyati katta. «Chunki oila – jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi» (I. Karimov).

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u insonlarga xos «tabiiy biologik» (jismoniy munosabatlar, bola tug‘ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo‘li bilan qayd etish), ma’naviy (er-xotin, ota-onasi va bolalar o‘rtasidagi mehr-oqibat tuyg‘usi va boshqalar) munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

**2-o‘quvchi:** O‘zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargoh hisoblanadi. Chunki, oilada «o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a‘zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Ko‘pgina millat vakillarida bo‘lgani kabi o‘zbeklarning ham aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘snililarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliv darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

Shuning uchun ham mamlakatimizda oila va uning muqaddasligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbuslari bilan 1998-yil «Oila yili», 1999-yil «Ayollar yili» va shuning uzviy davomi sifatida 2000-yil «Sog‘lom avlod yili», 2001-yil esa «Onalar va bolalar yili» deb e’lon qilindi.

**O‘qituvchining savoli:** Mafkuraviy immunitet hosil qilishda mahallaning o‘rni qanday?

**Javob (1-o‘quvchi):** Xalqimizning milliy istiqlolga erishuvi, davlat boshqaruvi sistemasidagi islohotlar mahalliy jamoalarining yangi tizimini vujudga keltirdi. Mahalliy hokimiyatning muntazam tizimini o‘zini o‘zi boshqarish jamoalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Darhaqiqat oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog‘liq. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag‘rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog‘day tayanchidir.

**2-o‘quvchining javobi:** Mahalla odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo‘schnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktabrdagi 489-sonli «Respublika Mahalla xayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi qarori, 1993-yil 2-sentabrda va Oliy Majlisning 1999-yil 14-apreldagi XIV sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi to‘g‘risida»gi qonun asosida mahallaning maqomi mustahkam huquqiy asosga ega bo‘ldi.

Qonunda belgilanganidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shu jumladan, mahalla demokratizmi, oshkoraliq, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o‘zaro yordam prinsiplari asosida faoliyat ko‘rsatadi.

**3-o‘quvchining javobi:** Mahalla – muruvvat markazidir. Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo‘llovchi, ishsizlarni ish bilan ta’minlovchi muhim makondir. Mahallada yoshlar, qariyalar, xotin-qizlarning manfaatlarini muhofaza etish, ularning davlat va jamiyatdagi faolligini oshirish, oilada ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, madaniy turmush sharoitini yaxshilash, barkamol insonni shakllantirishdagi mavqeyini ko‘tarish borasida muhim ishlar amalga oshiriladi.

**O‘qituvchiga eslatma:** Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar diqqat-e’tibori rejadagi «Milliy g‘urur va milliy iftixorni shakllantirish usullari» masalalariga jalb etilar ekan, ularga

tarqatilgan yozma savollarda mavjud bo‘lgan «Milliy g‘urur va milliy iftixor nima?» degan savolga atroflicha javob berish talab etiladi. O‘quvchi-talabalar javoblari atroflicha muhokama etilgach, mavzuga yakun yasashda o‘qituvchi talabalar e’tiborini Prezident Islom Karimovning «Milliy g‘urur», «milliy iftixor» tushunchalari to‘g‘risidagi quyidagi fikrlariga qaratadi:

— «Buyuk davlatning odamlari, eng avvalo, erkin va ozod bo‘lishi, ularda milliy g‘urur doimo jo‘sish urib turishi, Vatan tuyg‘usi har birining yurak-yuragidan joy olishi kerak».

— «Milliy g‘urur haqida gapirganda, uni ulug‘laganda hech kim o‘z millatini boshqa millatlardan ustun qo‘ymasligi kerak. Dunyoda katta yoki kichik millat yo‘q, balki har bir millatning o‘z g‘ururi bor. Uni kamsitishga hech kimning haqqi yo‘q».

— «Agar jamiyatdagi insonlar o‘z yurtidan g‘ururlanmasa, yurtini yomon ko‘zlardan asrash uchun o‘zini ayasa, unda bunday jamiyatning kelajagi yo‘q».

— «Milliy timsollar va ramzlarining har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir».

Bu fikrlar to‘g‘risida o‘quvchi-talabalarning mulohazalari so‘raladi, ularga o‘qituvchi o‘z munosabatini bildiradi, javoblarni baholaydi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanidan o‘tkaziladigan ushbu so‘nggi mavzuning ilmiy-nazariy va metodik jihatdan o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, mashg‘ulot davomida o‘qituvchi tomonidan muammoli savol tariqasida beriladigan vazifalarga tinglovchilarning javoblari qanchalik hayotiy misollar yoki bahsda ishtirok etayotgan shaxsning xatti-harakatlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, shunchalik samara berishi mumkin. Qolaversa, tinglovchilarning mazkur kursdan olgan bilimlari ularning shaxsiy e’tiqodlariga aylanishi va shu nazariy bilimlardan o‘zlarining kundalik amaliy faoliyatlarida qanchalik samarali, maqsadga muvofiq foydalanishlari bilan belgilanadi. Ana shu sababdan ham mazkur darsni ijodiy tarzda olib borish, g‘oyaviy tarbiyaning barcha usullari va imkoniyatlaridan omilkor foydalanish lozim.

### Quyidagi fikrlarni eslab qoling

— «Bizning hayotimiz – sayohat, g‘oyalar – yo‘lko‘rsatkichlardir.

Yo‘lko‘rsatkich bo‘lmasa, hamma narsa to‘xtab qoladi. Maqsad yo‘qolgach, qudrat ham bizni tark etadi» (V.Gyugo).

— «Inson baxt-saodati yo‘lida har qanday qurbanlikni berishga undaydigan go‘zal g‘oyalarni singdirishning o‘zi buyuk san’atdir» (Stendal).

— «Tafakkursiz mushohada insonni toliqtirib qo‘yadi. Qachonki menda yanada ishlash uchun yangi va yangi g‘oyalarni bo‘lmas ekan, men o‘zimni og‘ir kasaldek his etaman». (Gyote)

O‘qituvchi dars nihoyasida yuqorida masalalarini qisqa izohlaydi va darsni yakunlaydi.

## QO‘SHIMCHA VA IXTIYORIY MAVZULAR

Ushbu kitobda berilgan amaliy mashg‘ulotlar mutlaq o‘zgarmas emas. Balki, o‘qituvchilar ta’lim muassasalarining yo‘nalishi va mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni xilma-xil shaklda olib borishlari ham mumkin. Quyida ana shu sohada ularga yordam berish maqsadida «Milliy istiqlol g‘oyasi» mavzuidagi ikkita ixtiyoriy amaliy mashg‘ulotlar ilova etilmoqda.

### G‘OYA VA MAFKURALARNING FALSAFIY, TARIXIY MANBALARI

**Darsning maqsadi:** G‘oya va mafkuralarning falsafiy-tarixiy ildizlarini o‘rganish asosida mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish.

**Darsga oid jihozlar:** 1. Plakatlar. 2. Markerlar. 3. Kerakli adabiyotlar.

**Darsning blok chizmasi:**

1. Tashkiliy daqqa.
2. Guruhlarda ishslash.
3. Bahs-munozara.
4. Badiiy chiqishlar.

**Noan'anaviy amaliy mashg‘ulot:** «Aqliy hujum» metodi bilan boshlanadi. **Izoh:** Chunki, o‘quvchilarda yetarli bilim va ko‘nikmalar mavjud. O‘qituvchi buni «Aqliy hujum» orqali tasdiqlaydi va shundan so‘ng sinfni guruhlarga bo‘lib, ularga vazifalarini bajarishga ruxsat beradi.

— «Aqliy hujum». Doskaga bo'sh plakat ilinadi. O'qituvchi savol bilan murojaat qiladi.

— «Milliy istiqlol g'oyasi»ning falsafiy-tarixiy ildizlariga nimalar kiradi?

O'quvchilar javob bera boshlaydi, o'qituvchi esa bo'sh plakatga markerlar bilan javoblarni yozadi:

- Xalq og'zaki ijodi (dostonlar, ertaklar, maqollar, rivoyatlar).
- Madaniy meros va san'at asarlari, durdonalari (musiqa, rasmlar, binolar, buyumlar).
- Tarixiy asarlar (Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Yassaviy, Navoiy, Bobur kabi allomalarining ma'naviy merosi).
- Umuminsoniy falsafiy g'oyalari: Suqrot, Aflatun, Arastu va boshqalarning g'oyalari.
- O'qituvchi aqliy hujumni to'xtatgach, bu fikrlar to'g'ri ekanligini o'quvchilarga aytib, bugungi amaliy mashg'ulotda yuqorida aytilgan fikrlar yuzasidan bahs-munozara tarzida barchaning mustaqil fikr bildirishini so'raydi.

Shu maqsadda sinf o'quvchilari 4 yoki 5 guruhga bo'linadi. Har bir guruh stoliga bahs mavzusi yozilgan kartochkalar qo'yiladi. (Izoh: Har bir o'quvchi mavzularni o'zi tanlash huquqiga ega va bu majburiy emas.)

Bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. «Avesto» qanday asar? Erk va hurlik yo'lida jasorat ko'rsatgan qahramonlarimiz, xalq og'zaki ijodi namunalari milliy g'oyamizni shakllantirish uchun tarixiy asos bo'la oladimi?

2. Ajodolarimiz ma'naviy-madaniy merosidaadolatli jamiyat qurish masalalari qanday aks etgan? Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Navoiylarning ezgu g'oyalari, komil inson haqidagi qarashlari to'g'risida so'zlab bering.

3. Qadimgi Sharq, Yunon, Rim falsafasi, Suqrot, Aflatun, Arastu, Gegellarning qarashlari milliy istiqlol g'oyasining umuminsoniy asosi bo'la oladimi? Sizning fikringiz.

4. Jadidlarning ma'naviyatimizga, mustaqillik g'oyalari shakllanishiga qo'shgan hissalari nimalardan iborat? Sizning fikringiz.

2-guruhga badiiy sahna ko'rinishini ko'rsatish topshiriladi.

Bu guruh o'quvchilari sokin musiqa ovozi ostida Spitamen, To'maris, Manguberdi, Temur, Navoiy, Forobiy, Suqrot, Arastu kabi buyuk insonlarning ezgu g'oyalari ifodalangan g'azallar,

asarlardan parchalarni jonli badiiy obrazda ijro etadilar. Jadidchilardan Fitrat, Cho'lpon she'rlarini ifodali tarzda o'qib beradilar.

Darsda o'quvchilar o'z mavzulariga javob berishdan oldin, qog'ozga markerlar yordamida mavzuning sxemasi (tarxi)ni chizib, taqdim etadilar. (Izoh: Plakat bo'limgan taqdirda chizma sinf taxtasiga chiziladi. Amaliy mashg'ulot juda qiziqarli, sermazmun o'tishi, eng muhimi, birorta ham o'quvchi bundan chetda qolmasligi, har bir o'quvchining o'z hissasi va o'z o'rni bo'lishiga erishish lozim.)

### **1-guruh o'quvchilarining javoblari:**

**1-o'quvchi:** Markaziy Osiyoda yashagan avlod-ajdodlarimizning g'oyalari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishda «Avesto» alohida ahamiyatga ega tarixiy asardir. Zardushtga qadar ajdodlarimiz har xil diniy odatlarga e'tiqod qilib yashaganlar. Diniy e'tiqodlarning turli-tumanligi qadimgi qabilalarining yagona mafkura asosida uyushishlariga to'g'anoq bo'lib qolgan. O'lkanning turli qabilalarini birlashtirish, ularni ilk milliy davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zarurati tug'ilgan edi. Ana shunday zaruratni tushunib yetgan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht tarixda paydo bo'ldi.

**2-o'quvchi:** «Avesto»da o'lkamiz iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, diniy tasavvurlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari odamlarni doimo pokiza yurishga, yomon niyat va axloqsiz so'zlardan tiyilishga da'vat etiladi. Bu g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani.

**3-o'quvchi:** Asarda g'arazo'ylik, hasad, manmanlik, yovuzlik qoralangan. Va'daga vafo, ahdga sadoqat, samimiyat, odamlar o'rtasidagi axloqiy g'oyalari ulug'langan. Avestoda «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu faoliyat» chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan.

**4-o'quvchi:** «Avesto»da qayd etilgan eng muhim fikrlardan biri insonlarni mehnat qilishga, o'z qo'llari bilan moddiy boyliklar yaratib, farovon hayot kechirishga da'vatdir.

**5-o'quvchi:** Shunday qilib, «Avesto» dunyoda eng qadimgi dinlardan biri bo'lgan zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ajdodlarimiz uzoq o'tmishi, tafakkuri taraqqiyotining qomusiy yig'indisi, mafkuramizning tarixiy ildizi hamdir.

**6-o'quvchi:** Xalq og'zaki ijodi namunalari, azaliy san'at durdonalari istiqlol g'oyasining manbayi bo'la oladi. Avlod-ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlari, an'analari, madaniyati xalq

og‘zaki ijodida nihoyatda boy va xilma-xil aks ettirilgan. «To‘maris», «Shiroq» singari afsona va «Alpomish» kabi dostonlarda ham milliy, ham umuminsoniy g‘oyalar ilgari surilgan. Ulardan milliy istiqlol g‘oyasi oziqlanadi, ularga tayanadi.

Ming-ming yillar davomida taraqqiy etib kelayotgan adabiyot va san‘atning asosiy g‘oyasi insonparvarlikdir. Milliy qahramonlarimizning erk va hurlik yo‘lidagi qahramonliklari biz uchun ibrat bo‘lib qolaveradi.

## **2-guruh o‘quvchilarining javoblari:**

**1-o‘quvchi:** Adolatli jamiyat qurish g‘oyasi doimo hamma jamiyatda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Qadim zamonlardayoq insoniyatning eng yorqin namoyandalari bu muammoni to‘g‘ri hal qilishga uringanlar. Ular ta‘limotiga ko‘ra, odamlar bir-biri bilan do‘s, teng, ozod bo‘lishlari kerak edi. Bu kabi g‘oyalar rivojida O‘zbekiston hududida yashagan buyuk allomalarimizning xizmatlari katta.

**2-o‘quvchi:** Bizning guruhimiz o‘quvchilari bahs-munozara uchun, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi bobolarimizning ayrim fikrlarini yod oldik, hozir ularni sizning diqqatingizga havola etamiz. Masalan: Forobiy (870–950) butun dunyoning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasufidir. Uning «Fozil odamlar shahri», «Jamiyatni o‘rganish haqida kitob», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» kabi asarlari jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat kabi masalalarga bag‘ishlangan.

**3-o‘quvchi:** Forobiy insonning jamiyatdagi harakatlarini 2 ga bo‘lgan. Birinchisi: adolatli, haqiqiy aqlga muvofiq harakatlar. Alloma bu harakatlar orqali haqiqiy baxtga erishiladi, deb hisoblagan. Ikkinchisi:adolatsiz, maqsadga muvofiq bo‘lmagan harakatlar bo‘lib, ular baxtsizlik keltiradi. Men Forobiyning mana shu fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan deb hisoblayman, ular bunyodkor g‘oyalar va buzg‘unchi g‘oyalarga o‘xshab ketadi, deb o‘layman.

**4-o‘quvchi:** Men esa Forobiyning yana bir fikrini misol keltirmoqchiman. «Barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli, yetuk bo‘ladi». Bundan ming yil oldin aytilgan bu fikrning bugungi kunimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, aksincha, umuminsoniy qadriyatlar talabiga javob beradigan ezgu g‘oyalar uyg‘unligi ajdodlarimiz ma’naviy merosining ulug‘ligi emasmi?

**5-o‘quvchi:** Beruniy fikricha esa: «Kishilar o‘zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirishlari uchun uyushgan holda yashashga majburlar». Uning fikricha, o‘zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash turli millatga mansub kishilarning hayotini mazmunli va barakali bo‘lishiga olib keladi. Ibn Sino fikricha: jamiyatni davlatsiz, qonun-qoidalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu g‘oya odamlarni o‘zaro hamjihatlikka, bir-birlariga yordam ko‘rsatish qoidalariga asosan yashashga da’vat etadi. Muso Xorazmiyning jamiyat va uning istiqboli haqidagi fikr-mulohazalari bugungi kunda alohida o‘rin egallaydi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, odobaxloqning katta o‘rin tutishi haqida aytilgan fikrlar, mening fikrimcha, mafkuramiz bulog‘i bo‘la oladi.

**6-o‘quvchi:** Men esa ulug‘ bobomiz Sohibqiron Temurning davlat boshlig‘i bo‘lish bilan birga davlat ishlarini boshqarish, harbiy ishlarni tashkil etish, xalqparvar, adolatli bo‘lish to‘g‘risidagi g‘oyalariga diqqatni qaratmoqchiman. Uning bu g‘oyalari «Temur tuzuklari» asarida jamlangan. Masalan: «Kuch adolatdadir», «Adovat emas – adolat yengadi». Bobomiz Saltanat ishida 4 narsaga amal qilgan:

1. Kengash.
2. Mashvarat-u maslahat.
3. Qat‘iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik.
4. Ehtiyyotkorlik.

### 3-guruh o‘quvchilarining javoblari:

**1-o‘quvchi:** Tarixdan bizga ma'lumki, qadimgi Sharq, Yunon, Rimdagi qarashlar xalqlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtigan. Hatto ayrim vaqtlarda falsafiy fikrlar davlat mafkurasini darajasiga ko‘tarilgan. Dastlabki g‘oyalar Sharqning eng qadimgi davlati Bobilda (eram.avval. IV ming yil.) paydo bo‘la boshladi. Misr, Hindistonda «Izida va Osiris», «Galgamish haqidagi doston», «Ramayana», «Mahabhorat» kabi bebaaho yodgorliklarning har birida aql-idrok, adolat, insof-diyonat, halollik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalar, hikmatlar va rivoyatlar, maqollar orqali naql etilganki, ular shak-shubhasiz milliy hamda umuminsoniy ahamiyatga molik g‘oyalarni ifodalaydi.

**2-o‘quvchi:** Qadimgi Yunoniston olimlari ham jahon xalqlari madaniyatiga o‘z hissalarini qo‘shtigan. Biz ulardan juda ko‘plarini, masalan, Suqrot, Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastu va hokazolarni bilamiz. Aflatun fikricha «g‘oyalar dunyosi» birlamchi,

moddiy dunyo esa ikkilamchidir. U Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasi davlatini eng adolatli va ideal davlat deb hisoblagan. Arastu (mil.av. 384–322-yil) esa quldorlik davlatini tanqid qiladi, uning ko‘rsatishicha, moddiy olam abadiy, u hech qanday g‘oyalarga muhtoj emas. Ustoz va shogird bo‘lgan bu ikki buyuk faylasufning qarashlaridagi bu keskin farq o‘scha davrda ham turli g‘oyalar bo‘lganini ko‘rsatadi.

**3-o‘quvchi:** Men esa «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi Gegel (1770–1831) haqida quyidagi bir fikrni esladim. Uning ta’limoti hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Haqiqiy milliy xususiyatga ega bo‘lgan Gegel ta’limoti Avstriya-Vengriya imperiyasidan ozod bo‘lib, mustaqillik yo‘lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga yetgan.

**4-o‘quvchi:** Biz yuqorida aytib o‘tgan ta’limotlar, ma‘rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan, deymiz. Ular mafkuramizning umuminsoniy asoslari bo‘la oladi, degan fikrdamiz. Jadirarning mamlakatimiz tarixi, milliy ma’naviyatimizga qo‘shgan hissalarini qancha gapirsak ham oz. Bugun ikki jadidchi – Fitrat va Cho‘lpon misolida ularning g‘oyalarini ochib berishga harakat qilamiz.

**5-o‘quvchi:** Vatanni ozod va obod, xalqni erkin, har qanday istibdod kishanlaridan xoli ko‘rish Fitratning azaliy orzusi bo‘lgan. U istiqlol uchun kurash, xalqni oyoqqa turg‘izish milliy g‘urur uyg‘onishiga sabab bo‘lishini bashorat qilib, bunday yozadi:

*Oldimizni to‘sgan bulut parchasi  
Kuchli bir yel ko‘rgach, yirtilar.  
Umid kuni biz uchun ham tug‘ar,  
Qayg‘urmagil sira ey, «Haq» tuyg‘usi.*

Fitrat «Yurt qayg‘usi» nomli asarida «O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘rgani kelganlarga», – deb mardona xitob etgan. Xalqimiz o‘zining erta xazon bo‘lgan bu donishmand farzandini qalbida abadiy saqlaydi.

Cho‘lpon – yurt taqdiri, millatning istiqboli haqida chuqur qayg‘urdi, elim deb, yurtim deb yonib yashadi. Vatanni muqaddas bildi, unga toabad sajda qildi, erkinlik, hurriyat, mustaqillik yo‘lida jonini fido etdi.

O‘qituvchi darsga yakun yasaydi, o‘quvchilarni baholaydi, uyga vazifalar beradi.

## **KOMIL INSON – MILLIY ISTIQLOL G‘OYASINING MAQSADI**

### **Darsning jihozlanishi:**

A) «Jamiyat mafkurasi» tushunchasi to‘g‘risida Prezident Islom Karimov tomonidan asoslangan fikr yozilgan didaktik material: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘priq bo‘lishiga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

B) Milliy g‘oya tushunchasi xususidagi tamoyil yozilgan didaktik material: 1.«G‘oya – inson tafakkuri mahsuli, milliy g‘oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g‘oya – inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir» («Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidan).

2. «Mafkura – muayyan ijtimoiy guruhi, ijtimoiy qatlami, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarni tizimidir» («Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidan).

### **Darsning maqsadi:**

#### **A) Darsning ta’limiy maqsadi:**

Dars jarayonida o‘rganilayotgan mavzuning talablaridan kelib chiqqan holda, Prezident Islom Karimov asarlari, ma’ruza va nutqlaridagi «milliy g‘oya», «milliy mafkura», «komil inson», «fuqarolik mas’uliyati» kabi tushunchalar xususida atroflicha bilim berish. Bahs va munozaralar davomida shaxsiy e’tiqodlarida ezgu g‘oyalarni yo‘lida tarbiyalanish tuyg‘usini hosil qilishdan iboratdir.

#### **B) Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Dars jarayonida o‘qituvchining mazkur mavzu yuzasidan olib boradigan ta’limiy, ilmiy-nazariy va amaliy faoliyati natijasida talabalar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda ularda Prezident Islom Karimovning tarbiya bobida alohida qayd etib o‘tgan quyidagi ko‘rsatmalari o‘z yechimini topishiga harakat qilinadi: «Oldimizga qo‘ygan oliyjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi turadigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz

va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda».

### **D) Darsda rivojlantirib boriladigan ta’lim:**

O’rganilayotgan mavzu: «Milliy istiqlol g’oyasi» fanining yakunlovchi bo’limi bo’lganligi bois, kursning tayanch va boshqaruv g’oyalari hisoblangan tushunchalardan: «G’oya va mafkura tushunchalari», «Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi», «Mustaqil O’zbekiston va mafkuraviy muammolar», «Istiqlol g’oyasining maqsad va vazifalari» kabi masalalar yuzasidan talabalarning qanday bilimga ega ekanliklari yana bir bor sinab ko’riladi. Mashg’ulot davomida ularning faoliiklarini rivojlantirib borish maqsadida o’rganilayotgan mavzu davomida talabalardan mazkur kursning yuqorida qayd etilgan asosiy tayanch va boshqaruv g’oyalardan olgan bilimlarini eslatib, takomillashtirib va zarur joylarda o’zgartirishlar kiritib borish taqozo etiladi.

#### **Mavzuni bayon etish rejasি:**

1. G’oyaviy dunyoqarash nima?
2. Prezident Islom Karimov yoshlarning g’oyaviy dunyoqarashlari va ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish haqida.
3. Mustaqil tafakkur eta oladigan, har tomonlama bilimli, faol insonni tarbiyalash – mafkuraviy tarbiyaning asosidir.
4. Yoshlardagi to‘g’ri dunyoqarashni shakllantirish va jamiyatda sog’lom muhitni barpo etishda ularning mas’uliyatini oshirishning shakl va uslublari.
5. X u l o s a.

**Darsning turi:** Muammoli ta’lim elementlarini o’z ichiga olgan noan’anaviy dars.

#### **Darsning blok chizmalari:**

A) O’qituvchi o’quv jarayonining har qanday tizimida ham 1–2 daqiqa vaqtini tashkiliy masalaga ajratishi tabiiy hol. Ana shu tashkiliy daqiqalarda mavzuga oid ko’rgazmali quollar, tarqatiladigan didaktik materiallar va darsda qo’llaniladigan ta’limning texnik vositalari foydalanish holatiga keltiriladi, yangi mavzu va uning rejasи yozilgan vatman qog’ozdagи «ko’chma chizma» osib qo’yiladi.

B) Uy ishini tekshirish masalasiga kelsak, bu o’rinda o’qituvchi o’quvchilar uchun asosiy g’oyalardan bir nechtasini muammoli savol sifatida o’rtaga tashlaydi. Sinfning faollashuvи tashkil etilgach, masalan, «Milliy istiqlol mafkurasingning bosh g’oyalari nimalardan iborat?» yoki «Taraqqiyotning o’zbek modeli» deganda nimani

tushunasiz? – degan savol o‘rtaga tashlanadi. Bu savolga javoblarni olib bo‘lgach, o‘qituvchi uni umumlashtiradi va o‘quvchilar diqqat-e’tiborlarini «ko‘chma chizma»da bayon etilgan va o‘rganiladigan mavzuning nomi va rejasiga jalb etadi.

D) Darsdagi keyingi bosqich – yangi mavzuni tushuntirish yoki darsning borishidir.

O‘qituvchi mavzuni bayon etishga kirishar ekan, birinchi galda o‘quvchilarga «Milliy istiqlol mafkurasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi va qanday talablarga javob berishi kerak» degan savollarga qisqa javob bermog‘i lozim. Mazkur o‘rinda Prezident Islom Karimovning «Fidokor» gazetasidagi fikrlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda yurtboshimizning istiqlol mafkurasi xususida bayon etgan fikrlarida yoshlarimizda istiqlol mafkurasini shakllantirib va tarbiyalab borishda «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson» tushunchalari markaziy o‘rinni egallab turganiga e’tibor qaratiladi. Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilar diqqat-e’tiborini ana shu tushunchalarning izohiga qaratadi.

Istiqlol g‘oyalarini yoshlari qalbi va ongiga singdirishda ta’lim tizimining o‘rni, imkoniyatlari beqiyos. Ijtimoiy fan o‘qituvchilar bu borada har bir o‘quv yurtining yo‘nalishini hisobga olgan holda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining asosiy mazmun-mohiyatini yoshlari ongiga singdirib borishga erishmoqliklari darkor. Bu borada mazkur kurs yuzasidan olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning zehni va bilim darajalariga nisbatan individual ravishda yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi alohida olingen guruhsida «Milliy istiqlol g‘oyasi» fanidan o‘rganilayotgan mavzu umumiy bo‘lib, sinfdagi o‘quvchilarining bilim darajalari turlicha bo‘lgan bir sharoitda, shu guruhsida milliy istiqlol g‘oyasini singdirib borishda, ularda mavjud bo‘lgan ta’lim-tarbiya darajasiga yondashish jarayoni qanday amalga oshirilishi mumkin? Mazkur muammo xususida quyidagilardan foydalanish mumkin:

*Birinchidan*, o‘quvchilar soniga mo‘ljallab quyidagi muammoli savollardan iborat tarqatma didaktik materiallar (savollar) tayyorlash, ularning har birini kadaskop apparati yordami bilan doskada ko‘rsatib (kadaskop bo‘limgan sharoitda oddiy doskadan foydalanib), o‘quvchilarning og‘zaki javob-bahslarini tinglash va keng muhokama qilish:

1. Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan – «G‘oya qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» tamoyilini qanday tushunasiz?

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida mafkura xususida gap boradi va uning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Mafkuraviy immunitet deganda nimani tushunasiz?
4. Tarix va ma’naviyat asoslarini o‘rganish bu sohada qanday foyda beradi.
5. Adabiyot va san’atning u yoki bu g‘oyani shakllantirishdagi o‘rni xususida nimalar deya olasiz?

*Ikkinchidan*, dars jarayonida mavzu yuzasidan babs-munozara uchun tayyorlangan barcha muammoli savollarga tegishli javoblarni eshitishga ulgura olmaslik ehtimoli borligi bois, ularga uy vazifasi tariqasida to‘la javob yozib kelishlarini topshirish va keyingi darsda mufassal tahlil etish ham mumkin.

O‘qituvchi yuqorida ko‘rsatilgan savollarga o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni umumlashtirar ekan, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish uchun barcha mas’ul ekanligini alohida uqtirib o‘tadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rni xususida fikr yuritishi lozim. Buning uchun u albatta o‘z tinglovchilarining oilaviy sharoitlari, ularni o‘rab turgan ijtimoiy muhit xususida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa dars samaradorligini oshirib borishi va uning ta’sirchanligini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni o‘rganishda o‘quvchilar quyidagi fikrlarni yod oladi:

1. «Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib, biz ko‘zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etishga erisha olmaymiz» (I. Karimov).
2. «Jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo‘lmasa, o‘z oldiga qo‘yan aniq bir maqsad-muddaosi bo‘lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi. Maqsad degani – xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi bamisoli bir bayroq» (I. Karimov).
3. «Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi» (I. Karimov).

4. «Agar biz bugungi hayotimizga, bunyodkorlik ishlarimizga, erishayotgan yutuqlarimizga to‘g‘ri baho bermasak, ularning qadriga yetmasak, o‘z hushyorligimizni yo‘qotib, bizni har qadamda kutayotgan tahdidlarni, tinch turmushimizga, xavfsizligimizga rahna solayotgan, oyoq ostidan chiqayotgan har xil balo-qazolarni ham payqamay-sezmay qolishimiz mumkin» (I. Karimov).

O‘qituvchi bu fikrlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib beradi, sinfga ilgari topshirilgan va dars davomida berilgan savollarning javoblariga qarab, o‘quvchilarni baholaydi. Darsga umumiyl yakun yasashdan oldin mustaqil tayyorgarlik uchun uyg‘a vazifalar beriladi.

# UCHINCHI QISM MILLIY ISTIQLOL G'YOASI

asosiy tushuncha  
va tamoyillar

## ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALARNING QISQACHA LUG'ATI

**1. G'oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni muayyan maqsad-muddao sari yetaklaydigan fikrdir. Turli falsafiy ta'limotlar, ilmiy qarashlar, badiiy asarlarning negizida ham muayyan g'oyalar yotadi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlarning maqsadlari ham g'oyalarda aks etadi. Agar g'oyalar yuksak joziba kuchiga ega bo'lib, u yoki bu qatlam va guruhlarning maqsad-muddaolari va odamlarning orzu-istikclarini aks ettirsa, haqiqatga yaqin bo'lsa, jamiyatda keng tarqaladi. Ezgu g'oyalar komil insonlarning iymon-e'tiqodi, dunyoqarashi o'zagini, hayot mazmunini tashkil etadi. Tarixda o'z jasorati, mardligi va qahramonligi bilan iz qoldirgan buyuk insonlar hamisha yuksak g'oya sohiblari bo'lganlar.

**2. Milliy g'oya** – millatni, xalqni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi ulug'vor fikrdir. Bunday fikr, avvalo, xalqning o'zligini, milliy g'ururi, oriyati va sha'nini anglashiga, tarixiy xotirasining uyg'onishiga olib keladi. U xalqning azaliy intilishlari, ezgu niyatlar, maqsadlari, manfaat va ehtiyojlari, orzu va ideallari, hayotiy tajribalari, bilim va malakalarini o'zida mujassam etadi.

Shu ma'noda milliy g'oya xalqning butun tarixi va hayoti davomida shakllanib, sayqallanib va takomillashib boradi. Milliy g'oyaning ommaga ta'sir etuvchi kuchi uning uyushtiruvchilik, uyg'otuvchilik, yetaklovchilik, ilhomlantiruvchilik xususiyatlariadir. Milliy g'oya shu jihatdan xalqning o'tmishini kelajak bilan bog'lovchi, uni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi va safarbar etuvchi buyuk ma'naviy kuchdir.

**3. Bunyodkor g'oyalar** – turli shaxs, guruh, qatlam, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, jamiyatni birlashtirib, ijobjiy maqsad yo'lida yakdil harakat qilishga undovchi g'oyalardir. Bunyodkor g'oya ta'sirida insonlar millatlar va davlatlar ozodlik hamda mustaqillikka erishish, adolat tantanasi uchun kurashadilar, buyuk tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritadilar. Bu g'oyalar insonning

ichki yaratuvchanlik mohiyati, jamiyatning ijodkorlik tabiatidan kelib chiqadi, odamning iyomon-e'tiqodini mustahkamlaydi, hayotiga mazmun baxsh etadi. O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi bunyodkor g'oyalar tizimidan iborat.

**4. Vayronkor g'oyalar** – inson va jamiyatni tanazzulga boshlaydigan, g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan buzg'unchi g'oyalardir. Shaxsiy yoki tor guruhiy manfaatlarni boshqalar hisobiga qondirish, bosqinchilik va talonchilik, tajovuzkorlik va manfaatparastlikka asoslangan g'oyalar shular jumlasidandir. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliv irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga fatvo beradigan, jamiyatni bo'lib tashlaydigan vayronkor g'oyalar ko'p. Diniy aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, fashizm kabilar mana shunday vayronkor g'oyalar asosiga qurilgan.

Milliy istiqlol g'oyasi vayronkor, buzg'unchi g'oyalarning har qanday ko'rinishlarini keskin rad etadi, bunday g'arazli fikrlar va niyatlarga bunyodkor g'oyalarni qarshi qo'yadi. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbiga yuksak g'oyalarni singdirish yovuz g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

**5. Mafkura** – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam yoki davlatning manfaatlari, orzu-istiklari, maqsad-muddaolarini va ularga erishishning ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini, usul va yo'llarini ifoda etadigan g'oyalar tizimi hamda ularni amalga oshirish mexanizmidir. U muayyan dunyoviy, diniy, falsafiy ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum qarashlar va axloqiy tamoyillarga tayanadi.

Insoniyat tarixi mobaynida xilma-xil mafkuralar yaratilgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g'oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari, ularning manfaatlari va maqsadlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta'limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Mafkuralar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatni birlashtirishi yoki qarama-qarshi qutblarga bo'lib yuborishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin.

O'zbekiston xalqining istiqlol mafkurasi esa kishilarni, jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, bu kelajakda har bir yurtdoshimizning munosib o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

**6. Istiqlol mafkurasi** – jamiyatning istiqloliga xizmat qiluvchi, mustaqillikni mustahkamlash manfaatlarini ifodalovchi g'oyalar

tizimidir. U jamiyatni ulug‘vor g‘oyalar asosida bir butun kuch qilib birlashtiruvchi, uyuştiruvchi va harakatga keltiruvchi ijtimoiy hodisadir.

«Istiqlol» so‘zi «mustaqillik» so‘ziga nisbatan kengroq ma’noga ega bo‘lib, mustaqillikning nafaqat amalga oshgan paytini, balki, uning istiqbolini ham qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, istiqlol mafkurasi jamiyatning mustaqillikka erishishi, taraqqiyoti va istiqboliga oid manfaatlarni ifodalovchi g‘oyalar tizimidan ham iboratdir. Bunday manfaatlarga, eng avvalo, mamlakatning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi, yurtning tinchligi va osoyishtaligi, mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini, har bir oila va butun xalqning farovonligini ta’minalash, jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o‘z-o‘zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi kiradi. Bunday manfaatlar barcha xalqlar va davlatlar uchun birday xos bo‘lib, ularning ta’minalishi har qanday davlat mustaqilligining asosiy garovidir. Bunday manfaatlarni ta’milagan jamiyatgina o‘z kelajagiga o‘zi egalik qila oladi, ular shu jamiyatda yashovchi fuqarolarning hamjihat mehnati va intilishlari tufayli ta’minaladi.

**7. Milliy istiqlol mafkurasining dunyoviy ildizlari** deganda, zamonaviy fan yutuqlari bilan birga uning milliy va umuminsoniy qadriyatları, demokratiya tamoyillariga asoslanganligi, bu mafkuraning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson erkinliklari va huquqlarini ta’minalashga xizmat qilishi, jamiyatdagi barcha din, maslak, millat va elat vakillariga birday taalluqli ekanligi tushuniladi. Ushbu xususiyatlar uning umuminsoniy tamoyillarga asoslanishi, Vatanning muqaddasligi, insonning qadr-qimmati ustuvorligi, ma’naviyatning yetakchiligi tamoyillariga izchil amal qilishida, jamiyat a’zolarini Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minalashdek oliyanob maqsadga safarbar etishida, muayyan mafkuraning mutloq hukmronligidan voz kechilishida namoyon bo‘ladi. Bunday mafkura jamiyatda yashovchi barcha insonlarning tengligiga, xalqning farovonligiga, ilm-ma’rifatning qadrlanishiga, sog‘lom ma’naviyatning yuksalishiga, milliy va diniy bag‘rikenglikning rivoj topishiga xizmat qiladi.

**8. Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy ildizlari** – avvalo xalqimizning boy falsafiy merosida, tafakkur tarzida (mentalitetida), urf-odatlari va an'analarida mujassamdir. Shu bilan birga, ular jahon falsafasi yutuqlari, insoniyat tarixida nom qoldirgan buyuk

faylasuflar merosiga tayanadi. U Vatanga, insonga, jamiyatda, aqlidrok va ilm-ma'rifatga, diniy va milliy qadriyatlarga, oilaga, ota-onaga, farzandlarga, ayollarga va nihoyat keksalarga bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanadi. Bu ildizlar odam va jamiyat, fan va din, tabiat va jamiyatning, san'at va adabiyotning ma'naviy asosini ifodalovchi o'zbek milliy falsafasida o'z ifodasini topadi; muqaddas diniy kitoblarimizda, xalq og'zaki ijodi namunalarida, milliy dostonlarimizda, matal va ertaklarimizda, buyuk donishmand mutafakkirlarimizning yozma merosida aks etadi.

**9. Diniy bag'rikenglik (tolerantlik)** tushunchasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarining bir zamin, bir Vatanda, olidianob g'oya va niyatlar bilan hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. U butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, jamiyatga tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Yurtimizda qaror topgan dinlararo totuvlik va bag'rikenglik eng katta yutuqlarimizdandir.

Azal-azaldan diyormizda islam, nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo'lgan. Tariximizning eng murakkab davrlarida ham diniy asosdagи mojarolar bo'limgani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

Barcha odamlar, millati, irqi, dinidan qat'i nazar, avvalo, inson ekanligini kishilar ongiga singdirish zarur. Chunki, hozirgi vaqtida demokratik rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun biz jamiyatimizda diniy, insoniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashimiz lozim.

**10. Yurt tinchligi** – milliy istiqlol g'oyasining eng asosiy tamoyillaridan biridir. Zero tinchlik va osoyishtalikni saqlash o'z-o'zidan sodir bo'ladigan hodisa emas. Dunyoda keyingi besh ming yil ichida 15 mingdan ziyod urushlar bo'lgani, bugun ham yer yuzida urush va notinchliklar bo'lib turgani bu tamoyilning muhimligidan dalolat beradi. Ayniqsa, milliy mustaqillikka tajovuzning turli shakllari, murakkab «texnologiyasi» vujudga kelgan hozirgi davrda yurt tinchligini saqlab qolish uchun mustahkam qat'iyat, kuchli iroda va moddiy-moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, ularni yurt tinchligini saqlash maqsadlari, vazifalari natijasida vujudga kelgan ayrim qiyinchiliklarga chidam va sabr-toqatli etib tayyorlash milliy istiqlol mafkurasingin bosh yo'nalishlaridan biridir.

**11. Xalq farovonligi** – mustaqil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Siyosiy barqarorlikning mavjudligi, uning boy tabiiy resurslari, xalqimizning intellektual salohiyati, eng asosiysi, kelajakka bo‘lgan qat’iy ishonch mamlakatimizda xalq farovonligini ta’minlash zaminidir. Bu g‘oyaning mohiyat-mazmuni har bir insonni, oilani iqtisodiy baquvvat qilish bilangina jamiyat va davlatni kuchli, qudratli qilish mumkin, degan tamoyilga asoslanadi. Zero, xalq farovonligini izchil ravishda ko‘tarish orqali, bir tomondan, jamiyatdagi siyosiy iqlimning mo‘tadilligini saqlash, maskuraviy sobitlikka erishish, ikkinchi tomondan, xalq hayotining iqtisodiy jihatini uzlusiz yaxshilash uchun aniq imkoniyat paydo bo‘ladi.

Hozirgi vaziyat kishilar ongidagi boqimandalik kayfiyatini bartaraf qilib, ularga har kim o‘z farovonligini o‘zi yaratishi mumkinligini tushuntirish, ularni yaratuvchilik faoliyatiga safarbar qilishda turli masjuraviy usul va vositalardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

**12. Komil inson** tushunchasi shuni anglatadiki, fuqarolari ma’naviy yuksak va jismoniy barkamol bo‘lgan jamiyatgina rivojlanish darajasini namoyon qila oladi. Shuning uchun ham komil inson g‘oyasi umumbashariy ahamiyatga molik bo‘lgan masala hisoblanadi. Insondagi komillik, eng avvalo, uning tafakkur va faoliyat erkinligini nechog‘li anglashida ifodalanadi.

Komil inson o‘z mohiyatini jamiyatni barkamol qilishi bilan namoyon etadi. Shuning uchun ham buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy asarlarida fozil shahar, komil inson g‘oyalari bir-biri bilan bog‘liq holda yoritilgan. Alisher Navoiy dostonlarida inson baxti uning jamiyatga keltirayotgan foydasi bilan o‘lchanishi alohida ta’kidlanadi. «Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami», degan misralar buning yaqqol namunasidir.

Komil inson va jamiyat munosabatlarida bir-biri bilan bog‘liq ikki jarayon mavjud. Birinchisi, komil inson jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi, uning rivojlanish darajasini belgilaydi. Ikkinchisi, jamiyatning rivojlanish darjasini komil insonni tarbiyalash imkoniyatlarda namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqil O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalash ishi davlat siyosati darajasida hal qilinishi zarur bo‘lgan ustuvor yo‘nalish, deb e’tirof etilgan. Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg‘urmagan xalq, millat yoki davlatning istiqboli yo‘q.

**13. Ijtimoiy hamkorlik.** Jamiyatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, huquqiy demokratik davlat tizimining shakllanishi muqarrar ravishda turli ijtimoiy toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifasi millatidan, dinidan, yoshidan, jinsidan, iqtisodiy ahvoldidan, maslagidan qat'i nazar ijtimoiy hamkorlik g'oyasi atrofida, umummillat manfaatlari va ehtiyojlari doirasida mamlakatimizda yashayotgan barcha aholini istiqbol maqsadlariga erishish yo'lida birlashtirishdan iboratdir.

Mamlakatda ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratish undagi shart-sharoitga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga, jamiyatni harakatlantiruvchi maqsad va mexanizmlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham davlatning bosh islohotchilik roli, eng avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vaziyatni, madaniy muhitni, huquqiy qonuniy munosabatlarni shakllantirish faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish ijtimoiy hamkorlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Zero, erkinlik asosiga qurilgan hamkorlik g'oyasi jamiyat taraqqiyotining omiliga, kafolatiga aylanadi.

**14. Demokratiya** (lotincha *demos* – xalq va *kratos* – hokimiyat) – xalq boshqaruvi, xalq uchun boshqaruv va xalq yordamida boshqaruv amalga oshiriladigan davlat tuzilishi va hokimiyat shaklini bildiradi. Bunda xalq davlat hokimiyatining manbayi hisoblanadi, fuqarolarning keng doiradagi huquqlari va erkinliklari, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki yuqori darajada ta'minlanadi. Demokratiya sharoitida huquq va erkinliklar nafaqat e'tirof etiladi, balki jamiyat, davlat tomonidan kafolatlanadi ham. Shu tariqa fuqarolar ishlab chiqarish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida faol ishtirot etadilar.

**15. Gumanizm** (lotincha *gumanis* – insonga xos, insoniy) – insonni shaxs sifatidagi qadrini ijtimoiy munosabatlarni baholash mezoni deb biluvchi qarashdir. Gumanizm insonning erkin faoliyati va taraqqiyotini, o'z qobiliyatlarini namoyon etishini nazarda tutadi. Gumanizm tarixan Sharq falsafasida yuksak mavqega ega bo'lgan. Ayniqsa, tasavvuf falsafasida J.Rumi, A.Jomiy, A.Navoiy, B.Mashrab va boshqalarning qarashlarida gumanizm g'oyasi yuksak darajaga ko'tarilgan. G'arbda esa gumanizm tarixan cherkovning ma'naviy zo'ravonligi va zug'umiga qarshi o'larоq uyg'onish davrida

dunyoviy, ilg‘or dunyoqarash sifatida shakllangan. Hozirgi davrda gumanizm umuminsoniy qadriyat sifatida qabul qilingan, xalqaro huquq normalarida o‘z ifodasini topgan.

**16. Fuqarolik jamiyati** – jamiyatning tarkibiy qismi, uning davlat, hokimiyatidan tashqari sohasi. Fuqarolik jamiyati davlatning vujudga kelishi barobarida shakllanadi. Davlat hokimiyati tizimi va faoliyatida demokratik tamoyillar va me’yorlar qanchalik to‘la mujassam bo‘lsa, fuqarolik jamiyatining hayotiy faoliyati ham shunchalik keng, uning davlat bilan munosabatlari turli-tuman bo‘ladi. Davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlari o‘rtasida ziddiyatning bo‘lishi esa davlatning inqiroziga sababchi bo‘lishi mumkin.

**17. Taraqqiyotning o‘zbek modeli.** Mamlakatlarning bir tizimdan boshqasiga inqilobiy yoki tadrijiy yo‘l bilan o‘tishi muqarrar ravishda modellashtirishni taqozo qiladi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, «bozor munosabarlariga o‘tishning besh tamoyili» deb atalgan taraqqiyot dasturining o‘zagini tashkil etgan o‘zbek modelining mazmunini «islohotlar islohot uchun emas, balki islohotlar inson uchundir» degan g‘oya tashkil qiladi. Iqtisodning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi, qonunning ustuvorligi, davlatning bosh islohotchiligi, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini olib borish va islohotlarni bosqichma-bosqich tarzda tadrijiy yo‘l bilan borishi – bu modelning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi. Har qanday islohot aql bilan, shoshilmasdan, sistemali – rejali tarzda amalga oshirilsagina kutilgan natijani berishi mumkin. Buni millat manfaatlарining kafolati bo‘la oladigan, kuchli davlatgina amalga oshirishga qodir. Davlatning bosh islohotchilik roli, eng avvalo, millat taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi bilan izohlanadi. Millat ehtiyojlaridan kelib chiqqan, uning hayotiy manfaatlарini ifodalaydigan qonunlar esa davlatning mavjudligi shartidir. Qadimgi mutafakkirlardan birining «Dunyo o‘girilsa o‘girilsin, lekin qonun tantana qilsin» degan shiorida muayyan haqiqat mavjud. Zero, mamlakatimizda demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasi va barcha qonunlarning istisnosiz bajarilishi jamiyat kelajagining kafolatidir. Mamlakatimiz demografik tarkibidagi milliy xususiyatlar taraqqiyotning o‘zbek modelini belgilashda ijtimoiy muhofaza siyosatini ustuvor qilib, kun tartibiga qo‘ydi. Ayniqsa, aholining 65 foizini yoshlar tashkil etishi ijtimoiy himoya, muhofaza

siyosatining o‘ziga xos yo‘nalishini, talablarini belgilab berdi. Jamiyatimizning tarixiy rivojlanish xususiyatlari bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiylik bilan bosqichma-bosqich o‘tishni taqozo etdi. Bu yo‘lning gumanistik mazmuni eski tuzum prinsiplarining kishilar ongida mustahkam o‘rnashib qolganligi, milliy mentalitetni e’tiborga olishdan kelib chiqqan. Jamiyat hayotini zilzilalarsiz, talafotlarsiz isloh etish bu tamoyilning asosini tashkil etadi.

**18. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.** Turli mezonlarga tayanib olamning xilma-xil manzarasini chizish mumkin. Aytaylik, dunyoning siyosiy xaritasi – davlatlarning o‘rni, hududi va chegarasi bilan tavsiflanadi. Bundan farqli tarzda hududiy bo‘linish asos qilib olinsa, yer yuzi turli mintaqaga va qit’alarning majmuyi sifatida namoyon bo‘ladi. Unda turli ijtimoiy guruh, qatlam, millat va davlatlar mayjud.

Ularning bir-biridan farqlanuvchi ehtiyoj va manfaatlari, maqsad-muddaolari va intilishlari, ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirgan g‘oyalar tizimi ham mavjud. Bunday g‘oyalar tizimi va ularni o‘zida aks ettirgan tafakkur shakllari ham xilma-xildir. Olamga ana shu xilma-xillik nuqtayi nazaridan qarasak, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan mafkura shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ayni paytda e’tiqod umumiyligiga asoslangan holda mafkura hukmronligini ta’minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o‘ziga qaram qilishga bo‘layotgan xatti-harakatlar ham mavjud. Pansovetizm, panislomizm, panslavyanizm, panxristianizm, panturkizm, paneronizm kabi g‘oyalar shular jumlasidandir.

**19. Geopolitika** – (geosiyosat) jamiyat hayotida geografik omillarning sezilarli ta’siri mayjudligini o‘zida mujassam etadigan tushunchadir. Geografik muhit jamiyat hayotiga, shu jumladan, davlat siyosatiga ham turli ko‘rinishlarda ta’sir etishi mumkin. Geografik muhit va siyosat o‘rtasidagi aloqadorlik geopolitika tushunchasida ifodalanadi. Geopolitika tushunchasi XX asrda paydo bo‘lgan. U davlat siyosatini geografik omillarni inobatga olgan holda amalga oshirishni anglatadi. Qadim davrlarda qulay joylarda qal’alar

qurish, karvon va suv yo'llariga egalik qilishga intilish bu siyosatning o'ziga xos jihatlaridir.

Geopolitika davlatlar yoki davlatlar guruhi manfaatlarining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Bu manfaatlar ularning geografik joylashuvi, o'ziga xos hududiy-makoniy ahvoli, tabiiy resurslarga boy yoki kambag'alligi kabi qator geografik omillar bilan belgilanadi.

**20. Kishilar qalbi va ongi uchun kurash** – mafkuralarning bosh maqsadi hisoblanadi. Muayyan g'oya tom ma'noda harakatlantiruvchi kuchga aylanishi uchun kishilar qalbidan joy olishi shart. Boshqacha aytganda, g'oyaning kishilar ongini egallashining o'zi yetarli emas. Zero, g'oya ongda oddiy axborot sifatida saqlanib qolishi ham mumkin. Bunday holatda g'oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallagan, uning ichki ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina va shu asosda uni muayyan maqsadga rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun, bugungi kunda milliy istiqol g'oyasini fuqarolar nafaqat ongi, balki qalbiga ham singdirish vazifasi jamiyatning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

**21. Mafkuraviy poligon.** Odatda poligon (grekcha serqirra degan ma'noni bildiradi) deganda quroq-aslaha va texnikani sinash, qo'shincharni harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish yoki harbiy sohada tadqiqotlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi. Poligonga xos bo'lgan bunday xususiyatlar g'oyaviy faoliyat kechadigan mafkuraviy poligonga ham tegishlidir. Chunki, mafkura poligonlarida, birinchidan, mohiyatan muayyan maqsadga qaratilgan g'oyalar sinovdan o'tmoqda. Ikkinchidan, ularni kishilar ongi va qalbiga singdirish yo'llari va vositalari takomillashtirilmoqda. Ilgari quroq-yarog' bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilish uchun ishlatalar edi. Bugungi kunda o'zga hududlarni bosib olish uchun aholini mahv etish shart emas. Balki muayyan mafkuraviy ta'sir natijasida ongi va shuuri zabit etilgan, qarash va kayfiyatlarini «ma'qul» yo'naliishga yo'naltirilgan biror yerlik aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin. Chunki, bunday aholi chet mafkura ta'sirida bo'lganidan o'zligini yo'qotadi, milliy manfaatlaridan voz kechadi. Mafkuraviy poligonlar ta'sirining xavfi ham ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi.

**22. Buyuk davlatchilik shovinizmi** – muayyan kuchlar va davlat

tomonidan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlikka intilish; bunda o‘zini, o‘z davlati manfaatlarini yuqori qo‘yish.

«Shovinizm, ba‘zi ko‘p sonli millatlarning, nafaqat ko‘pmillatli imperiya doirasida, balki uni o‘rab turgan jug‘rofiy-siyosiy makonda ham o‘zining mutlaq hukmronligini o‘rnatish uchun kurashida namoyon bo‘ladi» (I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent, «O‘zbekiston», 1997-yil, 52-bet).

Buyuk davlatchilik shovinizmi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, g‘ayriinsoniy xarakterga ega. Zero, u milliy tengsizlikni oqlash, targ‘ib-tashviq qilish hamda himoya qilishning o‘ziga xos shaklidir. Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o‘zining tor manfaatlarini ustun qo‘yadigan, o‘zaro kelisha olmayotgan, hokimiyatga da‘vogar siyosiy guruhlarning mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi va ma’naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg‘ulari hukmron bo‘lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishi mumkin.

Buyuk davlatchilik shovinizmining xavfi bunday pozitsiyada turgan kuchlar, davlatlarning iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy salohiyatining kattaligidagina emas, balki axborot orqali va mafkuraviy yo‘l bilan tazyiq ko‘rsatish imkoniyatlarining kengligida, ular qo‘lidagi g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish vosita va mexanizmlarning xilma-xilligidadir.

**23. Fashizm (italyancha fashizmo – tugun, birlashma)** – XX asrning 30-yillarida Yevropada vujudga kelgan o‘ta zararli siyosiy oqim. U ochiqdan ochiq terrorga asoslangan holda hokimiyat uchun kurashgan. Fashizmning eng ko‘zga tashlanadigan xususiyatlari – odamlarga qarshi shafqatsiz zo‘rlik shakllarini qo‘llash, shovinizm va irqchilikdir. Tashqi siyosatda fashizm boshqa davlat va xalqlarga tajovuz qilish, ularni bo‘ysundirishni ochiqdan ochiq targ‘ib qiladi.

Fashizmga asoslangan siyosiy tartiblar XX asrning 30-yillarida Italiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida o‘rnatilgan edi. 1939–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi tugagach, 1945-yildagi Berlin konferensiyasi qaroriga ko‘ra fashistik milliy-sotsialistik partiya va uning nazoratida bo‘lgan tashkilotlar yo‘q qilindi. Bu qarorlar fashizmning har qanday ko‘rinishda va shaklda qayta tiklanishining oldini olishni nazarda tutgan edi.

70-yillarda Portugaliya, Gretsya, Ispaniyada fashistik tartiblar barbos bo'ldi. Lekin bir qancha mamlakatlarda neofashistik (yangi fashistik) unsurlarning faolligi vaqtiga vaqtiga bilan namoyon bo'lmoqda. Dunyoning bir qancha mintaqalarida (Paragvay, Chili, Janubiy Afrika Respublikasi) harbiy diktaturalar tugatildi. Ammo haligacha ba'zi Yevropa davlatlarida (Avstriya, Germaniya) neofashistik guruhlar mavjudligi jahon afkor ommasini tashvishga solmoqda.

**24. Mafkuraviy immunitet** (lot. immunitez – ozod bo'lish, qutulish ma'nosini bildiradi). Immunitet deganda, odatda organizmni turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuyi tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli kasalliklarga qarshi turish xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning biologik immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitet uning hayoti davomida vujudga keladi. Uni shakllantirish va rivojlantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosi – bilimdir. Ammo bilimlar ko'p. Misol uchun, buyuk davatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasini va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, vogelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda inson ma'naviyatining boyishiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Mafkuraviy immunitet shakllanishining ikkinchi asosiy omili ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Ya'ni bilimlar qanchalik obyektiv va chuqr bo'lsa, uning zamirida yuzaga keigan qadriyatlar, qadrlash mezonlari ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Bilimlar va qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning uchinchchi muhim asosi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir. Demak, bugungi dunyo sirlarini, ijtimoiy jarayonlar yo'nalishlarini bilish, o'zi va milliy manfaatlar qadriga yetish, hayotdagi mezon va mo'ljallarni to'g'ri

anglash har qanday yet mafkuraga qarshi immunitet shakllanishi uchun asos bo'ladi.

**25. Mafkuraviy profilaktika** – mohiyatan yet g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar majmuyini o'z ichiga oladi. Mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda turli ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuyini, butun bir tarbiya tizimini qamrab oladi. Bunda targ'ibot va tashviqot, oila, mahalla, mehnat jamoalari, davlat va jamiyat tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

**26. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi.** Insoniyat uzoq tarixi jarayonida doimo erkinlikka intilib yashagan. Ijtimoiy munosabatlarning muayyan shakllariga mos bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy erkinliklar, eng avvalo, fikr erkinligi tarzida namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham boshqa millatlar, davlatlar ustidan hukmronlik o'rnatgan mamlakatlar tobe xalqlarni tafakkur qulligiga mahkum etishga harakat qilganlar.

Insonning muayyan hukmron mafkuraga, siyosatga fikriy qaramligi mustamlakachilik siyosatining eng ayanchli ko'rinishidir. Chunki, fikr qaramligi insonda loqaydlik kayfiyatini paydo qiladi. Uni boshqalarning fikri, mafkurasi quliga aylantiradi. Shuning uchun ham islohotlarning dastlabki bosqichidanoq kishilar tafakkurini yangilash, milliy o'z-o'zini anglashi tashabbuskorligi, siyosiy faolligini oshirish mafkura ishining markaziga qo'yildi. Chunki, mustabid tuzum siyosatining oqibati bo'lmish qo'rquv, hadik, fikr qaramligi islohotlarning qiyin kechishiga asosiy sabab bo'ladi. Hozir ham ko'pchilikda yuqorida ko'rsatma, buyruq kutib o'tirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilmaslik holatlari mavjud. Faqat fikrlar xilma-xilligiga – plyuralizmga erishishgina taraqqiyotning oqilona yo'llini tanlash, haqiqatga erishish imkoniyatini beradi. Buyuk faylasuf Suqrot aytganidek: «Haqiqat bahs-munozaralarda tug'iladi». Bu esa xilma-xil fikr, rang-barang dunyoqarashni ifodalaydigan «plyuralizm» tushunchasi orqali namoyon bo'ladi.

Plyuralizm haqida gap ketar ekan, o'z erkin fikrini ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlama, avvalo, o'z qarashlariga ega bo'lishi, uning oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim ekanligi tushuniladi. Ya'ni boshqacha aytganda, fikrlar rang-

barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlariga, qonun me'yorlariga, axloqiy mezonlariga zid bo'lmasligi zarur.

**27. Ekstremizm** – ayirmachilikka asoslangan g'oya va harakatdir. U terrorizm, qo'poruvchilik kabi insoniyatning tinch hayotiga jiddiy xavf soladi. Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» va boshqa asarlarida ekstremizm, terrorizm, fanatizm kabi illatlarning kelib chiqishi sabablari va oqibatlariga katta e'tibor qaratilgan. Ular aslida dinni niqob qilib olgan hokimiyatparastlar ekani isbotlab berilgan. Ekstremistik guruhlar a'zolari aqidaparastlar (fanatlar) bo'lib, ularga haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi uslublar ta'sir etmaydi. Aqidaparastlar (fanatizm) esa o'ta keskin mutaassiblik bo'lib, bu toifadagi kimsalar, o'z g'oyalarining naqadar bid'at, g'ayriinsoniy, g'ayrihayotiy bo'lishiga qaramasdan, ularga mukkasidan berilgani, johilligi, boshqa e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi. Faqat o'zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni yolg'iz o'zi bilishiga ishonch hissi esa, so'nggi chorallarga – zo'ravonlik harakatlariga moyillikni yuzaga keltiradi, ya'ni ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ekstremizm turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin, lekin ajralmas mohiyati sifatida u terrorizmga borib taqaladi.

Diniy ekstremistlar qayerda foliyat ko'rsatmasin, ularning asosiy maqsadlari diniy davlatni barpo qilish bo'lib, eng yomoni bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, hatto qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar. Bu esa mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtirishga katta g'ovdir. Ekstremistik guruhlarning yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lda ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar.

**28. Islom xalifaligi.** Xalifalik turli xil ma'no beradi:

1) Islomning sunniylik oqimiga xos bo'lgan hokimiyatni idora etish tartibi. Bunda jamoaning dunyoviy va diniy hayotiga xalifa boshchilik qiladi. Xalifalikni amalda qanday bo'lishi kerakligi masalalari ilk islomda keskin siyosiy kurashlarga sabab bo'lib, unda sunniylik, shialik va xorijiylik kabi asosiy oqimlarni vujudga keltirgan.

2) Xalifalik – xalifa boshqaradigan davlatning nomi. Odatda xalifalik (yoki Arab xalifaligi) termini bilan VII asrda arab istilosи tufayli

vujudga kelgan musulmon davlatlarini ataydilar.

3) Xalifalik – Arabistonda VII asrning 20-yillarida Muhammad payg‘ambarning diniy islohotlari natijasida paydo bo‘lgan va uning vafotidan keyin 20 yil o‘tib butun Sosoniylar davlati va Vizantianing ko‘p qismini qamrab olgan davlat.

Bugungi kunda ba’zi islom aqidaparastlari o‘rta asrlardagi xalifalikni tiklashni da’vo qilmoqdalar. Chunki hozir o‘sha xalifalik o‘rnida o‘nlab mustaqil davlatlar shakllangan. Ularning o‘z yo‘li, maqsad-muddaolari bor. Hozir eski, almisoqdan qolgan xalifalikni tiklash g‘oyasi xomxayoldan boshqa narsa emas.

**29. Vahhobiylilik** – diniy-siyosiy oqim bo‘lib, u XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Unga Muhammad ibn Abdul Vahhob (1703–1794) asos solgan. Vahhobiylar bevosita din nomidan ish ko‘rgan va uni «tozalash», ya’ni payg‘ambar davridagi asl holatiga qaytarish kabi g‘oyalarni ilgari surgan. Ingliz mustamlakachiligi bu vaziyatdan o‘z maqsadida foydalangan: g‘oya tarafдорлари qurollantirilib, Usmonli turklarga qarshi jangga tashlangan. Shuning uchun ham ular usmonli turklar mansub bo‘lmish hanafiy mazhabini kofir mazhabi deb e’lon qilishgan.

Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qarshi bo‘lib, musiqa, teatr va tasviriy san’atni gunoh deb hisoblashadi. Ayni paytda ular hokimiyatni egallash va uning vositasida o‘z tartib-tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun qat’iy kurash olib borishadi. Faqat bu niyatni amalga oshirishda din ular uchun bir niqob, xolos. Vahhobiylilik harakati XIX asr boshlarida juda avj olgan edi. Vahhobiylar iymon masalasida o‘ta mutaassiblik; siyosiy raqiblar bilan kurashda esa oshkora ekstremizm yo‘lini tutganlar, dindan o‘z siyosiy niyatlarini amalga oshirishda vosita sifatida foydalanganlar. Vahhobiylar 1803-yili Makkani, keyin Madinani bosib olishadi. Bu muqaddas joylardagi barcha qabr toshlarini, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima va sahobalar sag‘anasisidagi qabr toshlarini buzib, sindirib tashlashadi. 1810-yili Muhammad payg‘ambarimiz masjidini ham talon-toroj qilishadi.

So‘nggi paytda vahhobiylilikning muayyan ko‘rinishdagi tarafдорлари O‘zbekistonga ham suqulib kirishga harakat qildi. Ular yoshlarni yo‘ldan urishga, har qanday vositani ishga solib, o‘zlarini uchun ijtimoiy muhit yaratishga urindi. Biroq O‘zbekiston hukumatining izchil siyosati tufayli vahhobiylilik ko‘rinishidagi diniy

ekstremizm va aqidaparastlikning keng yoyilishining oldi olindi.

**31. «Hizbut-tahrir al-islomiya»** norasmiy siyosiylashgan partiya 1953-yilda paydo bo'ldi. Uning asoschisi Misrdagi «al-Azhar» universitetini tamomlab, Quddus shahri sha'riy shikoyat sudining a'zosi lavozimida ishlagan shayx Taqiyiddin Nabahoniy (1909–1979) bo'lib hisoblanadi. U lordaniyadagi «Al-Ixvon al-muslimun» («Musulmon birodarlar») diniy ekstremistik tashkiloti rahbarlaridan biri edi. Nabahoniy o'z qarashlarini «Islom nizomi», «Islomiylar olamga qaynoq nidolar», «Hizbut-tahrir tushunchalari» va boshqa risolalarida bayon qilgan.

Bugungi kunda partiyaga Falastinning Xalil shahrida tug'ilgan Abdulqadim Zallum rahbarlik qilmoqda. Mazkur diniy tashkilot faoliyati 1982-yildan sezilarli darajada jonlandi. Tashkilot rahbarlarining asosiy qismi G'arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat olib boradi.

«Hizbut-tahrir»ning boshqa norasmiy diniy tashkilotlardan farqi – uning a'zolari hujumni asosan kishilar ongini zaharlashga qaratadi, ya'ni islomiy davlat nizomini targ'ib etishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun 1989-yilda tashkilotning «Al-Va'y» («Ong») nomli jurnali chiqa boshladi.

«Hizbut-tahrir»ning g'oyasi va maqsadi islomning asl ta'lilotidan uzoq, demokratik-huquqiy davlat konstitutsiyasiga zid, kishilarning diniy e'tiqodi, demokratik tamoyillar, jumladan, yurtimizdagi vijdon erkinligini suiiste'mol qilib, siyosiy hokimiyatga intilishdan iborat. Bunday partiya va oqimlarning asosiy maqsadi mamlakatda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, eng yomoni, birodarkushlik, xunrezlikni keltirib chiqarib, taraqqiyotga to'sqinlik qilishdir.

## MUNDARIJA:

«Milliy istiqlol g‘oyasi» fani .....	3
<b>BIRINCHI QISM</b>	
<i>(Nazariy mashg‘ulotlar)</i>	
Milliy istiqlol g‘oyasi fanining predmeti, mavzusi, maqsad va vazifalari .....	7
«G‘oya» va «mafcura» tushunchalarining mohiyati va mazmuni .....	13
G‘oya va mafkuraning tarixiy shakllari .....	20
Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash .....	28
Markaziy Osiyo: Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar .....	35
Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz? .....	43
Taraqqiyotning o‘zbek modeli .....	56
Zararli g‘oyalar va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ogohlilik va hushyorlik .....	62
Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuni .....	68
Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari .....	77
Milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalari .....	84
Vatan ravnaqi va yurt tinchligi, xalq farovonligi va komil inson g‘oyasi .....	93
Istiqlol va g‘oyaviy tarbiya .....	110
Komil inson — milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsadlaridan biri .....	116
<b>IKKINCHI QISM</b>	
<i>(Amaliy mashg‘ulotlar)</i>	
«G‘oya» va «mafcura» tushunchalarining mohiyati va mazmuni .....	123
G‘oya va mafkuraning tarixiy shakllari .....	126

Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash. Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi .....	132
Markaziy Osiyo: Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar.....	135
Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz? .....	138
Taraqqiyotning o'zbek modeli .....	142
Qo'shimcha amaliy mashg'ulot. Zararli g'oyalar va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ogohlik va hushyorlik .....	144
Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuni.....	147
Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari .....	150
Milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalari .....	153
Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi va asosiy g'oyalari .....	155
Istiqlol va g'oyaviy tarbiya .....	157
<b>QO'SHIMCHA VA IXTIYORIY MAVZULAR</b>	
G'oya va mafkuralarning falsafiy, tarixiy manbalari .....	165
Komil inson – milliy istiqlol g'oyasining maqsadi .....	171
<b>UCHINCHI QISM</b>	
Asosiy tushuncha va atamalarning qisqacha lug'ati .....	175

### **66.3(50')**

**M50** Milliy istiqlol g'oyasi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma/mualliflar jamoasi: Q. Nazarov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy ya o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010 — 192 b.

I. Nazarov Q.

**BBK 66.3(50') ya 722**

## **MILLIY ISTIQLOL G'YOASI**

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun  
o'quv qo'llanma**

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti  
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.  
Tel: 236-55-79; faks: 239-88-61

Muharrirlar: *U. Quchqor, M. Tursunova*

Badiiy muharrir: *I. Jumanov*

Musahhih: *H. Zokirova*

Dizayner: *N. Mamanov*

Bosishga ruxsat etildi 16.07.2010-y. Bichimi 60 x 90  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz. Shartli bosma tabog'i 12,0. Nashriyot-hisob tabog'i 12,5. Adadi 9136 nusxa.  
Buyurtma № 8.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.



ISBN 978-9943-319-78-3

9 789943 319783